


ABDIMUROTOV OYBEK URALOVICH

# TABIİY GEOGRAFIK KOMPLEKSLAR VA EKZOGEN JARAYONLAR



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**ABDIMUROTOV OYBEK URALOVICH**

**TABIY GEOGRAFIK  
KOMPLEKSLAR VA  
EKZOGEN JARAYONLAR**

«BOOK TRADE 2022»  
TOSHKENT – 2022

**Abdimurotov Oybek Uralovich**  
Tabiiy geografik komplekslar va ekzogen jarayonlar –T.: «BOOK TRADE 2022» nashriyoti, 2022. – 160 b.

Monografiyada respublikamizda geografiya o'qitish metodikasi bo'yicha olib borilgan va olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarning sharhi bayon etilgan va qiyosiy tahlil etilgan, geografiya ta'limning asosiy muammolari o'rganilgan, tabiiy geografiya kurslaridan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning maqsadi, vazifalari va ahamiyati ko'rsatib o'tilgan hamda tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlar zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish orqali talabalarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari va usullari yoritilgan.

Monografiya bakalavr, magistrant, ilmiy tadqiqotchi, o'qituvchi va fanni o'qitish metodikasi masalalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarga mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:**  
g.f.f.d. (PhD), dotsent F.T.Rajabov

**Taqrizchilar:**  
g.f.d., professor A.K.Urazbayev  
p.f.f.d. (PhD) F.R.Saydamatov

ISBN 978-9943-8821-8-8

© Abdimurotov Oybek Uralovich, 2022.  
© «BOOK TRADE 2022» nashriyoti, 2022.

## KIRISH

Jahonda tabiiy fanlarni o'qitish tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiyot sohalarini innovatsion rivojlantirish, ta'lif oluvchilarda atrof-muhit, tabiatga oqilona munosabatni tarkib toptirishda geografik savodxonlikni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bir-lashgan Millatlar tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining "Tabiatning butun jahon xartiyasi" (World Charter for Nature) va Xalqaro geografik kongresslari (International Geographical Union) materiallarida barqaror taraqqiyotni ta'minlashda tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, tabiiy, shu jumladan geografik fanlarni o'qitishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish, ana shundan dalolat beradi. Tabiiy geografiya kurslaridan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyalarining variativligini ta'minlash orqali bo'lajak geografiya o'qituvchilarida fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda geografik savodxonlikni rivojlantirishda uzviylik va uzlusizlikni ta'minlashning metodik tizimini takomillashtirish, tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishda geografiyadan amaliy faoliyat tajribasini shakkantirishning didaktik shart-sharoitlarini ishlab chiqish, geografiyadan virtual amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning innovatsion modellarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, tabiiy geografiya kurslarini o'qitish jarayonida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida takomillashtirish, talabalarda metodik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari hamda pedagogika oliy ta'lif muassasalarida geografik ta'limi amalga oshirishning yangi metodikalarini ishlab chiqish muhim dolzarblik kasb etadi. Tabiiy geografiya kurslaridan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish jarayonlari milliy o'quv dasturlari bilan integratsiyasini ta'minlashning dual o'qitish texnologiyalarini joriy etishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda oliy pedagogik ta'limi yangi sifat bosqichiga olib chiqish, ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning innovatsion tizimini ishlab chiqish, tabiiy fanlarni o'qitishning metodik ta'minotini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysida "Ta'lif sifatini yaxshilash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini jadallashtirish va

o‘qitish usullarini takomillashtirish” ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu esa, tabiiy geografiya kurslarini o‘qitish jarayonida ta’limning innovatsion shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish, yangi pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash orqali bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining amaliy tayyorgarligini takomillashtirish, geografik ta’limning fanga oid kompetensiyalarini baholashga yo‘naltilgan amaliy topshiriqlar tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi olyi ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilagan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ilmiy tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Oliy pedagogik ta’limning shakllanishi va rivojlanish jarayoni, qonuniyatlari va tendensiyalari, pedagogik kadrlar tayyorlash hamda bo‘lajak o‘qituvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash, o‘qitishga kompetentli yondashuv, pedagogik klaster muammolari respublikamizning taniqli pedagog olimlari, jumladan, L.G.Bobojanova, Sh.Q.Mardonov, G.I.Muhammedov, D.M.Mahmudova, J.E.Usarov, D.O.Himmatliyev, R.A.Eshchanov va boshqalarning ishlarida yoritib berilgan. Geografik ta’lim mazmunini takomillashtirish, geografiya darslarida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, didaktik materiallar, texnika vositalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foy-dalanish masalalari vatanimiz olimlari T.Abdullayeva, O.Mo‘minov, M.Nabixonov, P.Musayev, M.Asomov, R.Qurban niyozov, M.Yunusova, O.Safarov, A.Xayitov, M.Abduraxmanov, Q.Bahromov, R.Gaypova, S.Matsaidova, F.Jumanova, X.Nikadamboyeva, F.T.Rajabov, F.Xamroyeva, M.Qo‘ldasheva, A.Janzakov, F.Saydamatov va boshqalarning tadqiqot ishlarida o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlari S.P.Arjanov, N.N.Baranskiy, A.V.Darinskiy, V.A.Shenev, D.P.Finarov, N.N.Petrova, S.A.Suxinin, V.P.Maksakovskiy kabilarning ishlarida geografiya fanini o‘qitish metodikasining turli aspektlari ilmiy-pedagogik jihatdan tadqiq etilgan.

Xorijlik A.V.Fakhrutdinova, J.Scott Armstrong, D.Pepper, J.White kabi olimlar bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining metodologik, madaniy-geografik, iqtisodiy-geografik, geoekologik, kasbiy va kreativ kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish muammolari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Mavzuga oid ilmiy izlanishlar va o‘quv-metodik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, amaliy tayyorgarlik va kasbiy kompetensiya muammosiga oid ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo‘lsa ham, biroq pedagogika olyi ta’lim muassasalarining geografiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning fanga oid kompetensiyalarinini rivojlantirishning amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasini takomillashtirish orqali rivojlantirish masalasi maxsus tadqiq etilmagan. Bu esa, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatga amaliy tayyorgarligini jadallashtirish, ularda fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligini kafolatlaydigan o‘qitish shakl, metod, vosita va texnologiyalarini ishlab chiqish, mazkur jarayonni amalga oshirishning metodik shart-sharoitlar takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanish olib borishni taqozo etdi.

## I. BOB. OLIY TA'LIM MUASSASALARI TABIIY GEOGRAFIYA KURSLARIDA AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY MASALALARI

### 1.1-§. O'zbekistonda geografiya o'qitish metodikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili

O'zbekistonda geografiya ta'limi XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida "Yangi usul" maktabalarining tashkil qilinishi va faoliyati bilan bog'liq. Mazkur maktablar uchun 1890-yil Orenburgda (Rossiya) Fotih Karimning "Geografiya" darsligi, Samarqandda 1905-yil "Turkiston va unga qo'shni mamlakatlar xaritasi"ning nashr qilinishi, geografiyanı o'qitishga jiddiy e'tibor qaratilganligidan dalolatdir. Shuningdek, XX asr boshlarida mahalliy maktablarda geografiya fani Mahmudxo'ja Behbudiyning "Qisqacha umumiy geografiya" (1906) [100; 12-b.], Fotix Karimning "Geografiya" (1909) [123]; Muhammad Amin Karimiyning "Jo'g'rofiya riyoziy" ("Matematik geografiya") (1914); Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'lining "Yer yuzi" (1915) [64; 48-b.] darsligi kabi darsliklar orqali o'qitilgan. O'tgan asrning 20-40-yillari davomida O'zbekistonda quyidagi darsliklar geografiya fanini o'qitishda dasturi amal bo'lib xizmat qilgan: A.Kruber, S.Grigoryev, A.Barkov, S.Chefranovlar tomonidan yozilgan "Boshlanma jo'g'rofiya" (1923, Rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan) [95]; A.Geykin "Tabiiy jo'g'rofiya" (1925) (chet tilidan rus tili orqali tarjima qilingan), G.I.Ivanovning "Boshlang'ich jo'g'rofiya" (1927, Rus tilidan o'zgartirilib, qayta ishlaniib tarjima qilingan; N.Blashov "O'zbekiston va unga qo'shni jumhuriyatlar hamda viloyatlar" (1925); N.P.Arangel'skiy "Jo'g'rofiya" (o'lkani o'rghanish darsligi) (1933); A.Obizov "O'zbekiston sotsialistik sho'rolar jumhuriyati jo'g'rofiyasi" (1934); A.Obizovning "O'zbekiston jo'g'rofiyasi" kabi darsliklar [101; 17-18-b.].

Ta'kidlash joizki, XX asrning 30-yillari boshida vujudga kelgan dastlabki geografiya o'qitish metodikasiga oid kitob N.I.Leonovning "Jo'g'rofiya metodikasi bo'yicha ocherklar" metodik qo'llanmasidir. O'sha davrlarda o'zbek tilida geografiyadan dars beradigan mutaxassis-o'qituvchilarning yetishmasligi tufayli dars beradigan geograf-o'qituvchilarni chetdan olib kelingan, shulardan biri Ufadagi Madrasai

Oliyani bitirgan Jahonshoh Mirzajon o'g'li Baxtiyorov edi. U 1922-yil dan boshlab Toshkent muzofot pedagogika texnikumida geografiyadan dars bera boshlagan va 1944-yilgacha geografiya o'qituvchilarini tayyorlashga katta hissa qo'shganligini alohida ta'kidlash joiz [96; 23-b.].

Maktab geografiyasi O'zbekistonda sobiq sho'rolar davrida boshqa sobiq ittifoqdosh respublikalar maktab geografiyasiga o'xshab Rossiya maktabalarining namunasida boshlangan. Bunga avvalo sobiq Butunittifoq Kommunistik partiyasi (bol'sheviklar) markaziy qo'mitasining 1934-yil 16 maydagi "O'rta maktablarda geografiyanı o'qitish to'g'risida"gi qarori hamda "Pravda" gazetasining 1937-yil 10 sentabrdagi bosh maqolasi asos bo'lган. O'quv dasturlari va darsliklar deyarli sobiq ittifoqning boshqa maktabalaridagisining o'zi edi. Rusiy zabon maktablar uchun darsliklar Moskvada nashr etilib, o'zbek maktablari uchun ular Toshkentda o'zbek tiliga tarjima qilinib nashr etilgan. Har bir respublikaning o'z geografiyasi qo'shimcha o'lkashunoslik materiali sifatida: 7-sinfda "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" 14 soat; 8-sinfda 11 soat "O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi" o'rGANILGAN [78; 17-b.].

Maktab geografiyasi yuqoridaq holatlarga qaramay, geografiya o'qituvchilari bilan deyarli ta'minlangan, qator maktablarda geografiya xonalari va kerakli jihozzlarga ega edi. Keyinchalik O'zbekistondagi maktablar uchun o'lkashunoslik qo'llanmasi sifatida mualliflar: N.Dolimov, M.Qoriyev, O.Mominov, Z.Akromov, P.Musayevlar tomonidan tabiiy va iqtisodiy geografiya bo'yicha darsliklar nashr qilingan. Bularidan tashqari o'zbek tilida kartografiya (T.Mirzaliyev), iqtisodiy geografiya (P.Musayev), toponimika (H.Hasanov), umumiy tabiiy geografiya (H.Hasanov, P.Musayev, R.Qurban niyozov) ga oid qo'llanmalar ham nashr etildi. Shuningdek, O'zbekistonning maktab geografik atlasi yaratildi.

Oliy geografiya ta'limiga ilk bor 1935-yilda SAGU (hozirgi O'zMU) dagi Geologiya-tuproqshunoslik-geografiya fakultetida geografiya guruhining tashkil etilishi hamda shu yili Samarqand universiteti, Farg'on, Buxoro va Toshkent pedagogika institutlarida geograflar tayyorlashning boshlanishi asos bo'ldi. Mohir pedagog va olim "O'zbek Magellani" nomini olgan geografiya fanlari doktori, professor H.Hasanov O'rta Osiyoni geografik tekshirishlar va sayohatlar tarixi, toponimika, transkripsiya va geografik atamashu-

noslikka oid ko'plab asarlar yaratdi. H.Hasanov bulardan tashqari geografiya o'qitish metodikasi bilan mutassil shug'ullangan yetuk metodist olim ham edilar. Geografiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi haqida gap ketganda, ayniqsa, rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan M.Y.Mirboboyev, M.V.Qoriyev, I.Mirzaboyev, K.Rashidov, J.Usimonov, A.V.Xisomov, R.L.Yugay, X.Siddiqov, Mirhabibov, A.Omilov, V.Kovalchuk, U.Rustamov, I.Inog'omov, Z.Shomurotova, B.Mirtursunov, A.Qo'chqorov, Z.Rayimjonov kabilarni ta'kidlash lozim. Ularning ilmiy tadqiqotlarining asosiy mavzularidan biri geografiya ta'limi o'qitish bo'lgan [78; 31-32-b.].

Respublikamizda qabul qilingan "Ta'lism to'g'risida"gi Qonunning asl mohiyati sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashdir [1]. Bu o'rinda geografiya fanining o'z o'rni bor. Eleze Reklyu aytganidek: "Geografiya bugungi kun tarixi, Tarix esa o'tgan kunlar geografiyasi"dir [85; 7-b.].

Demak, geografiya fani tarix va boshqa fanlar kabi yuqori mavqeysiga ega bo'lib, uning tarbiyaviy, ilmiy, amaliy ahamiyatini yanada yuksaltirish zarur. Bu ko'p hollarda o'zimizga, ya'ni geograf va geograf-metodistlarga bog'liq.

Ta'lism sifati davlat ta'lism standartlariga muvofik bo'lishi uchun amaliy va nazariy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bu sohada ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshiriladi. Shaxsiy izlanishlar va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish o'qituvchining pedagogik mahoratini takomillashtirishning muhim omili bo'lib hisoblanadi. Ta'lism tizimining barcha bosqichida faoliyat olib borayotgan pedagog-o'qituvchi Vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan holda ixtisosga doir bilimlarni chuqur bilishlari lozimdir. Shuningdek nazariy, milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol bo'lmog'i lozim.

Xalqimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonnig istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga uning saviyasiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. O'qituvchi o'z ustida ishlashi va pedagogik mahoratini takomillashtirish maqsadida ilmiy pedagogik izlanishlar olib boradi, ilmiy tadqiqotlarni tahlil qiladi, ilmiy ishlarni o'rganadi, baholash mezonlari to'g'risida fikr yuritadi. Bunda, eng avvalo tadqiqotning zamonaviyligi, dolzarbligi, undan ko'zlangan maqsad hamda vazifalar aniqlab olinadi.

Hozigi davr pedagog va talaba oldiga katta talablar qo'ymoqda, bu

talablarning eng asosiysi - darsning samaradorligi, uning sifatliligi, talabalarda bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda turli qiziqarli o'quv mashg'ulotlarni tashkil qilinishi va u orqali kutilgan natijaga erishishdan iborat. Bunday talablarni amalga oshirish uchun fanni o'qitish metodlarini mukammal o'rganish kerak.

Shuni alohida qayd etish kerakki, yurtimizda geografiya o'qitish metodikasi sohasida M.Nabixonov, O.Mo'minov, T.Abdullayeva, P.Musayev, M.Yunusova, R.Qurban niyozov, O'.Safarov, A.Xayitov, M.Abduraxmanov, Q.Bahromov, R.Gaypova, S.Matsaidova, F.Jumanova, X.Nikadamboyeva, F.Xamroyeva, M.Qo'ldasheva, A.Jonzakov, F.Saydamatov kabi olimlar tomonidan geografiyani o'qitish bo'yicha dissertatsiya tadqiqotlari olib borilgan. Biz quyida O'zbekistonda geografiya o'qitish metodikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning tahlili va asosiy xususiyatlarini keltirdik.

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Muhibdin Nabixonov 1969-yil 29 iyunda "Badiiy adabiyot materiali bilan manzara (peyzaj) va hujjatli kinofil'mlardan geografiya darslarida foydalanish" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Ustoz tadqiqotlarda she'riyat va manzara orqali O'zbekiston tabiatining jozibasini ifodalash g'oyasini ilgari surgan. Shuningdek, olimning 100 dan ortiq ilmiy-uslubiy maqolalari jurnal, to'plam va boshqa matbuot sahifalarida nashr etilgan. Untaga yaqin o'quv va metodik qo'llanmalar ham nashr etilgan. Ayniqsa, ular tomonidan hammalliflikda nashr ettirilgan "O'zbekiston tabiiy geografiyasi (T.: O'qituvchi, 1981)", "O'zbekistonning iqtisodiy va sotsial geografiyasi (T.: O'qituvchi, 1984)", "O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofisiyasi (T.: O'qituvchi, 1994)" kabi olyi o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan o'quv qo'llanmalari o'z davrining eng zarur va ahamiyati jihatidan yuksak mavqeysiga ega manbalari bo'lgan. Biroq, ular hozirda ham yangi zamonaviy o'quv qo'llanma va darsliklarga asos sifatida o'z qimmatini yo'qotmagan [63; 17-b.]. M.Nabixonov respublikamizda geograf-metodist olimlar yetishib chiqishiga ham munosib hissa qo'shganlar. Ustozni o'tgan asrning 60 yillari oxiridayoq o'z tadqiqot ishlari bilan geografiya ta'limida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash sohasida tamal toshini qo'ygan, u kishini geografiya ta'limi metodikasi sohasidagi olimlarning karvonboshisi deb hisoblash o'rnlidir.

Geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha o'zbek olimlaridan birinchi

fan nomzodi, geografiya ta'limi metodikasi sohasida Markaziy Osiyoda birinchi va yagona professor Ortiq Abdullayevich Mo'minov 1967-yilda "O'zbek maktablarida geografiya ta'limi masalalari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib, Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib, geografiya ta'limi metodikasidan pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini oлган [63; 23-25-b.].

Nomzodlik ishlarida o'zbek maktablarida geografiyanı o'qitishning tarixiga oid boy ilmiy ma'lumotlarni ochib bergen. Xususan, O'rta Osiyoda geografiya fanining ildizlari uzoq tarixga borib taqalishi, bunda allomalarimiz: Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Beruniy, Ulug'bek, Zahreddin Boburlarning geografiyaga oid ilmiy meroslarini to'liq ochib berish bilan birga, ularning merosidan geografiya ta'limida foydalanish yo'llarini ko'rsatib bergen. Shu bilan birga, o'zbek maktablarida geografiya fanlarini o'qitish tarixining o'ziga xos bosqichlarini ajratgan. O'zbek maktablarida tabiiy geografiyanı o'qitishning o'tgan asrning 60-yillaridagi holati, bu borada jonbozlik ko'rsatgan geograf va metodist olimlar: N.Dolimov, Z.Akromov, H.Hasanov, M.Qoriyev, A.Omilov, M.Nabixonov, P.Musayevlarning geografiya ta'limi va uni o'qitish metodikasini takomillashtirishga qo'shgan hissalarini batafsil yoritib bergen. Olim tadqiqotlarida maktab geografiyasining asosiy vazifalari, geografiya fanlari tizimi va o'zbek maktablari uchun yaratilgan tabiiy geografiyadan o'quv dasturlarining ayrim xususiyatlari, tabiiy geografiya bo'yicha darsliklarga qo'yiladigan asosiy talablar, geografiya darslari, tabiiy geografik bilimlarni shakllantirishning asosiy yo'llari, geografiya darslari jarayonida talabalarning faolligini oshirish, ularning mustaqil ishlarini tashkil etish, xaritashunoslik manbalari va o'quv darsliklari bilan ishlash, geografik atamalar va nomlarni o'rganish, geografiya darslarida sinf yozuv taxtasi (doska)dan foydalanish, geografiya daftari va uning mazmuni, tabiiy geografiya fanlarini o'qitishdagi o'quv-moddiy asosni yaxshilash, tabiiy geografiyadan sinfdan tashqari amalgalashiriladigan ishlar kabilar mukammal yoritilgan va shu sohalarga ta'luqli tavsiyalar berilgan. Ortiq Mo'minov nafaqat sof geografiya, balki boshqa turli soha va mazmundagi kitoblar (jami 200 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop hamda ilmiy-metodik kitoblar, risolalar ustoz qalamiga mansub) muallifi hamdir. Ushbu kitoblarning mohiyati va amaliy ahamiyatini inobatga olinib, 1986-yilda ustozga "Geografiya o'qitish metodikasi kafedrasining professori" degan ilmiy unvon va

professorlik attestati topshirilgan.

Professor O.A.Mo'minov geografik atamalar va nomlarni tahlil etib, uning muayyan miqdorda tartibga tushuviga munosib hissa qo'shgan olimlardan. Bundan tashqari maktab o'quvchilar uchun "Tabiatshunoslik", "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" o'quv darsliklari (bir necha marta qayta nashr etilgan), "Tabiiy geografiya ta'limi metodikasi", "Zamonaviy geografiya darsiga qo'yiladigan talablar", "Geografiya atamalar lug'ati" kabi o'quv-uslubiy qo'llanma va risololarning ham muallifidir. Ular hozirgi kunda ham o'z mazmun-mohiyatini, ilmiy saviyasini yo'qotmagan. Professor O.A.Mo'minov oliy geografiya ta'limida kompyuter texnologiyasini birinchilardan bo'lib joriy qilgan bo'lib, geografiya ta'limida zamonaviy pedagogikva axborot texnologiyalarning tamal toshini qo'yishga asos solgan olimlardan biridir [101; 21-b.].

Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasiga erishgan birinchi o'zbek ayoli Tursunoy Abdullayeva 1967-yil 11 sentabrda "Tabiiy geografiya kurslarini o'qitishda O'zbekiston tabiiy sharoitini o'rganish" mavzusidagi nomzodlik ishini himoya qilgan [63; 29-30-b.]. Ustozning dars jarayonida nimalarga e'tibor berish borasidagi fikrlari quyidagicha: "Oqar suvlar to'g'risidagi dars jarayonida, "degish" hodisasi, O'zbekiston suv omborlari, kanallar, daryolarning ishi haqida ham ma'lumot berish zarur. Darsning yuqori saviyada o'tishi uchun darsga tarqatma materiallar tayyorlash, turli rasmlardan, boshqotirmalardan foydalanish yaxshi natija beradi. Xilma-xil dars ishlasmalarini yaratish zarur. Darsni nimadan boshlash lozim: 1) yangi materialni o'rganishdan; 2) matbuot xabarlaridan; 3) badiiy adabiyot o'qishdan; 4) televideniya ko'rsatuvidan; 5) boshqotirmalar yechishdan; 6) darslik bilan ishlashdan; 7) tarqatma materiallarning tahlilidan; 8) suhbatdan; 9) ekskursiya yakunidan va h.k." Geografiyani o'qitishdagi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borib, o'ndan ortiq metodik qo'llanmalar, ikki yuzga yaqin ilmiy-uslubiy maqolalar, boshlang'ich sinflar (2-3-sinflar) uchun "Tabiatshunoslik" o'quv predmeti darsligini (hammualliflikda) yaratgan.

Umumiyligi O'rta ta'limning O'zbekistonga doir muammolari bo'yicha izlanishlar olib borgan Payoz Musayev, ta'lim-tarbiyani milliylashtirishga oid qarashlarini geografiya fani misolida ilmiy asoslab berish uchun "O'zbek maktablarida iqtisodiy geografiyani o'qitish xususiyatlari"

mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan [78; 18-b.]. Bu mavzu keyinchalik O‘zbekiston maktablarida umumiy o‘rtta ta’limning mazmun va metodlarini modernizatsiyalashga turtki bo‘ldi. Ma’lumki, sho‘rolar davrida sobiq ittifoqning barcha hududlarida ta’lim-tarbiya yagona dastur va yagona darsliklar asosida olib borilishi bois yuqoridagi kabi mavzularda dissertatsiya yozish markaz (Moskva)ning iznisiz behuda urinish edi. Dissertatsiya ishda mustaqil ikki muammo: biri – “Iqtisodiy geografiya o‘quv fani mazmunining o‘zbek maktablariga xosligi” va ikkinchisi – “Iqtisodiy geografiyani o‘zbek maktablarida o‘qitishning metodik xosliklari” o‘z yechimini topgani edi, ammo birinchi muammo haqiqatan ham markaz (Moskva) izmidagi, boz ustiga siyosiy-mafkuraviy masala ekaniga urg‘u berib, u o‘zimizning ilmiy kengashda muvoffaqiyatli himoya qilingan taqdirda ham Moskva (OAK) kengash qarorini bekor qilishi aniq edi. So‘ngra, dissertatsiyadan o‘zbek maktablarida iqtisodiy geografiya o‘quv fanini o‘qitishga oid metodik xosliklarnigina himoyaga olib chiqilgan. Ustozning faoliyatni natijasida 3 ta monografiya, 4 ta darslik, 18 ta risola va 200 dan ortiq ilmiy-metodik maqolalari pedagogik amaliyotga joriy qilingan. Payoz Musayevning pirovard maqsadi bo‘lgan o‘zbek milliy makkabining yaratilishi uning ilmiy pedagogik faoliyatini asosini tashkil etadi.

Malohat Yunusova 1987-yilning 26 yanvarida Moskva shahrida “Tabiiy geografiyani o‘qitishning samaradorligini oshirishda mahalliy natural ko‘rsatmali vositalarning roli (O‘zbekiston maktablari misolida)” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan [63; 32-b.]. Ustozning tadqiqot ishlarida tabiiy geografiyani o‘rganishda natural ko‘rgazmali vositalardan foydalanish metodikasining psixologik-pedagogik asoslari, maktab tabiiy geografiya kurslarini o‘qitishda natural ko‘rgazmali vositalardan foydalanish metodikasi kabi jihatlar ilk bor ochib berilgan. Olima tomonidan ishlab chiqilgan natural ko‘rgazmalardan foydalanish metodikasi butun mamlakatdagi barcha umumta’lim makkablariga joriy etilishi, ulardagi o‘quv-tarbiyaviy lozim. Olima barcha tadqiqotlarini o‘z tajribalariga tayangan holda, sakkiz yillik kuzatuvlar natijasida uch bosqichda sinovdan o‘tkazish orqali amalgalashganlar. Tadqiqotlar natijalari “Ilg‘or tajriba minbari” ro‘knida nashr etilgan metodik qo‘llanmada (O‘zbekiston tabiiy geografiyasini o‘qitishda mahalliy natural ko‘rgazmali vositalardan

foydalanish. T.: O‘qituvchi, 1979) o‘z ifodasini topgan bo‘lib, o‘z o‘lkamizni o‘rganishda O‘zbekistonlik maktab o‘qituvchilar uchun hamon qo‘llanma sifatida mavqeyini yo‘qotmagani. Ustoz ilmiy faoliyatlar davomida 50 ga yaqin metodik ishlar e’lon qilgan, metodik tavsiyalar, ma’ruzalar matnlari, fan o‘quv dasturlari va o‘quv qo‘llanmalar yaratilishida ishtirok etgan.

Rustam Qurban niyozov 1986-yilning noyabrida “Qishloq xo‘jalik iqtisodiyoti fakul’tativ mashg‘ulotlarida talabalarni mehnatga yo‘naltirishning shakl va usullari” mavzusida nomzodlik ishini himoya qilgan [63; 34-35-b.]. Olim ilmiy faoliyatlar natijasida 200 dan ortiq ilmiy ishlar nashr ettirgan, ulardan aksariyati darsliklar va o‘quv qo‘llanmalardir. “Iqtisodiy geografiyadan amaliy mashg‘ulotlar” (1999), “Umumiy tabiiy geografiya” (2002) kabi keyingi paytlarda yaratilgan o‘quv qo‘llanmalar olimning nihoyatda qalami o‘tkir mutaxassis bo‘lganliklaridan dalolat beradi. R.Qurban niyozov o‘qituvchilik davrlarida zamonaviy geografiya xonasi, geografiya maydonchasi tashkil etgan, geografiyadan turli ko‘rgazmali qurollar, relyefning turli shakllarini yasagan. Ular doimo geografiya darslarining qiziqarli bo‘lishiga, talabalarning shu fanga bo‘lgan muhabbatini oshirishga intilgan.

Ural Safarov 1994-yilda “Talabalarning bilim faolligini oshirish jarayonida EHMdan foydalanishning pedagogik asoslari (“O‘zbekiston tabiiy geografiyasini” kursi misolida)” mavzusida nomzodlik ishini himoya qilgan [47; 14-b.]. Ustoz o‘z ilmiy ishida talabalar bilim faolligini oshirish jarayonining pedagogik-didaktik asoslari chuqur o‘rganilgan hamda talabalar bilim faolligini oshirish maqsadida kompyuter texnologiyasini yaratish va uni ta’lim jarayoniga tadbiq etish yo‘llari bayon etilgan. Ustoz geografiya ta’limi sohasiga oid ko‘plab ilmiy ishlarni yozib, fan rivojiga ulkan xissa qo‘sib kelmoqda.

Asqar Hayitov 1998-yilda “Maktab tabiiy geografiya kurslarida geoekologik bilimlar tizimi va ta’limning metodik asoslari” mavzusida nomzodlik ishini himoya qilgan [53; 16-b.]. Olim tadqiqotlarida umumiy o‘rtta ta’lim makkablar o‘quvchilarida geoekologik bilimlarni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari, pedagogik-psixologik jihatlari yortilishi bilan birga Turkiston va O‘zbekiston tabiiy geografiyasini kursida geoekologik bilimlar tizimi shakllantirilgan hamda tabiiy geografiya kurslarida geoekologik bilimlarni tarkib toptirish metodikasi ishlab chiqilgan.

Mirzamahmud Abdurahmonov 2001-yilda “Tabiiy geografiya ta’limida didaktik o‘yinlardan foydalanish metodikasi” mavzusida nomzodlik ishini himoya qilgan [23; 14-b.]. Olimning dissertatsiya ishida maktab geografiya ta’limida didaktik o‘yinlardan foydalanishning ahamiyati, ulardan foydalanishning holati va imkoniyatlari tahlil qilinib, didaktik o‘yinlar vositasida tabiiy geografiya ta’limi samaradorligini oshirishning tashkiliy-metodik shart sharoitlari, tabiiy geografiya darslariga xos didaktik o‘yinlarning turlari va ularni o‘tkazish metodikasi ishlab chiqqan.

Qayum Bahromov 2003-yilda “Geografik obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida ta’lim samaradorligini oshirish” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib, darslarda modellashtirish metodi, uning amaliy ahamiyatiga alohida urg‘u bergen [27; 17-b.].

Roza Gaypova 2006-yilda “Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursida mahalliy ko‘rgazma vositalaridan foydalanishning uslubiy asoslari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan [30; 16-b.]. Olima o‘z ilmiy ishida mahalliy didaktik vositalarning ta’limiy xususiyatlari, mahalliy ko‘rgazma vositalardan foydalanishning geografik xususiyatlari, ularning umumgeografik tasavvur va tushunchalarning shaklanishidagi roli hamda ulardan foydalanish usullari va tanlash meyorlari yoritib berilgan.

Sayyora Matsaidova 2008-yilda “Maktab o‘quvchilarida tabiiy geografik matnlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish” mavzusida nomzodlik ishini himoya qilgan [39; 12-b.]. Olimaning tadqiqot ishida tabiiy geografik bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida tabiiy geografik yozma til-matnlarning tutgan o‘rni, tabiiy geografik matnlarning tavsifi va ular bilan ishlash usullari, ular bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasi yoritib berilgan.

Fotima Jumanova 2010-yilda “Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish (geografiya ta’limi misolida)” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan [35; 14-b.]. Uning ilmiy ishida shaxsda ekologik madaniyatni shakllantirishning tarixiy tajribasi va uning mohiyatini hamda o‘sha vaqt dagi kasb-hunar kollejlari ekologik madaniyatni shakllantirishning ahvolini chuqur tahlil qilib, amaliy geografiya ta’limi jarayonida kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning ilmiy-amaliy

asoslari ishlab chiqilgan.

Hilola Nikadambayeva 2012-yilda ““O‘zbekiston tabiiy geografiyası” fanini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish metodikasi (oliy ta’lim misolida)” mavzusida nomzodlik ishini himoya qilgan [42; 18-b.]. Nomzodlik dissertatsiyasining birinchi bobida “O‘zbekiston tabiiy geografiyası” fanini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari, ta’lim-tarbiya jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati, geografiyadan elektron o‘quv metodik ta’midot yaratishning asosiy prinsiplari yoritilgan bo‘lsa, ikkinchi bobida geografiya ta’limi jarayonida elektron o‘quv metodik ta’mindan foydalanish hamda ular yordamida talabalar bilimini baholash, talabalarni mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasi ishlab chiqilgan.

Feruza Xamroyeva 2020-yilda “Oliy ta’lim muassasalarida tabiiy geografik fanlarni o‘qitish metodikasini mediatexnologiyalar asosida takomillashtirish” mavzusidagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini himoya qilgan [54; 16-b.]. Dissertatsiya ishida tabiiy geografik fanlarni mediatexnologiyalar asosida o‘qitishning ilmiy-metodologik asoslari, oliy ta’lim muassasalarini ta’lim samaradorligini oshirish jarayonida mavjud ayrim muammolar, sohaga oid tadqiqot ishlarini o‘rganish, davlat va jamiyatning mazkur sohaga qo‘yayotgan vazifalari va mazkur muammolar yechimini topishda ta’lim jarayonida mediatexnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqligi o‘rganilgan. Shuningdek, tabiiy geografik fanlarni mediatexnologiyalar asosida o‘qitishni takomillashtirish metodikasi, mediatexnologiyalar asosida tabiiy geografik fanlarni o‘qitishning didaktik ta’moti, metod va vositalari oolib berilgan, talabalarning ommaviy axborot vositalari bilan ishslash, ommaviy axborot vositalari orqali ta’lim olish imkoniyatlari to‘g‘risida mulohazalar keltirilgan.

Maxmuda Qo‘ldasheva 2020-yilda “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyası” fanini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslарini takomillashtirish” mavzusidagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini himoya qilgan [37; 15-b.]. U o‘z ilmiy ishida “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyası” fani taraqqiyotining tarixiy yo‘nalishlari, fanning tarixiy negizlari, asoslari va shakllanishi, mакtabda “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyası” dasturining qayta tuzilishi, o‘qitishning mazmuniga ko‘ra ilmiy darajasini ko‘tarish zaru-

riyati, metodikasi, o'quvchilarni fanni o'zlashtirishini rivojlantirish masalalari o'rganilgan hamda umumta'lim mакtablarida "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fanini o'qitishda ilg'or xorijiy tajribalar hamda innovatsiyalardan foydalanishning xususiyatlari, fanini o'qitish metodikasi va texnologiyasi ishlab chiqilgan va uni amaliyatda qo'llash bilan bog'liq texnologiya, usullar haqida tavsiyalar berilgan.

Anvar Janzakov 2021-yilda "Umumta'lim mакtablarida geografiya fanini axborot texnologiyalari vositasida o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini himoya qilgan [33; 17-b.]. U tadqiqot ishida umumta'lim mакtablarining 7-sinf geografiya fanini axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib o'qitishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqqan hamda geografiya fanidan tayanch kompetensiyalar tarkibi axborot texnologiyalari vositasidan foydalanish aniqlashtirilgan, geografiya fanini o'qitishda o'quvchilarning bilimi tahlil va sintez qilingan, ijodiy faoliyat, kreativ fikrleshini axborot texnologiyalari vositalari asosida takomillashtirilgan, geografiya fani mashg'ulotlarining o'quv-tashkiliy tuzilmasi o'qitish texnologiyalari takomillashtirilgan, 7-sinf geografiya fanidan mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etishga qaratilgan interfaol metodlar va axborot texnologiyalari asosida o'qitishga oid taklif va tavsiyalar ilmiy asoslab berilgan.

Faxrod Saydamatov 2022-yilda "Maktab geografiya ta'limida ekologik o'lkashunoslik vositasida o'quvchilarning ijodiy faoliyati tajribasini shakllantirish metodikasi" mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini himoya qilgan [48; 154-b.]. Ustoz tadqiqot ishi doirasida didaktik tadqiqotlarda ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish muammosining nazariy jihatlari qiyosiy tahlil etilgan, ijodiy faoliyat tajribasi maktab geografiya ta'limi mazmunining tarkibiy qismi sifatida asoslab berilgan, geografiya ta'limi jarayonida o'quvchilarda shakllanadigan ijodiy faoliyat tajribasining tuzilmasi va mazmuni, Shuningdek muammoning maktab amaliyotidagi holati aniqlangan. Shuningdek, ekologik o'lkashunoslik – ma'rifiy o'lkashunoslikning fanlararo integrativ yo'nalishi, geoekologik o'lkashunoslikning ekologik o'lkashunoslikning geografik tarkibiy qismi sifatida asoslab berilgan va o'quvchilarda ekologik o'lkashunoslik vositasida ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish metodikasining modeli ishlab chiqilib, "Ekologik o'lkashunoslik: Quyi Amudaryo mintaqasi" fakultativi va

"Geoekologik o'lkashunoslik" to'garak mashg'ulotlarining tajribaviy o'quv-metodik metodik ta'minoti yaratilgan.

Respublikamizda shu kabi geograf-metodistlar tomonidan o'tgan davr davomida geografiya ta'limi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar va bu ilmiy tadqiqotlar natijasida geografiya fanini o'qitish metodikasi rivojlanib bordi.

Umuman olganda so'nggi yillarda geografiya ta'limining nazariy va amaliy masalalari bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar safi tobora kengayib bormoqda. Ta'lim tiziming barcha bosqichida pedagog-o'qituvchilari ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishmoqda. Shuningdek, so'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqot ishlari geografiya fanini o'qitishda zamonaiviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalariga bog'langanligini ko'rish mumkin. Geografiya ta'limiga doir tadqiqotlarni jadal davom ettirish, erishilgan yutuqlarni keng ommalashtirish, bo'lajak o'qituvchilar – talabalarni metodik jihatdan yuqori saviyada tayyorlash, metodika kurslarining dasturlarini takomillashtira borish hamisha shu kunning muhim va mas'uliyatli vazifalaridan hisoblanadi. Ta'kidlash joizki yuqoridagi tadqiqotlardan ushbu dissertatsiyani yozishda metodologik asos sifatida foydalanildi. Biroq, bizning tadqiqot ishimizda yuqoridagi tahlil etilgan ishlardan farqli ravishda asosiy e'tibor tabiiy geografiya kurslarida darsning eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasini takomillashtirishga qaratilgan.

## 1.2-§. O'zbekistonda geografiya ta'limining asosiy muammolari

Iqlim o'zgarishi, tabiiy ofatlar, cho'llanish, infektion kasalliklarning tarqalishi, siyosiy mojarolar, harbiy to'qnoshuvlar, ishlab chiqarish binolari va transport yo'llari falokatlari kabi favqulodda hodisalar dunyoning u yoki bu joylarida tez tez sodir bo'lmoqda, ularni hududiy jihatdan anglash esa ko'p jihatdan zamonaiviy geografik bilimlarni o'rganishni talab etadi. Shu boisdan, geografiya fanining o'qitilishiga obyektiv zaruriyat va extiyoj mavjud.

Professor A.Soliyev "geografiya bilmaganga xech narsa, bilganga hamma narsa" deb ta'kidlaganlaridek, geografiya butun borliqdag'i barcha tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy voqeя va hodisalarining sodir

bo'lish sabab va omillarini o'rgatadi [109; 23-b.]. Shu sababdan bu fanni o'qitish dolzarb masala hisoblanadi. Lekin hozirgi kunda geografiya fanini o'qitish jarayoni va uning mazmuni qoniqarli darajada emas. Shu sababdan geografiya ta'limdi yechimini kutayotgan bir qator muammo va masalalar bor. Ushbu masalalarni dastlab uzlusiz ta'larning quyi bo'g'inidan tahlil qilish maqsadga muvofiq, ya'ni umumiy o'rta ta'limgizdagi geografiya ta'limi muammolarini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o'rta ta'limgizdagi geografiya ta'limi masalalarini o'rganishni eng avvalo quyidan, ya'ni, boshlang'ich sinflardan boshlash kerak. Sababi geografik bilimlar boshlang'ich sinflardan o'rgatila boshlaydi. Boshlang'ich sinflarda 1- va 2-sinflarda "Atrofimizdag'i olam" hamda 3- va 4-sinflarda "Tabiatshunoslik" darslarida o'quvchilarga vatanimiz tabiatining turli tumanligi, unda sodir bo'ladigan voqealarni va hodisalar, mamlakatimizning tabiiy boyliklari va ulardan samarali foydalanish yo'llari, tabiatga nisbatan ongli munosabatlarni tarkib toptirish orqali tabiatni muhofaza qilishga o'rgatadi. Lekin boshlang'ich sinf o'quvchilarida kartografik tasavvurlar deyarli shakllantirilmaydi. Vaholanki, boshlang'ich sinf o'quvchilari qiziquvchan bo'lishadi, ya'ni ularni rasmli ma'lumotlar ko'proq qiziqtiradi [18; 65-b.]. Bunday vaqtida ularga sodda, uncha murakkab bo'lmagan vatanimiz tabiatini ifodalovchi xaritalarni o'rgatishni yo'lga qo'sak, ular vatanimiz tabiatini nafaqat o'qib balki ko'rib ham o'rganishadi, axir o'quvchilarda ko'rib yodda saqlab qolish qobiliyati yuqori bo'lishi barchamizga ma'lum. Agar shunday qilinsa o'quvchilarga geografik bilimlarni qisqa vaqt ichida ko'proq bergen bo'lamiz, bu esa geografiya faniga qiziquvchi o'quvchilar sonini ham orttiradi.

Respublikamizda joriy etilgan uzlusiz ta'limgizdagi tizimining ta'limgizdagi uzviylik va uzlusizlikni ta'minlashi maqsadida, umumiy o'rta ta'limgizdagi muktabalarida uzlusiz o'qitiladigan fanlarda mavzularning mantiqiy ketma-ketligi, oddiydan murakkablikka, umumiylikdan xususiylikka o'tib borish tamoyillariga amal qilinishi shart. Shu sababli umumiy o'rta ta'limgizdagi 5-sinfdan 10-sinfgacha geografiya fanini o'qitishda yuqoridagi tamoyillarga amal qilinadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "Ta'limgizdagi geografiya fanini o'qitishda yuksak bosqichga ko'tarish muhim vazifamiz va muqaddas burchimizdir" deb takidlaganidek, kelajagimiz poydevori bo'lgan

iqtidorli yoshlarimiz bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'limgizdagi geografiya fanini o'qitishda qurilishiga bog'liq. Ta'limgizdagi tizimini o'zgartirish uchun o'quvchilarga yangi pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalarni qo'llagan holda o'quv mashg'ulotlarini olib borish lozim [16; 4-b.]. Lekin umumiy o'rta ta'limgizdagi muktabalarida dars mashg'ulotlarini xususan, geografiya darslarini pedagogik va axborot texnologiyalar asosida tashkil etishda fan, texnika, texnologiyaning yutuqlaridan foydalanish imkoniyati juda past. Sababi davlat ta'limgizdagi standartida nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda ko'plab umumiy o'rta ta'limgizdagi muktabalarida sharoit va imkoniyatning yo'qligidir. Masalan, geografik bilimlarni o'zlashtirishda foydalaniladigan asbob-uskunalardan foydalanish imkoniyati past, natijada geografiyaga xos ko'nikma va malakalar ya'ni ufq tomonlarini aniqlash, joyda oriyentirlash, plan olish, azimutni topish, koordinatani va vaqt mintaqalarini aniqlashda qiyinchiliklarga duch kelamiz. Misol uchun, Chet el kinolarini ko'rganimizda biror jinoyatchini taqib qilishayotgan insonlar, uning harakatini ufq tomonlarini aytib, ya'ni shimolga, janubi-sharqqa tomon ketishayotganligini aytishadi va uni sheriklari tezda oriyentir olib aytgan tomonga harakat qilishadi. Bizda muktab o'quvchilarining ko'pchilligi bunday ko'nikma va malakalarga ega emas. Shuningdek, tabiat hodisalarini kuzatish va kuzatish natijalarini tahlil qilish ko'nikma va malakalar ham past darajada, sababi, darsdan tashqari ishlar, o'quv sayohati va sinfdan tashqari mashg'ulotlarning deyarli olib borilmasigidir. Buning uchun muktabalarda zamonaviy geografiya maydonchalar yetishmaydi.

Umumita'limgizdagi geografiya darslarida kartografik materiallardan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish maqsadida har bir sinflar uchun alohida o'quv atlaslari nashr etilgan bo'lib, o'quvchilar har bir darsda o'quv darslik bilan bir qatorda o'quv atlaslaridan ham foydalanishadi.

Atlaslar – dastur asosida tuzilgan kartalar jamlamasi bo'lib, ular har bir sinf uchun alohida mazmunda chop etiladi [76; 48-b.].

O'quv atlaslari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- atlas kartalarida ko'rsatilgan geografik obyektlar soni darslikdagidan ko'proq bo'lmog'i;
- atlas kartalaridagi geografik nomlar va raqamlar o'quv darslikdagi

ma'lumotlar bilan o'zaro mutanosibligi ta'minlanishi;

- atlas kartalari ma'lumotnomalar ilovalari bilan to'ldirilishi;
- atlasda geografik nomlar ro'yxati bo'lishi [92; 3-b.].

5, 6, va 7-sinflar uchun nashr etilgan o'quv atlaslarining mazmuni yuqorida keltirilgan mezonlarga mos kelishi nuqtayi nazaridan tahlil qilganimizda ulardagagi ma'lumotlar, darslikdagi ma'lumotlarga mos kelmasligini ko'p uchratdik. Bu esa o'quvchilar juda ko'p savollarni paydo qiladi. Bunday savollarni paydo qilmaslik uchun o'quv atlaslardagi ma'lumotlarni darsliklardagi ma'lumotlarga mos qilib berish lozim. Shuningdek, o'quv atlaslarining ma'zmunini takomillashtirish uchun ularga yangi dasturga asosan kartalar qo'shish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Amalda foydalilanayotgan o'quv atlaslaridagi kartalarda darsliklarda tilga olinadigan va darslarda qo'llaniladigan ayrim diqqatga sazovor geografik obyektlarning o'rni va nomi ko'rsatilmagan. Masalan, 6-sinf o'quv atlasidagi kartalarda quyidagi obyektlar ko'rsatilmagan: Afrika materigining eng past yeri hisoblangan Afar botig'idagi Assal ko'li (-153 m), Antarktida materigining eng past joyi Berd tekisligidagi Bentli cho'kmasi (-2555 m), Janubiy Amerika materigining eng past nuqtasi Valdes yarim orolidagi Salinas-Chikas botig'i (-42 m), Janubiy Amerika materigidagi eng baland harakatdagi vulqon Lyulyaylyako (6723 m), Yevroсиyo materigidagi Shimoliy yarimsharning "sovuqlik qutbi" bo'lgan eng sovuq hududi Oymyakon (-71°C), dunyodagi eng ko'p yog'in tushadigan joy – Hindistondagi Cherapunja qishlog'i. Shunday diqqatga sazovor joylarning nomlari kartalarda ko'rsatilsa, o'quvchilar materiklar va okeanlarning yozuvlari kartalari bilan ishlaganda ushbu obyektlarning geografik o'rmini ko'rib, ularni eslab qoladi. 7-sinf darsligida O'rta Osiyo o'lkasining chekka nuqtalari keltirib o'tilgan bo'lsada, o'quv atlasidagi o'lkamizning tabiiy xaritasida ushbu nuqtalar ko'rsatilmagan. Bu esa o'quvchilarga o'lka chegarasini aniq ko'rsatishda va tushuntirishda noaniqliklarga olib keladi [22; 158-b.].

O'quv kartalardagi geografik nomlar va raqamlar darslikdagi ma'lumotlar bilan bir xil bo'lishi lozim. Lekin dars berish jarayonida ushbu ikki manbadagi ma'lumotlar o'zaro mos kelmasligini ko'p kuzatamiz. Masalan, 5-sinf darsligida gidrosferadagi umumiyl suv miqdori 1387,5 mln km<sup>3</sup>, Atlasda esa 1360 mln km<sup>3</sup>, darslikda Dunyo okeanidagi suv miqdori 1340 mln km<sup>3</sup>, Atlasda esa 1322 mln km<sup>3</sup> deb

berilgan [82; 110].

6-sinf darsligi va o'quv atlasida ham ayrim ma'lumotlar birxillikka keltirilmagan. Masalan, 6-sinf darsligida Avstraliya materigidagi Xamersli tog'ining Brus cho'qqisi balandligi 1226 m, atlasda esa 1236 m, darslikda Janubiy Amerika materigida joylashgan dunyodagi eng sersuv Amazonka daryosining uzunligi 6992 km, atlasda esa 6400 km, darslikda Yevroсиyo materigining eng baland harakatdagi vulqoni Kamchatka yarimolidagi Klyuchi Sopkasi balandligi 4750 m, atlasda esa 4780 m, deb berilgan [108; 99].

7-sinf darsligi va o'quv atlasi orasida esa quyidagi mazmuni farqlar ko'zga tashlanadi. Masalan, darslikda O'rta Osiyoning eng katta tabiiy ko'li sifatida Orol ko'li ko'rsatilgan, atlasda esa O'rta Osiyoning eng yirik ko'llarinining maydonlari quyidagicha keltirilgan: Balxash – 18,20 ming kv.km, Orol – 13,90 ming kv.km, Issiqko'l – 6,23 ming kv.km. Shuningdek, 7-sinf darsligida Sirdaryoning uzunligi 3019 km, atlasda esa 2982 km, darslikda O'zbekistonning eng past nuqtasi Qizilqumdagagi Mingbuloq botig'ining mutlaq balandligi -12 m, atlasda esa shu raqam -12,8 m qilib ko'rsatilgan [81; 120]. Yuqoridagi misollarga o'xshagan nomutanosibliklar haqidagi ma'lumot 1-jadvalda keltirilgan.

#### 1-jadval

#### 7-sinf geografiya darsligi va o'quv atlasidagi xaritalarda keltirilgan ayrim relyef elementlarining mutlaq balandlik qiymatlaridagi nomutanosibliklar

Relyef elementlari	Darslikda keltirilgan mutlaq balandligi, m	Farqi, m	Atlasdagi tabiiy kartalarda keltirilgan mutlaq balandligi, m
Qorjontov tizmasining eng baland nuqtasi Mingbuloq cho'qqisi	2834	10	2824
Bobotog' tizmasining eng baland nuqtasi Zarkosa cho'qqisi	2289	1	2290
Surxontog' tizmasining eng baland nuqtasi	3882	70	3812
Sulton Uvays tog'i	473	5	478
Qorabovur qirining eng baland nuqtasi	292	5	287

Jadval muallif tomonidan tuzilgan

Bundan tashqari joy nomlarining yozilishida ham farqlar mavjud. Eratosfen tuzgan karta, 5-sinf darslikda ham, o'quv atlasida ham berilgan. Lekin ulardag'i joy nomlarning yozilishida farqlar bor. Masalan, 5-sinf darsligida Albion oroli, atlasda esa Britaniya oroli, darslikda Kerne oroli, atlasda esa Ierne oroli, darslikda Patrobon oroli, atlasda esa Taproban oroli, darslikda Eritreya dengizi, atlasda esa Eritrey dengizi, darslikda Ganga daryosi, atlasda esa Gang daryosi ko'rinishlarda yozib keltirilgan. Beruniy tuzgan Dunyo kartasida esa quyidagilar farq qiladi: darslikdagi kartaning rasmida Janubiy tuman, atlasdagisida esa Janubiy okean, darslikda Varang daryosi, atlasda esa Varang dengizi, darslikda Bontus daryosi, atlasda esa Bumtus dengizi, darslikda Turkon tekisligi, atlasda esa Turklar mamlakati kabi joy nomlari o'zaro farqli ravishda keltirilgan.

6-sinf darsligida Afrikadagi eng yirik cho'l nomi Sahroyi Kabir deb, atlasda esa Sahroi Kabir deb berilgan, darslikda Avstraliyadagi eng yirik ko'l Eyr-Nord deb, atlasda esa Eyr-Nort, darslikda Hindukush tog'i, atlasda esa Hindikush tog'i deb berilgan.

7-sinf darsligida Chimyon deb keltirilgan tog'ning nomi atlasda Chimgan, darslikda Mingbuloq cho'qqisi, atlasda esa Minbuloq cho'qqisi, darslikda Bobojob cho'qqisi, atlasda esa Bobojob cho'qqisi, darslikda Chordara suv ombori, atlasda esa Shardara suv ombori, darslikda Kili g'ori, atlasda esa Kilsil g'ori, deb yozilgan.

Bunday nomutanosibliklarni darslik va atlaslardagi kartalarda ko'plab uchratish mumkin. O'quv atlaslarning yangi nashrlarida bu xato va kamchilliklarni bartaraf etish lozim. Buning uchun har bir o'quv atlasini shu sinf darsligidagi ma'lumotlar asosida qayta nashr qilish talab etiladi.

O'quv atlasi o'quvchilar uchun ma'lumotnomalar vazifasini bajarishi kerak. Buning uchun ularga atlaslardan to'g'ri va oqilona foydalananishni o'rgatish lozim, ya'ni atlaslarda keltirilgan rasm, jadval, diagramma va hokazolar bilan ishlashni o'rgatish kerak. Shundagina o'quvchilar ular yordamida berilgan topshiriq va vazifalarni to'g'ri bajaradilar.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, pedagoglar geografiya darslarini o'qitish jarayonida ba'zi qiyinchiliklarga duch kelmoqda, ya'ni o'quvchilarga mavzularni tushuntirish jarayonida ba'zi relyef shakllarini (estuariy, kryaj, kanyon, chink, barxan, dyuna, marsh, del'ta, ostona va hokazolar) tilga oladi. Ularni og'zaki tushuntirish biroz qiyinchilikni

tug'diradi. Agar mana shunday relyef shakllarining suratlari o'quv atlaslari mavzulariga mos holda kiritilsa (hozir ham bunday rasmlar bor, lekin ular tabiat manzarasi va shaharlar rasmidan iborat) o'quv atlaslarining mazmuni yanada boyigan bo'lar edi.

O'quv atlaslariga yangi dastur asosida kartalar qo'shish lozim. Masalan, yangi dastur asosida nashr etilgan 6-sinf darsligida har bir materikning aholisi va tabiiy o'lkalariga alohida mavzular ajratib berilgan. Shuning uchun ham yangi nashrdan chiqadigan o'quv atlaslariga aynan shu mavzudagi kartalarni qo'shish maqsadga muvofiq. Sababi o'quvchilar ular orqali aholining hudud bo'yicha tarqalishi va zinchligini o'rganadi hamda tabiiy geografik o'lkalarni chegaralash orqali qaysi geografik obyekt, qaysi o'lkaga tegishli ekanligini bilib oladi.

Yangi dastur asosida 2017-yilda qayta nashr etilgan 7-sinf darsligida O'zbekiston tabiiy geografik raoynlashtirilishining asosiy taksonomik birligi sifatida tabiiy geografik okruglari olingan bo'lsa-da, atlasdagi tabiiy kartalari nomlanishida haligacha "tabiiy geografik rayon" atamasi qo'llanilib kelmoqda. Bu nomutanosiblikni tuzatish maqsadga muvofikdir. Shu bilan birga, atlasdagi kartalarda O'rta Zarafshon va Quyi Zarafshon hamda Quyi Amudaryo va Orol tabiiy geografik okruglari o'rtasidagi chegaralar ko'rsatilishi lozim.

Umumta'lim maktablari geografiya darsliklari va o'quv atlaslarini o'zaro taqqoslash jarayonida ko'plab joy nomlari va turli xil ko'rsatkichlardagi tafovutlar aniqlandi. Ushbu nomutanosibliklarni bartaraf etish lozim. Shuningdek, darsliklarning ohirgi nashrlariga qo'shilgan yangi mavzularga oid kartalarni tegishli o'quv atlaslariga qo'shish maqsadga muvofiq. Bu choralarни amalga oshirish orqali geografiya fanini o'qitish tizimini yaxshilash, o'quv-uslubiy adabiyotlar sifatini oshirishga imkon yaratadi.

So'nggi yillarda umumta'lim maktablarida geografiya darslariga ajratilgan soatlarning qisqarib borayotganligi ham dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Xususan, 2021-2022 o'quv yilida umumta'lim maktablarida geografiya darslariga 10 soat ajratilgan bo'lsa, Xalq ta'limi vazirligining 2021-yil 24-dekabrdagi 414-son buyrug'iga asosan, umumiyl o'rta ta'lim maktablari uchun "Tabiiy fan (Sceince)" fani joriy etilishi munosabati bilan amaldagi fizika, biologiya, geografiya fanlari 6-sinf dars o'quv soatlardan (har bir fan bo'yicha

2 soatdan) jami 6 soat dars soatlari qisqartirilib, uning o‘rniga 3 soat “Tabiiy fan (Sceince)” fani joriy qilinmoqda. Natijada, 2022-2023-yilga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejaga ko‘ra maktablarda geografiya 8 soatga tushganligini ya’ni 2 soatga kamayganligini ko‘rish mumkin. Bu yerda 6-sinf geografiyasining 7-sinfda o‘qitilishi, 8- va 9-sinflarda ham xtaftalik 2 soat o‘rniga 1,5 soat etib belgilanishi hamda 10-sinfda o‘qitilib kelinayotgan Amaliy geografiya fanining to‘laligicha olib tashlanishi geografiya ta’limiga va fanning kelajakdagi rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

O'rta maxsus, kasb hunar ta'limi tizimida geografik bilimlar birligina "Amaliy geografiya" o'quv kursida beriladi. Bu fan akademik litsey va kasb hunar kollejlarida faqatgina bir semester o'qitiladi va unga atiga 40 soat ajratilgan bo'lib, bu soat fanni o'zlashtirish uchun juda kamlik qiladi. Mavjud dars soatlari ham o'qituvchilar tomonidan odatda an'anaviy tarzda olib boriladi va katta hajmli ma'lumotlarni bir darsni o'zida yetkazib berish uchun darsda faqat o'qituvchi ma'ruza qilishga to'g'ri keladi, natijada talabalar zeriktiradi hamda ma'lumotlarni o'zlashtira olmaydi. Oqibatda talabalar uchun bu keraksiz fandek ta'surot uyg'otadi. Katta hajmli ma'lumotlarni talabalarga yetkazish uchun esa darsslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda noan'anaviy tarzda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

O'rta maxsus, kasb hunar ta'limi tizimida "Amaliy geografiya" o'quv kursidan so'ng albatta, "Tabiatni muhofaza qilish" o'quv kursini ham joriy etish lozim hamda bu fanni to'laqonli ravishda geografiya mutaxassisligiga ega bo'lgan o'qituvchilar o'qitishi maqsadga muvofiqdir. Sababi, bu fanning obyekti litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosfera hisoblanib, uning vazifasi geografik qobiqdagi geomajmua degradatsiyasi sabablari, kelib chiqayotgan salbiy oqibatlarni oldini olish va muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish bo'lib, bu bilimlar oliy ta'limda faqat geografiya ta'lim yo'nalishlarida herib boriladi.

Shuningdek, kasb hunar kollejlarining turlari va yo‘nalishlaridan kelib chiqib, quyidagi fanlar o‘qitilishi amaliy ahmiyatga ega.  
“Xizmat ko‘rsatish va servis” yo‘nalishlarida “Turizm va  
geografiyasini”.

“Pedagogika” ta’lim yo‘nalishlarida “Geografiya o‘qitish metodikasi”;

“Pedagogika” ta’lim yo‘nalishlarida “Geografiya o‘qitish metodi-  
dikasi”;

“Qishloq xo‘jalik” ta’lim yo‘nalishlarida “Qishloq xo‘jaligi geografiyasi” va “tuproqlar geografiyasi” va hakozo [25; 334-b.].

Bu o‘z o‘rnida talabalarni geografiya faniga qiziqishlariga va o‘z sohalarini mukammal o‘rganishga imkon beradi.

Ta'kidlash joizki, oliv ta'lrim tizimida ham o'z yechimini kutayotgan bir qancha muammolar bor. Eng avvalo, tiniq, ijodiy, mantiqiy va mustaqil fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan, o'z sohasini ham ilmiy, ham amaliy jihatdan puxta egallagan, vatanimiz taraqqiyoti uchun kafolatlangan yetuk mutaxassis-pedagog kadrlarni tayyorlashda mukammal va zamon talabida yozilgan darslik va o'quv qo'llanmalar, xarita ya atlaslar tizimini yaratish dolzarb masaladir.

Oliy ta’lim tizimida bakalavr va magistraturada geografiya fanlarini o’qitishda asosiy muammolardan biri, o’quv reja va fan dasturiga mos o’quv adabiyotlarining yo‘qligi va yetishmasligidir. Mavjud adabiyotlarning ham aksariyati XX asr oxirlarida nashr etilgan adabiyotlar hisoblanadi. Bu esa o’quv adabiyotlarining zamon talabiga mos yangi aylodini yaratishni talab etadi.

Shuningdek, oliy ta'limganligi muassasalarida malakali geograf mutaxassislarini tayyorlashda muhim muammolardan yana biri, oliy ta'limganligi muassasalariga mo'ljallangan maxsus xarita va atlaslarning yartilmaganligidir. Bu esa oliy ta'limganligi muassasalarini o'quv reja va fandasturiga muvofiq maxsus xarita va atlaslarni yaratishni taqozo etadi.

Shu o'rinda shuni alohida takidlash lozimki, olly ta'lim muassasalarida geografiyaga ajratilgan soatlar ko'p emas, lekin-yildan yilga ularni soatlari kamayib bormoqda. Respublikamizning birinchi prezidenti I.A.Karimov o'zining 1995-yil 23-fevralda o'tkazilgan Oly Majlis sessiyasidagi ma'ruzasida fanimizning ta'lim tizimidagi o'mni va ahamiyatiga katta e'tibor qaratgan. Jumladan, u "Vatan tarixi va madaniyatini, geografiyasini va iqtisodiyotini, milliy urf-odatlarimizni har tomonlama o'rganish dolzarb ahamiyatga ega. Bog'chalardan tortib oliv o'quv yurtlarigacha bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimlarida mazkur fan va bilimlarni o'qitishga muhim siyosiy vazifa sifatida qaralmog'i lozim" deb ta'kidlagan. Xuddi shunday geografiya faniga bo'lgan munosabatlarni birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning 1997-yilda yozgan, "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xafsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli asarida ham ko'rish mumkin [12]. Bu kitobda vatanimizning tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari,

geografik o'rni hamda geosiyosiy va geostrategik o'rni kabilarga alohida urg'u bergen. Shu sababli pedagog kadrlar tayyorlaydigan barcha oliv ta'lim muassasalarida tarixga qanday e'tibor qaratilsa, geografiyaga ham shunchalik ahamiyat berish lozim. Sababi talabalarda vatanparvarlik, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda ekologik va iqtisodiy tarbiya elementlarini tarkib toptirish, milliy iqtisodiyotimiz ahamiyati anglashi va ilmiy dunyoqarashini rivojlanirishda geografiya fanining o'rni beqiyos. Vaholanki, bo'lajak pedagoglar kelajakda o'z sohalari bo'yicha dars berish jarayonida yuqoridagi xislatlarni o'quvchilarda shakllantirishi va rivojlanirishi lozim bo'ladi. Shu boisdan, pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliv ta'lim muassasalarining barcha ta'lim yo'naliishlarida "O'zbekiston geografiyasi" fanini o'qitish zarur hisoblanadi. Ushbu fanni o'qitish orqali talaba yoshlar vatanimiz tabiatining o'ziga xos tabiiy-geografik xususiyatlari, tabiiy sharoiti va resurslari, ularning salohiyati va geografik joylashuvi, ulardan oqilona foydalanish hamda muhofaza qilish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, tabiat komplekslari, tekislik va tog'lik landshaftlarining xususiyatlari, tabiatda sodir bo'ladigan voqe va hodisalarining bir-biriga bog'liqligi va aloqadorligi, O'zbekiston Respublikasining o'ziga xos geografik o'rni, mamlakatimizning jahon miqyosida tutgan o'rni, aholisi va mehnat resurslari, milliy iqtisodiyotimizda sanoat, qishloq xo'jaligi tashqi iqtisodiy aloqalari, viloyatlar va ular o'rtasidagi geografik va ekologik tafovutlar haqida bilimlarga ega bo'lishlari lozim.

Umumta'lim maktablarida, ba'zan geografiya darslarini mutaxassis pedagoglar yetishmayotganligi sababli, nomutaxassis pedagoglar o'qitayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Bu esa geografiya fanini o'qitish sifatiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Natijada o'quvchilar geografiya faniga fan sifatida emas, oddiy o'quv predmeti deb qaramoqda. Bu Shu sababli pedagog kadrlar tayyorlaydigan Oliy ta'lim muassasalarini oshirish kerak, vaholanki hozirgi kunda kvota soni eng kam maktablarida 5-sinfdan 10-sinfgacha o'qitiladigan fan hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida so'nggi yillarda "Geografiya o'qitish metodikasi" ta'lim yo'naliishi "Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari" ta'lim

yo'naliishiga aylantirilganligi uchun o'quv rejasiga iqtisodiy fanlar ham kiritilib o'qitilmoqda va maktablarda "Iqtisodiy bilim asoslari" va "Tadbirkorlik asoslari" fanini aynan mana shu ta'lim yo'naliishini tamomlagan pedagoglar o'qitmoqda. Bu fanlar esa 8-, 9-, 11-sinflarda o'qitilishini hisobga oladigan bo'lsak, geografiya va iqtisod fanlarini o'qitadigan pedagoglarga talab yanada oshadi. Lekin so'nggi yillarda oliv o'quv yurtlarida geografiya ta'lim yo'naliishi qabul kvotasi soni deyarli o'zgarmasdan qolmoqda. Geografiya fanini sifatli va qiziqarli qilib o'qitish uchun o'z sohasini mukammal biladigan, o'z kasbini ardoqlaydigan, fidoiy pedagoglarni ko'paytirish uchun albatta, mazkur yo'naliish uchun qabul kvotasi sonini ham oshirishimiz lozim.

Kartografik texnologiyalar geografiya ta'limining barcha bosqichlarida darsga qo'shimcha ko'rgazma sifatida ishlataladi. Geografik kartalardan o'qitishning barcha shakillarida ya'ni dars berishda, amaliy ishlarda, mustaqil ishlarda, bilimlarni baholashda va hokazolarda foydalanish mumkin [19; 107-b.]. Lekin dars jarayonida kartografik manbalardan samarali foydalanish uchun dars mavzusiga mos xaritalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Hozirgi kunda geografiya ta'limida sanoqli xaritalardan foydalanamiz, vaholanki, geografiya darslarida foydalanish mumkin bo'lgan xaritalarning 100 dan ortiq turlari mavjud. Ana shunday xaritalarni har bir darsda mavzuga oid bo'lganidan foydalansak, dars yanada qiziqarli va samarali tashkil etilgan bo'lardi.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, geografiya ta'limidagi quyidagi muoammolar o'z yechimini topishi lozim.

- boshlang'ich sinf "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarida foydalanishga mo'ljallangan, o'quvchilarni yosh xuxusiyatlarini hisobga olgan holda xaritalar yaratish;

- umumiyl o'rtalim maktablarida dars mashg'ulotlarini pedagogik va axborot texnologiyalar asosida tashkil etishda fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlaridan foydalanish imkoniyatini oshirish;

- ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini ya'ni geografik bilimlarni o'zlashtirishda foydalaniladigan asbob-uskunalardan foydalanishni kuchaytirish;

- darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni olib borish uchun zamonaviy geografiya maydonchalar tashkil etish;

- umumta'lim maktablari geografiya fani darsliklari va o'quv at-

laslarda keltirilgan joy nomlari, turli xil ko'rsatkichlar va boshqa ma'lumotlarni o'zaro bir biriga muvofiqlashtirish;

– darsliklarda berilgan ma'lumotlarni to'ldirish uchun zarur bo'lgan xaritalar tegishli o'quv atlaslarida to'liq bayon etilishiga va yangi nashr etilgan darsliklarga qo'shilgan mavzularga oid xaritalarni o'quv atlaslariga kiritishga erishish;

– o'quv atlaslarining tegishli darsliklar bilan o'zaro muvofiqligini tahlil qilish orqali o'quv atlaslarida mavjud muammolarni bartaraf etish va ularning mazmunini takomillashtirishga erishish;

– umumta'lim maktablarida geografiya darslariga ajratilgan soatlarning qisqarib borishiga yo'l qo'ymaslik, aksincha, oshirish lozim;

– o'rta maxsus, kasb hunar ta'lumi tizimida "Tabiatni muhofaza qilish" o'quv kursini joriy etish;

– kasb hunar kollejlarining turlari va yo'nalishlaridan kelib chiqib, fanga oid ixtisoslik fanlarini o'qitishni yo'lga qo'yish;

Oliy ta'limga bakalavr va magistratura o'quv reja va fan dasturiga mos o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish;

– talabalar va magistrantlarga mo'ljalangan maxsus xarita va atlaslarni yaratish;

– pedagog kadrlar tayyorlaydigan barcha Oliy ta'limga muassasalarining ta'limga yo'nalishlarida "O'zbekiston geografiyasi" fanini o'qitishni joriy etish;

Oliy ta'limga muassasalari qabul kvotasiga geografiya ta'limga yo'nalishlari uchun ajratilgan kvotalar sonini oshirishga erishish;

– ta'limga tizimining barcha bo'g'inlarida geografiya darslarini to'liq zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etishga erishish;

– geografiya darslarida foydalananish mumkin bo'lgan xaritalarning turlari oshirish hamda har bir dars mavzusiga oid bo'lgan xaritalardan samarali foydalishga erishish.

Axborot oqimi tezlashib borayotgan bugungi davrda yuqorida keltirilgan takliflarni amaliyatga joriy etish o'quvchilarning nazariy bilimlarini puxta o'zlashtirishi, amaliy ko'nikma va malakalarini hosil qilishi hamda rivojlantirishi mumkin. Bu esa vatanimiz taraqqiyoti uchun iqtidorli yoshlarni tarbiyalashga va yetuk mutaxassis-kadrlar yetkazib berishga imkon beradi.

Hozirgi davrda ta'limga tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri

o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya hamda pedagogik texnologiyalar va innovatsion yutuqlardan keng foydalanish, ularni ta'limga tizimiga joriy qilib borish hamda rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini tatbiq etish hisoblanadi.

Mamlakatimiz oliy ta'limga muassasalarida geografiya fanini turli usullar va vositalar bilan o'qitishga doir qator ilmiy ishlar qilingan, lekin geografiya yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlashda tabiiy geografik kurslarida amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish, talabalarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishda zamonaviy pedagogik va kompyuter texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy qilish masalasi hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Zamonaviy ta'limga tizimida raqobatbardosh, har tomonlama mukammal kadrlar tayyorlashning muhim shartlaridan biri bu – zamonaviy fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlariga asoslangan ta'limga tizimini tashkil etishdan iboratdir. Bugungi kunda mamlakatimizda geografiya sohasiga oid bilimlar ko'laming yanada kengayishi, takomillashishi tufayli geografiya fani bo'yicha jahon va texnik taraqqiyot talablariga javob beruvchi mutaxassislarga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu esa oliy ta'limga tizimida qator metodik, pedagogik vazifalarni amalga oshirish, nazarda tutadi. Bu vazifalar mazmuni va xususiyatiga ko'ra strategik, taktik, operativ turlarga ajratadi.

Strategik vazifalar ta'limga tarbiya jarayonining umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, geograf mutaxassislarning shaxsiy insoniy fazilatlari bilan bir qatorda ularning kasbiy sifatlari ya'ni kompetensiya majmuini tashkil etadi. Ta'limga strategiyasi talabaning shaxsiy va mutaxassislik bo'yicha sifatlari majmuini yaratib berish maqsadiga yo'naltirilgan ta'limga faoliyat jarayonidir. Ta'limga strategiya vazifasi – ta'limga tizimining metodik vazifasi – ta'limga tizimining strategik maqsadini aniq vaziyatda yuqori samaradorlikka olib kelish jarayoni bo'lib, metodik ishni amalga oshirish pedagogik ta'limga tizimining maqsadini belgilab beradi.

Talaba tabiiy geografik fanlardan ta'limga tizimining maqsadini amalga oshirishda o'quv materiallarini to'la egallab, o'z in'ikosini kvalimetrik xususiyatlar majmui sifatida mutaxassisda namoyon etsa, tugallangan samarali natijaga erishadi.

Geografik qobiqning murakkab tuzilishi va xususiyatlari uni har tomonlama tadqiq qilishni, ya'ni bir butun hamda alohida komponentlar bo'yicha ham va undagi katta-kichik tabiiy geografik majmualar

bo'yicha ham tadqiq qilishni taqozo etadi. Bu, o'z navbatida, tabiiy geografiyaning tarmoqlanishiga olib keladi. Hozirgi kunda tabiiy geografiyaning quyidagi asosiy tarmoqlari mavjud: umumiy yer bilimi, regional geografiya, landshaftshunoslik, paleogeografiya, xususiy geografiya (iqlimshunoslik, geomorfologiya, biogeografiya va h.k.) [77; 14-b.].

Oliy o'quv yurtlarida tabiiy geografik fanlar bo'yicha o'qitishning ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirishda umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining salmoqli hissasi bor. Bu fanlar talabalar egallashi lozim bo'lgan mutaxassislik mazmuni asosini tashkil etadi. Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari blokining asosiy vazifalaridan biri aniq bir soha bo'yicha talabalarda shakkantirilishi kerak bo'lgan kasbiy-pedagogik, metodik ko'nikmalar asosini tashkil etuvchi bilim, ko'nikmalar va malakalar tizimini hosil qilishdan iborat. Mazkur fanlar blokining asosiy maqsadi tayyorlanadigan mutaxassislarini soha bo'yicha tayyorlashning asosini tashkil etib, ular kelgusidagi mutaxassislarining amaliy faoliyati uchun shart-sharoit yaratishdan iborat.

Bunda ushbu blokka kiruvchi fanlar mazmunini, o'qitish maqsadi va vazifalari, metodlari, shakkllari, vositalari, o'tkazilish joyi, texnik va metodik ta'minot bilan jihozlanishi, ular uchun ajratilgan vaqt talabalarda tabiiy geografik fanlarni o'qitishning ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli talabalarni yuqori kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan mutaxassis etib tayyorlashda doimo ushbu sohaga tegishli modiiy-texnik baza, o'quv axborot ta'minoti va yetuk malakali mutaxassislar bilan ta'minlash olyi ta'limgizda ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Tadqiqot davomida Geografiya o'qitish metodikasi ta'limgiz yo'nalishi o'quv rejasiga kiritilgan tabiiy geografik umumkasbiy va ixtisoslik fanlarning mazmuni tahlil qilindi.

Umumkasbiy fanlar blokida: "Geografiya o'qitish metodikasi", "Umumiy yer bilimi" "Geologiya", "Tuproqlar geografiyasi", "Topografiya va kartografiya asoslari", "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi", "O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi", "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" kabi fanlar o'qitiladi.

Ixtisoslik fanlari blokida: "Toponimika", "O'lkashunoslik", "Geografiyaning o'qitishda innovatsion texnologiyalar", "Tabiiy geogra-

rafik jarayonlar", "Umumiy hidrologiya", "Geografiyaning masala va mashqlar" kabi fanlari o'qitiladi [51].

Geografiya o'qitish metodikasi ta'limgiz yo'nalishida tahsil oladigan 1-kurs talabalariga "Umumiy yer bilimi" "Geologiya", "Tuproqlar geografiyasi", "Topografiya va kartografiya asoslari" fanlari; 2-kurs talabalariga "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi", "Geografiyaning o'qitishda innovatsion texnologiyalar", "Tabiiy geografik jarayonlar", "Umumiy hidrologiya", "Geografiyaning masala va mashqlar" fanlari; 3-kurs talabalariga "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi", "Geografiya o'qitish metodikasi", "O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi", "O'zbekiston tabiiy geografiyasi", "Toponimika" fanlari; 4-kurs talabalariga "Geografiya o'qitish metodikasi", "Toponimika", "O'lkashunoslik" va boshqa fanlarning nazariy va amaliy mashg'ulotlar olib boriladi.

Tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni o'qitishda nazariya bilan amaliyot birligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ixtisoslik va umumkasbiy fanlardan o'quv uslubiy majmualarni yaratishda ularga oid axborotli uslubiy majmua va zamonaviy pedagogik texnologiyalarini joriy etishni e'tiborga olish lozim, chunki hozirgi davr axborot asridir.

5110500 - Geografiya o'qitish metodikasi ta'limgiz yo'nalishi mazmunida amaliy bilim, ko'nikma va malakalar salmog'i nazariya bilimlardan kam emas, va albatta ulardan ko'zlangan maqsad talabalarda tabiiy geografiya kurslarini o'qitishning ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirishning samarali yo'llarini ishlab chiqish va joriy etishdan iborat. Talabalarda tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishda ularning ilmiy-metodik ta'minoti juda qo'l keladi.

Tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish amaliyoti o'quv reja-ga kiritilgan ixtisoslik va umumkasbiy fanlarning mazmuni tahlilidan ma'lum bo'ldiki, bu jarayonni ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirish uchun kiritilgan fanlar talabaning ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama kengaytirishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili, pedagogik amaliyot bo'lajak geografiya o'qituvchilarini tayyorlashdagi hozirgi asosiy ziddiyatlar sifatida quyida gilarni ko'rsatib o'tish imkonini berdi: o'qituvchilarining kompetentligi

darajasiga ijtimoiy talablarning tobora ortib borishi va shakllangan an'anaviy kasbiy tayyorlash tizimining zamon talablariga javob bermasligi; geografik ta'limning gumanistik va kompetentlilik paradigmalari (maqsad va jarayon), talabalar oliv ta'lim muassasalarida egallagan va geografiya o'qituvchisining kasbiy faoliyat turlarida joriy etiladigan kompetensiyalari o'rtasidagi ziddiyatlar. Ushbu ziddiyatlar ko'plab metodistlar, pedagogik olimlar tomonidan umumiy geografik ta'lim amaliyotidan bir oz orqada qolganligi bilan izohlanadi. Ularni bo'lajak geografiya o'qituvchilarini amaliy kasbiy tayyorlashga yangicha konsepsiylar, zamonaviy (kompetentli, integrativ va faoliyatli) yondashuvlar asosida hal qilish mumkin.

Tadqiqot doirasidagi kompetentli yondashuvda talabaning ta'lim olganligi darajasi uning egallangan bilimlar asosida turli qiyinlikdagi o'quv-kasbiy maslalarni yechish qobiliyatini rivojlantirish nazarda tutiladi. Kompetentli yondashuvda bilimning ahamiyati inkor etilmaydi, ammo olingen bilimlardan amalda qanchalik darajada foydalana olish qobiliyatiga ko'proq e'tibor qaratiladi. Kompetentli yondashuv nuqtai nazaridan qaraganda, ta'lim faoliyatining asosiy bevosita natijasi talabalarda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish hisoblanadi. Geografik ta'limda kompetentli yondashuvni tatbiq etish – bu, eng avvalo, ta'limni va uning natijasini mehnat bozori talablariga moslashtirishdir. Kompetentli yondashuvda o'qitish jarayoniga emas, balki uning natijasiga, o'qituvchining ta'limdagi rolini, o'qitishni tashkil etish va natijasini baholash metodlarini o'zgartirishga alohida e'tibor qaratiladi. Komponententli yondashuvda ta'limning amaliy yo'nalishlarini kuchaytirish, o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalardan amaliy faoliyatda samarali foydalanishga e'tibor qaratiladi. Integrativ yondashuvda tabiiy geografiya kurslarining birlari va umumkasbiy siklidagi boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi integrativ qo'llash nazarda tutiladi. Faoliyatli yondashuvda tabiiy geografiya kurslaridan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish jarayonida talabalarning fanga oid kompeiyensiylarini rivojlantirish maqsad qilinadi.

Meyoriy hujjatlarni o'rganish bo'yicha olib borilgan tahlil natijasida shuni ko'rish mumkinki, o'quv rejalaridagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlariga ajratilgan soatlarning ko'p qismini amaliy mashg'ulotlar

tashkil etadi.

Talabalarda tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni o'qitish nazariy bilimlarga asoslanib, amaliy faoliyat metodik ta'minot natijasida takomillashtiriladi.

O'zbekistonda ta'lim tizimida islohotlar jarayoni shiddat bilan davom etayotgan davrda ta'lim tizimining birgina o'zi qo'yilgan vazifalarni mustaqil hal etib berolmaydi, chunki tizim an'anaviy bo'lib zamonaviy pedagogik, metodik talablarning ko'pchiligi endigina joriy qilinmoqda. Tizim islohotlar jarayonida bo'lsada, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning yangilangan ta'lim strategiyasini belgilash, integrativ mazmuniga yangicha yondashuv taqozo etiladi. Talab qilinayotgan yangi strategiyada – an'anaviy tizimni geograf mutaxassislikka to'la yo'naltirilgan yangi tizim bilan almashtirish, ta'limda ilmiy-metodik ta'minot asosida shaxsga yo'naltirilganlik, kvalifikatsiya, kompetensiya, kvalimetrik talab, raqobatbardoshlik, pedagogik-psixologik yondashuvlarga o'rin berish zarurat hisoblanadi.

Umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitishda psixologik- pedagogik qonuniyatlardan chetga chiqmagan holda talabalarda tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni etishning ilmiy-metodik ta'minotida o'quv, tarbiyaviy jarayonga o'zining faol munosabatlarini bildirib, qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazaridan yondoshib, komil inson sifatlari bilan birga aqliy, kasbiy tafakkurini takomillashtirishga yordam beruvchi faoliyatdir. Shuning uchun ham talabalarda tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishda, albatta ilmiy-metodik ta'minoti har tomonlama takomillashgan bo'lishi, chuqur kasbiy va metodik bilim talab qilinadi. Talabalarga tabiiy geografik fanlardan beriladigan bilimlarning o'ziga xos sintezini amalga oshirish va bu sintezda qatnashayotgan mavzularning o'zaro aloqadorligi, tuzilishi va boshqa fanlar bilan uzviy aloqadorligi haqidagi ma'lumotlarning ta'lim jarayonida berib borilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda talabalarga modulli va masofadan o'qitish haqida ma'lumotlar berib boriladi. Masalan, oliy ta'limning sirtqi bo'limida tahsil olayotgan talabalar bir o'quv yilida bor-yo'g'i ikki oy o'qishadi, lekin ular barcha fanlarni to'liq o'qib o'zlashtirishlari shart. Bunda

talabalar uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda o'quv materialini professor-o'qituvchilar masofaviy ta'lif platformasi orqali yuboradi va talabalar kerakli materiallarni o'zları yuklab olib, berilgan topshiriqlarni o'zlashtirishda foydalansa, ularning o'zlashtirishi oson bo'ladi, samaradorlik oshadi.

Har bir axborot asosida to'plangan ma'lumotlar talabaning obyektiv va mustaqil fikr yurituvchi raqobatbardosh kadr sifatida takomillashiga, bilimlarni egallashiga, mantiqiy fikrlashga, muammolarni yechishga yordam beradi. Bunday yondashuv o'qituvchi hamda talabalardan ijodkorlikni talab qiladi. Chunki ijodkor o'qituvchilar talabalarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda internet va kompyuter imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi. Bunda o'qituvchi internet va ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan barcha axborotlarga tanqidiy qarash, ularga xolis yondashish va uzatilayotgan har bir axborotni saralashda ongli ravishda yondoshishi muhimdir.

### **1.3-§. Geografiya darslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilishning maqsadi, vazifalari va ahamiyati**

Oliy o'quv yurtlarida malakali geograflar tayyorlashda tabiiy geografiya kurslarining o'rni benihoya kattadir. Chunki bu kursni o'qitish orqali talabalar sayyoramizning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarni chuqur o'rganadilar hamda tabiiy unsurlarning bir-biriga uzviy bog'liq va aloqadorlik qonuniyatlarini tushunib etadilar. Natijada sayyoramiz tabiatini chuqur va har tomonlama biluvchi uni tabiiy boyliklaridan oqilona foydalanib, muhofaza qilishni yosh avlodga yetkazuvchi geografiya o'qituvchilari tayyorlanadi. Lekin shunga qaramay O'zbekiston Oliy va o'rta mahsus ta'lif vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv rejada tabiiy geografiya kurslarida nazariyaga ajratilgan soatning kamligi yer yuzi tabiatining o'ziga hos hususiyatini talabalarga chuqur o'rgatish imkoniyati cheklangan, aksincha amaliy mashg'ulotlariga umumiy to'g'ri tashkil etilsa, nazariyadan olgan bilimlarni mustahkamlashdan tashqari talabalarda fanga oid kompetensiyalar rivojlanadi.

Tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlar darslarining asosiy vazifasi tabiiy geografiya predmetlari asosida shakllangan bilim, ko'nikma va malakalarni yanada kengaytirish, mustahkamlash-

hamda ularni amaliyotda qo'llashni o'rgatish. Mazkur bilim, ko'nikma va malakalar undanda murakkab bo'lgan nazariy bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga va amalda qo'llashga imkon beradi. Amaliy mashg'ulotlatlarda talabalar faoliyatini asosiy shakli bo'lib, amaliy ishlarni bajarish hisoblanadi. Mazkur amaliy ishlarni bajarish davomida talabalarda fanga oid kompetensiyalar rivojlanadi.

Ushbu amaliy mashg'ulotlatlarda talabalarni nazariy va amaliy faoliyati bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Shuning uchun geografik ko'nikmalarining katta qismi yangi bilimlarni olish jarayonida shakllatiriladi. Ayrim amaliy ishlarni mashg'ulot davomida bajariladi, masalan, geografik koordinatalarni aniqlash, masshab turlari bilan ishlash. Ayrim amaliy ishlarni yangi mavzuni o'rganib bo'lgandan keyin bajarish mumkin. Bundan olingan bilim va ko'nikmalarin mustahkamlanadi.

Amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalar darslik, o'quv qo'llanma, har xil adabiyotlar, xarita va atlaslardan foydalanib berilgan topshiriq va savollarni sinchkovlik bilan puxta bajarsalar ular uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi malaka va ko'nikmalar shakllanadi:

- amaliy mashg'ulotlarda tematik xaritalar va atlaslar bilan ishlab, ularni taqqoslash orqali talabalarda ma'lum tabiiy geografik obyektlarning hozirgi holati, unda sodir bo'layotgan va bo'lishi mumkin bo'lgan jarayonlarni bilih malakasi shakllandi;

- tabiatning tabiiy unsurlarini bir-biriga taqqoslab ularni ajratilgan holda emas, balki uzviy aloqada bo'lib, agar uning biror unsuriga noto'g'ri ta'sir etilsa, u o'z navbatida boshqa tabiat elementlarining holatini o'zgarishiga sababchi bo'lishi mumkinligi haqida talabalarda mustaqil ravishda hulosalar chiqarish malakasi vujudga keladi;

- turli hil manbalarda hamda o'quv qo'llanmalarda berilgan jadvalardan foydalanib raqamli ma'lumotlarni tahlil qilish, profillar tuzish, grafik va diagrammalar chizish malakasi shakllanadi.

Tabiiy geografiya kurslarida o'tiladigan nazariy va amaliy mashg'ulotlari bir butun fanni tashkil etadi. Lekin amaliy mashg'ulotlarning vazifasi nazariyadan olgan bilimlarni takrorlashdan iborat emas, aksincha, nazariyadan olgan bilimlarni amalga tatbiq etib, berilgan savol va topshiriqlarni mustaqil ravishda tahlil (analiz va sintez) qilib, kelajakda geografiya o'qituvchisi bilishi zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Tabiiy geografiya kurslarida olib boriladigan amaliy ishlar

jarayonida talabalar darslik va o'quv qo'llanmalar bilan cheklanib qolmay, qo'yidagi jadvalda ko'rsatilgan geografik ma'lumotlar beruvchi manbalardan foydalanishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda ayniqsa kartografik (topografik, mahsus tematik xaritalar, atlas va globus), statistik (diagramma, jadval har xil chizmalar), ayerokosmik rasmlar va boshqalardan foydalanish amaliy ishni yanada puxta, yangiliklar bilan boyitigan bo'ladi. Shuningdek, tabiat komplekslariga insonni ta'siri va undan kelib chiqadigan salbiy oqibatlariga alohida e'tibor berish kerak.

Talabalarga beriladigan topshiriq va savollar ma'ruzadan olgan ma'lumotlarni mustaxkamlashga qaratilgan bo'lishi kerak. Binobarin, talabalar bilan olib boriladigan topshiriq va savollarni puxta o'zlashtirishlari uchun quyidagilarga alohida e'tibor berishlari kerak.

1. Nazariyadan olgan bilimlarini yodga tushirish, mustaxkamlash uchun har bir topshiriqni bajarishda va geografik tushunchalarni egallash jarayonida u yoki bu hodisa nima uchun? qachon? qayyerda? kabi savollarga javob topishlari kerak.

2. Ba'zi topshiriq va savollar darslik, tematik xaritalar, atlaslar, rasmlar, profillar, jadvallar va chizmalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

3. Ba'zi topshiriqlar tabiiy geografik hodisalarning o'zaro aloqalari sabab-oqibatini mustaqil ravishda ochib berishga qaratilgan bo'lib, talabalar ularni isbotlashlari, nima uchun? qanday? nima sababdan? kabi savollarga javob izlashlariga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

4. Ba'zi topshiriq va savollar tabiiy geografik jarayonlarning sabab-oqibatini va bir-biriga aloqadorligini ochib berishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Barcha topshiriq va savollar talabalar tafakkurini rivojlanishiga, hotirasini chiniqtirishga, mustaqil xulosalar chiqarishga, tabiat komponentlari bir-biriga uzviy bog'liq ekanligiga, nazariyadan olingan bilimlarini mustahkamlash, fanga oid kompetensiyalarini rivojlanishga qaratilgan bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Talabalar olgan ko'nikma va bilimlari kelajakda o'zining ish faoliyatida asqotadi.

Tabiiy geografiya Yer yuzi tabiatining holati, uning o'zgarishi, ro'y beradigan tabiiy hodisalarni o'rganadi [57; 28-b.]

Tabiiy geografiya joy tabiatining nima uchun hilma xil ekanligi sabablarini tushuntiradi. Masalan, cho'l zonalarida yog'ingarchilikning kam, tog'lik hududlarda esa aksincha ko'p bo'lishini, tog'lar ustida

jazirama yozda ham qorlar erimay yotishini, ekvatorda qishin-yozin iqlim bir xil-issiq bo'lishini, mo'tadil mintaqada esa to'rtta fasl aniq almashinib turishini tushuntirib beradi.

Bularning barchasini to'la va mukammal anglab yetishimiz uchun tabiiy geografiya kurslarida o'tiladigan amaliy mashg'ulotlarning o'rni kattadir. Chunki ma'ruzadan olgan bilimlarni amaliyotda qo'llamas ekan, ularning mazmun-moxiyatini chuqur va aniq anglab olish qiyin. Shu sababdan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish talabalarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlanishiga yordam beradi.

Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida seminarlar bilan birlgilikda, tabiiy geografiya kurslarining o'ziga xos xususiyatlari mos holda turli shakldagi amaliy mashg'ulotlar tashkil etiladi. Pedagogik adabiyotlarda "amaliy mashg'ulot" tushunchasi keng talqin etilgan bo'lib, bunda talabalarning ilmiy-nazariy, amaliy bilimlarni chuqur o'zlashtirishlariga, fanga oid muayyan metodlarni egallashiga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tushuniladi.

Amaliy mashg'ulotlar – nazariya va amaliyot birligi va aloqasini ta'minlovchi reproduktiv o'qitish metodi bo'lib, talabalarda ma'ruzalarni tinglash va mustaqil ta'lim jarayonida olgan bilimlarini amalda qo'llash ko'nikma va malakalarini shakllantirishga imkon beradi.

Talabalar geografik bilimlarni mukammal egallashlarida amaliy mashg'ulotlarning ahamiyati juda katta. Har bir amaliy mashg'ulot mavzular mazmuniga qarab belgilanadi. Amaliy mashg'ulotlarni olib borishdan asosiy maqsad talabalarda turli mazmundagi xarita va globus bilan ishslash, tabiatni kuzatish kabi geografiyaga oid ko'nikma va malakalar hosil qilishdan iboratdir. Amaliy mashg'ulotlar deyilganda faqat bevosita tabiatda, ya'ni dala sharoitida olib boriladigan kuzatishlarni, o'lchash ishlarini tushunmaslik kerak. Chunki mana shu kuzatishlar, o'lchashlar natijasida va boshqa berilgan ma'lumotlar asosida xona sharoitda (auditoriyada) bajariladigan barcha amallar amaliy mashg'ulotlar deb ataladi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, nazariy-amaliy mashg'ulotlar deyilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Shu vaqtga qadar mashg'ulotlarning bu turi alohida ajratilmagan bo'lib, barcha sohalarda faqat dala sharoitida (tabiatda) va labaratoriya sharoitida o'tkaziladigan amaliy ishlar haqida fikr yuritilgan. Lekin aslida amaliy mashg'ulotlarni uch turga ajratish lozim.

1. Tabiatda (dala sharoitida) o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar.

2. Labaratoriya sharoitida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar.
3. Nazariy-amaliy mashg'ulotlar [17; 89-b.]

Biz tabiatda va labaratoriya sharoitida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarni yaxshi bilgan holda, endi nima uchun ulardan alohida nazariy-amaliy mashg'ulotlarni ajratganimizga to'xtalsak. YA'ni nazariy-amaliy mashg'ulotlarning tabiatda va labaratoriya sharoitida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlardan asosiy farqi shundaki, bunday mashg'ulotlarda obyekt talab qilinmaydi. Dala sharoitida tepalik yoki kichik hudud, daryo, ko'l, dengiz, tabiiy muhit obyekt bo'lsa, labaratoriyada suv, tuproq, kamyoviy moddalar, turli tog' jinslari narsa va hodisalar obyekt hisoblanadi. Nazariy-amaliy mashg'ulotlarda ular talab qilinmaydi, lekin bu mashg'ulot birinchi va ikkinchi amaliy nashg'ulotlarning bevosita tarkibiga ham kirib ketadi, ba'zan esa ularning ma'lumotlaridan alohida (ya'ni birinchi va ikkinchi amaliy nashg'ulotlarning davomi bo'Imagan holda) foydalangan holda nazariy-amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Bu mashg'ulotlarda faqat chizg'ich, transportr, sirkul, rangli qalam, o'chirg'ich kabi o'quv qurollari va ip ishlataladi. Bunday amaliy mashg'ulotlarda xarita masshtabi va koordinatalar, havo bosimi va harorati, nisbiy va absalyut namlik, har qanday son qiymatiga ega geografik ma'lumotlarni diagrammalarda tasvirlash, daryo suv sarfi, dengiz va okeanlarning chuqurligi turli usullar, tenglamalar va formulalar yordamida aniqlanadi.

Yozuvsiz xaritada bajariladigan ishlar ijodiy harakterga ega bo'lishi, tababalar bu ishlarni ongli va mustaqil bajarishlari lozim. Bir xil turdag'i ishlar tababalarni zeriktirib qo'yadi, shu sababdan yozuvsiz xaritada bajaradigan ishlar xilma-xil bo'lishi kerak. Yozuvsiz xaritada bir necha xil turdag'i amaliy topshiriqlarni bajarish mumkin.

Nazariy-amaliy mashg'ulotlardan yana biri globus bilan ishlash bo'lib, bu tababalarga bir qancha noaniq narsalarni bilib olishga imkon beradi.

Yirik geografik obyektlari (materiklar, okeanlar, mamlakatlar)ning shakli, joylanishini globussiz to'g'ri tasavvur qilib bo'lmaydi. Ularning xaritadagi tasviri globusdagi haqiqiy tasviridan farq qiladi, ba'zilari esa yarimsharlar va dunyo xaritalarida bo'lib ko'rsatiladi. Masalan, Tinch okeani, Shimoliy muz okeani va Antarktida materigi yarimsharlar tabiat quyoshdan tushadigan tik yoki qiyaligiga bog'liq ekanligi ham

globusdan o'rganiladi.

Xaritada meridianlarning shimoliy va janubiy yo'nalishlarini, parallelarning sharqiy va g'arbiy yo'nalishlarini ham globusda mashq qilib, keyin xaritalardan aniqlansa to'g'ri tushuncha hosil bo'ladi. Geografik kenglik va uzunliklarni topishga, aniqlashga oid ko'nikmalar hosilqilish uchun ham globusda mashq bajarish kerak.

Xarita va globuslardan amaliy mashg'ulotlarning barcha guruhlarida foydalanish mumkin.

Tabiatda (dala sharoitida) o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarning ko'pchilligi kuzatish orqali amalgalash oshiriladi. Kuzatish – hodisa va jarayonlarni, geografik obyektlarni tabiiy holatda idrok etish maqsadida o'tkaziladi. Talabalar kuzatish orqali geografik hodisa va joylar bilan bevosita tanishadilar. O'qituvchi kuzatish natijalari va talabalarning hayot tajribalariga tayanib geografik tishunchalarni to'g'ri tushuntira oladi. O'qituvchi kuzatish olib borish uchun zarur bo'lgan asboblardan qanday foydalanish kerakligini tushuntiradi. Kuzatish yakunlarini talabalarning o'zlarini ishlab chiqishlariga erishish muhim ahamiyatga ega. Agar talabalar o'z kuzatish natijalarining amaliy ahamiyatini bilib olsalar, kuzatishga bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi.

Tabiatda va ishlab chiqarish jarayonida bevosita olib boriladigan kuzatishlar bilim olishning muhim manbalaridan biri hisoblanadi.

Kuzatish davomida tababalar geografik borliq, voqe va hodisalarni bevosita ko'rishadi va kuzatishadi. Talabalarni kuzatish jarayonida o'lgan bilimlariga asoslanib o'qtuvchi ularni har bir geografik borliq, voqe va hodisalarni mohiyatiga tushunishni o'rgatadi. Talabalarning kuzatishga asoslangan bilimlari puxta va chuqurligi bilan ajralib turadi.

Geografik kuzatishlar mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: Astronomik, meteorologik va fenologik.

Astronomik kuzatishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- quyoshning chiqishi va botishini kuzatish;
- yulduzlar va sayyoralarini kuzatish;
- qutub yulduzlarini aniqlash;
- oy davrlarini aniqlash;
- iloji bo'lsa observatoriyalagi asboblar bilan tanishish;
- planetalarga sayoxat [101; 74-b.].

Quyoshning chiqishi va botishini tabiat qo'ynida kuzatish mumkin. Chunki bevosita dars jarayonida Quyoshning chiqishi va botishini

kuzatib bo'lmaydi. Quyoshning chiqishini kuzatish uchun avval kalendardan ertalab Quyoshni chiqish vaqtini aniqlash lozim. Iloji boricha Quyoshning chiqishi va botishini bahorning ohiri kuzning boshlarida kuzatgan ma'qul. Yozda talabalar tatilda bo'lganliklari uchun mazkur kuzatishlarni amalga oshirib bo'lmaydi.

Yulduzlarni va sayyoralarini kuzatish tunda olib borilganligi maqsadga muvofiqdir. Qutb yulduzini aniqlash ham tunda olib boriladi. Yulduzlarni, sayyoralarini va oyning davrlarini kuzatishni talabalar mustaqil o'rganishlari mumkin. Buning uchun o'qituvchi dars paytida ularga yulduzlar, sayyoralar va oy davrlarini qanday kuzatishni o'rgatishi lozim, yoki vaqt topib ular bilan birga astranomik kuzatishlar olib borib, so'ngra boshqa paytlarda ularga osmon jismlarini kuzatish bo'yicha topshiriq berishi mumkin. Bunda talabalar kunduzi Quyoshga, Astronomik kuzatishda Quyoshning chiqishi va botishi, gorizontga nisbatan Quyosh balandligining o'zgarishi, yulduzlar, sayyoralar, Oy fazalarining o'zgarishi kabi kuzatishlar amalga oshiriladi. Bunday kuzatishlar geografik qonuniyatlarning tarkib topishida, ya'ni o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Meteorologik kuzatishlarda ob-havoni kuzatish alohida o'rinn tutadi. Ob-havoni kuzatish va uni ta'riflash meteorologik asboblar bilan ishslash ko'nikmalarini hosil qilishda katta ahamiyatga ega.

Ob-havoni kuzatish bir necha bosqichlardan iborat:

- o'quv yilining boshida ob-havoni kuzatishni tashkil etish va kuzatish usullari bilan maxsus darsda talabalarni tanishtirish;

- kuzatishdan avval meteorologik asboblar bilan ishslash ko'nikmalarini shakllantirish lozim. Masalan, termometrdan hisob olish texnologiyasi va x.k.;

- maxsus bilimlarni o'tgunga qadar oddiy meteorologik kuzatishlar olib boriladi (harorat, shamol, bulutlar, yog'ingarchilik);

- iqlim haqida maxsus mavzular o'tib bo'lingandan so'ng atmosfera kuzatishlar olib boriladi. Havoning haroratini va shamol yo'naliшини dastlab bir kunda bir marta kuzatishi mumkin, bulutlik va yog'inlarni kun davomida kuzatish mumkin; Quyoshning ufqdan balandligi oyda bir marta, har oyning 20-24-kunlarida soat 13:00 da kuzatiladi (2-jadvalga qarang).

Ob-havoni kuzatish grafigi

Oy va kun	Havo harorati	Havo bosimi	Shamolning yo'naliishi	Shamolning kuchi	Bulutlik	Yog'inlar	Quyoshning ufqdan balandligi	Izoh

Jadval muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mazkur jadval har kuni muntazam kuzatish natijalari bilan to'ldirib boriladi va har oy oxirida tahlil qilinadi. Tahlilda oy davomidagi eng yuqori va eng past harorat, bosimning pasaygan va ko'tarilgan kunlari, shamolning asosiy yo'naliishlari, bulutlik, yog'inlar. So'ngra ob-havoni o'zgarishi fasllar bo'yicha tahlil qilinadi va yillik o'rtacha harorat va bosim aniqlanadi.

Fenalogik kuzatish - tabiat va tabiat obyektlaridagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatishni nazarda tutadi. Tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatishdan ko'zda tutilgan asosiy maqasad quyidagilar:

- mavsumiy hodisalar har qanday joy tabiatining asosiy xususiyatlardan iborat ekanligini talabalar ongiga yetkazish;

- talabalarda tabiatga muhabbat hissi va ularda mustaqil tadqiqot ishlari olib boorish ishtiyoqini uyg'ontirish;

- talabalarni finologik kuzatishlar olib boorish metodikasi bilan tanishtirish;

- o'simliklar hayoti va hayvonot olamida ro'y beradigan mavsumiy o'zgarishlar mazkur joyning tabiiy iqlim sharoitiga bog'liqligini talabalarga tushuntirish.

Lekin yillar davomida iqlimning o'zgarishi mavsumiy voqeа-hodisalarining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Umuman, kuzatishga oid ma'lumotlardan o'quv jarayonida yangi ma'lumotlarni o'rganishda, talabalarning bilim va ko'nikmalarini aniqlashda foydalananib borilsa, talabalarning bilimini aniq va mustahkam bo'lishiga yordam beradi.

Tabiatda sodir bo'ladigan fasliy o'zgarishlarni va ular bilan bog'liq ravishda o'simlik va hayvonot dunyosini o'zgarishini kuzatish geografik bilimlarni oshirishda va ularni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Fenalogiya – tabiatdagi mavsumiy hodisalar, ularning boshlanish muddatlari va shu muddatlarni belgilovchi sabablar to‘g‘risidagi bilimlar tizimidir. Fenalogiya atamasini fanga Belgiyalik botanik Sh.Morran 1853-yil kiritgan. Ularning fikriga ko‘ra fenalogik kuzatishlar quyidagi qismlardan iborat:

a) yuksak o‘simliklarda kurtaklarning bo‘rtishi va yozilishi, barg chiqarishi, g‘unchalash, gullash, urug‘ va mevalarning pishib yetilishi, kuzda barglarning sarg‘ayishi va to‘kilishi;

b) sut emizuvchi hayvonlarni kuzatishda quyidagilarga e’tibor beriladi: qishki uyqudan uyg‘onishi, juftlashishi, bolalash, mavsumiy tullah va x.k;

v) qushlarni kuzatishda quyidagilarga e’tibor beriladi: bahorda uchib kelishi, uya qurishi, tuxum qo‘yish, jo‘ja ochish, kuzda uchib ketish;

g) baliqlar quyidagicha kuzatiladi: bahorgi serharakat hayot, uvildiriqlar tashlash, mavsumiy ko‘chib yurish va x.k [101; 83-84-b].

Fenologik – geografik qonuniyatlarini aniqlash uchun fenologik kuzatishlar olib boriladi. Fenologik qonuniyatlar asosida qishloq xo‘jalik tarmoqlari bo‘yicha qilinadigan mavsumiy ishlar va tadbirlarni mintaqaviy taqvimi tuziladi. Bunday taqvimdan tabiatni muxofaza qilish tadbirlarni ishlab chiqishda foydalaniladi.

Kuzatish natijasida talabalarning bilish qobiliyati rivojlantiradi. Uzoq muddatli kuzatishlar katta ahamiyatga ega, uning natijasida talabalar mustaqil ravishda tegishli xulosalar qilishi mumkin.

Geografik kuzatishlar talabalarni tabiatdagi voqeа hodisalarini ko‘p qirrali xususiyatlari bilan tanishtiribgina qolmasdan balki tabiiy geografik va iqtisodiy geografik voqeа va hodisalarini bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligini ham ochib beradi.

Geografik voqeа va xodisalarini kuzatish muddatlari ham turlicha. Ayrim xodisalarini (ob-hovo) uzoq muddat kuzatishga to‘g‘ri keladi, boshqa hodisalarini esa qisqa vaqtda kuzatish mumkin (yomg‘ir yog‘ishi, shamol, chaqmoq va boshqalar). Dastlab geografik bilimlarni o‘zlash-tirishga imkon beradigan voqeа va hodisalarini kuzatish lozim.

Geografik kuzatish ko‘nikmalarini shakllartirish murakkab vazifalardan hisoblanadi va unda quyidagi talablarga javob berish lozim:

1. Talabalarga kuzatishning maqsadi, vazifalari, mazmuni va obyekti, turini ishlab chiqish katta ahamiyat kasb etadi.

2. Talabalarga tegishli asboblar bilan ishlashni o‘rgatish lozim (Kompas, barometir, flyuger, nivelir va x.k.)

3. Kuzatish natijalarini aniq qayd etishni o‘rganish lozim (daftarga, kuzatish jurnaliga)

4. Kuzatish natijalarini umumlashtirish va qayta ishlash ko‘nikmalarini shakillantirish. Masalan, o‘rtacha sutkalik, oylik va yillik xaroratlarni xisoblash, daryo oqimini xisoblash; bosim chizmalarini tuzish;

5. Talabalarni geografik voqeа va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni aniqlashga o‘rgatish. Masalan, iqlimiш sharoit va qishloq xo‘jaligi o‘rtasidagi bog‘liqlilik.

6. Talabalar kuzatish ishlariga qiziqish uyg‘otish zarur. Buning uchun kuzatish ishlarini muntazam nazorat qilib turish zarur. Ularga kuzatish ishlarini oldindan aytmaslik kerak.

Kuzatishning mazmuni xilma-xil bo‘lmog‘i lozim va bosqichmabosqich murakablashib borishi zarur. Dars jarayonida kuzatish natijalaridan muntazam foydalanib borish kerak.

Endi, bevosita laboratoriya sharoitida bajariladigan amaliy mashg‘ulotilarga to‘xtalsak. Laboratoriya sharoitida amalga oshiriladigan amaliy topshiriqlar tajriba asosida olib boriladi. Tajriba hodisani tadamaliy topshiriqlar tajriba asosida olib boriladi. Tajriba hodisani qizotchi vujudga keltirgan sun‘iy sharoitda o‘rganish maqsadida o‘tkaziladi.

Talabalar tabiatda bevosita kuzata olmaydigan voqeа va hodisalarini laboratoriya sharoitida amaliy mashg‘ulotilarda o‘rganishi mumkin. laboratoriya sharoitida amaliy mashg‘ulotilarda o‘rganishi mumkin. Ayrim voqeа va hodisalar juda tez sodir bo‘ladi (zilzila, vulqon va x.k.) ayrimlari juda uzoq vaqt davom etadi (tog‘ jinslarini xosil bo‘lishi, tog‘larni ko‘tarilishi, daryo vodiylarni shakillanishi va x.k.) bunday jarayonlarni bevosita kuzatib bo‘lmaydi.

Tabiiy geografiyanı qator mavzularini o‘rganishda laboratoriya sharoitida amaliy mashg‘ulotilarni tashkil etish muhim o‘rin tutadi. Tajriba yordamida murakkab tabiiy geografik jarayonlar sodir bo‘li. Tajriba shini talabalarga laboratoriya sharoitida ko‘rsatish mumkin. Tajriba o‘rganilayotgan hodisani kuzatishga nisbatan ancha batafsil va chuqur hidatll qilishga, uning mohiyatini tushunishga, sabablarini boshqa hodisalar bilan bog‘liq tomonlarini aniqlashga imkon beradi. Tajriba talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularda bilim olishga tadqiqotchilik nuqtai nazaridan yondashishga yordam beradi.

Tabiiy geografiya kurslarida laboratoriya sharoitida quyidagi amaliy

mashg'ulotilarni o'tkazish mumkin:

1. Litosfera mavzusida laboratoriya sharoitida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotilar
2. Gidrosfera mavzusida laboratoriya sharoitida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotilar
3. Atmosfera mavzusida laboratoriya sharoitida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotilar.

Litosfera mavzusida laboratoriya sharoitida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar. Mazkur mavzuni o'tishda cho'kindi jinslarni hosil bo'lishini, burmalarni vujudga kelishini tajribada ko'rsatish mumkin. Chukindi jinslarni hosil bo'lishini tajribada quyidagicha ko'rsatish mumkin. Buning uchun 1 l shisha bankaga yarim litr suv quyiladi. Unga va gil solinadi va so'ngra banka silkitiladi. Silkish jarayonida qum va gil suv bilan aralashadi va loyqa hosil bo'ladi. Shundan so'ng banka stol ustiga qo'yilib tindiriladi. Tindirish jarayonida talabalar kuzatib turishlari lozim. Tindirish jarayonida banka tubiga avval og'irroq jins yani qum tusha boshlaydi va qum qatlami xosil bo'ladi so'ngra yengilroq gil qatlami cho'ka boshlaydi hamda qum qatlamini tepasida gil(loyqa) qatlami xosil bo'ladi.

Tog' tizmalarni yoki burmalarni xosil bo'lishini ko'rsatish uchun 20-30 dona qog'oz varag'i yoki talabalarni daftarlaridan foydalanish mumkin. Buning uchun qog'ozlar qatlami stol ustiga gorizontal holatda qo'yiladi. So'ngra ikki tomonidan siqiladi, natijada tog' tizmasi va tizmalar orasidagi vodiy (botiq) hosil bo'ladi. Vertikal qatlami esa burmalarni vujudga kelishini ifodalaydi. Bundan tashqari graben va gorstlerni hosil bo'lishini plastelindan foydalanib talabalarga ko'rsatilsa ham bo'ladi.

Gidrosfera mavzusida laboratoriya sharoitida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar. Gedrosfera mavzusini o'qitish jarayonida quyidagi tajribalarni qilish mumkin:

- suvni isiganda kengayib soviganda tarayishi;
  - tog' jinslarining orasidan suvning turlicha o'tishini;
  - suvning tuzilish birligiga qarab tog' jinslarini yuvilishi va jarlarning hosil bo'lishi;
  - sharsharaning vujudga kelishini.
- Suvni isiganda kengayishi, soviganda torayishini quyidagi tajribada ko'rish mumkin:

- kolbaga suv quyiladi va suvga bir necha tomchi siyoh tomizib rangli qilinadi;

- suvning kolbadagi sathi (kolbaning tor og'zi) ga ip boylab belgilanadi va kolbaning og'zi o'rtasidan shisha nayga o'xshagan qopqoq bilan yaxshilab berkitiladi;

- kolbadagi suvni spirit lampasi yordamida qizdiriladi. Shunda suv ip bilan belgilab qo'yilgan sathdan yuqori ko'tarilib, shisha naycha ichiga kiradi.

Turli tog' jinslarini suvni turlicha o'tkazishini quyidagi tajribada kursatish mumkin:

- ikcta shisha varonka shtativga o'rnatiladi va ularning pastki teshigi paxta bilan berkitiladi;

- birinchi kolbaga yarim stakan gil (tuproq), ikkinchisiga yarim stakan qum solinadi;

- voronkalardagi gil va qum ustiga yarim stakan suv quyiladi;

- tajribada suv qumdan tez o'tishi va gildan juda sekin o'tishi aniqlanadi.

- suv quyilishi va uni qum yoki tuproqdan o'tishi vaqtini belgilab yer osti suvlari tozaligini ham aniqlash mumkin [101; 91-92-b].

Bundan tashqari turli tog' jinslarini suvda eruvchanligini ham o'r-ganish mumkin. Buning uchun slindrga suv quyiladi va unga o'r-ganilayotgan tog' jinslarining bir bo'lagi solinadi va uning to'la erish qumtoshlar kiradi. Erigan tog' jinslariga turli xil tuzlar, tuproqlar va qumtoshlar kiradi.

Mazkur tajribalar asosida talabalar turli tog' jinslarini turlicha suv o'tkazishni o'rGANISHDA va yer osti suvlarini harakati haqida bilimlarga ega bo'lishadi.

Atmosfera mavzusida laboratoriya sharoitida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar. Mazkur mavzuni o'rganishda tajriba o'tkazish talabalarni tegishli bilimlarini egallashda va kunikmalarni hosil qilishda katta ahamiyatga ega. Atmosfera mavzusini o'rganishda quyidagi tajribalarni o'tkazish mumkin:

- quruqlik va suvni turlicha isishini;

- bulut va yomg'irlarni hosil bo'lishini;

- qirov va qorni hosil bo'lishini va x.k.

Quruqlik va suvning turlicha isishini ko'rsatadigan tajriba talabarda quruqlik va musson iqlimi haqida tushunchalarni shakllan-

tirishda katta ahamiyatga ega. Mazkur tajribani “Ob-havo va iqlim” mavzusini o’tishda ko’rsatish mumkin. Tajriba quyidagi tartibda olib boriladi:

- ikkita bir xil quticha shaklidagi idish olinadi. Mazkur idishlarning o'chamlari quyidagicha bo'lishi lozim; uzunligi 15 sm, kengligi – 7,5 sm, balandligi – 5 sm, ikkita bir uilti.

- idishlarni biriga suv ikkinchisiga tuproq solinadi, bir paytni o'zida ikkalasini ham harorati o'chanadi:

- ikkala idishdagи suv va tuproq lampa yordamida qizdiriladi va  
6-7 minutdan so'ng haroratlar yana qaytadan o'chanadi (3-jadvalga  
qarang).

Termometrda olingan ma'lumotlar daftarga yozib boriladi.

Ma'lumotlarni daftarga qayd etish shakli				3-jadval
Yuza	Xarorat darajasi			Farqi
	Dastlabki	Qizdirilgandan so'ng	Sovutilgandan so'ng	
Suv	14	18	16	2
Tuproq	14	39	14	25

Jadval muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Suv va tuproq xaroratidagi farqning kattalgi tuproq, yani Yer yuzasiga nisbatan tezroq isib tezroq sovishiga talabalarda ishonch hosil qiladi. Bu esa quruqlik va okeandasi jidli.

Bulut va yomg'irni hosil bo'lishini tajribada ko'rsatish uchun baladligi 25-30 sm keladigan shisha idish (slindr) olinadi. Idishning devori terlamasligi uchun u bir oz qizdiriladi. Idish ichiga suv solinadi va spirthi lampada qizdiriladi. Idishning qopqog'ini tepasiga muz solib qo'yilsa, muz ostida bulut (bug') hosil bo'ladi, sungra undan yomg'ir (suv tomchilar) ajralib chiqqa boshlaydi. Demak talabalar bulutlar va yog'inlar hosil bo'lishini labaratoriya sharoitida kuzatishi va ushbu jarayonni to'la kuzatishi mumkin.

Yuqoridagi kabi amaliy mashg'ulot shakllaridan kelib chiqib, ta'lif jarayoniga zamonaviy (kompetentli, integrativ va faoliyatiy) yondashuvlarni joriy etishni talab etadi. Yangi konseptual yondashuvlar talabalarning geografik ta'lif mazmunini optimallashtirish imkonini beradi. Tabiiy geografiya kurslari ("Umumiy yer bilimi", "Materiklar

va okeanlar tabiiy geografiyası") bo'yicha modullilik tamoyiliga asoslangan namunaviy o'quv dasturlari ishlab chiqiladi va ularda amaliy mashg'ulotlar modullarining yangilangan ro'yxatini taqdim etiladi. Modulli o'qitish g'oyasiga tayanib, bo'lajak geografiya o'qituvchilarining fanga oid kompetensiyalari tizimi aniqlanadi, kompetentli yondashuvning nazariy qoidalariiga asoslanib, "kompetensiya", kompetentlik tushunchalari talqin etiladi.

Tabiiy geografiya kurslaridan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasini takomillashtirish orqali talabalar - bo'lajak geografiya o'qituvchilarida rivojlantiriladigan fanga oid kompetensiyalar tizimi uch blokka ajratish mumkin: 1) geografik faoliyat kompetensiyalari (nazariy, metodologik, tushunchaviy-terminologik, faktologik, toponomik, kartografik, kasbiy yani tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni aniqlash, tushunish va tushuntirish, geografik obyektlar, joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish); 2) o'lkashunoslik kompetensiyalari (joydagи predmetlarga qarab ufq tomonlarini aniqlash, geografik kenglik va uzunliklarni aniqlash, tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat); 3) metodik kompetensiyalar (gnoseologik, loyihalash, o'qitish, diagnostik, reflektiv, tadqiqotchilik, o'qitish vositalaridan foy-dalanish, tarbiyaviy, globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish).

foydalana olish).

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan fanga oid kompetensiyalar tizimini talabalarda rivojlantirish muammosi ikki aspektda hal etiladi. Birinchidan, amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga imkon beruvchi kompetentlikka yo'naltirilgan texnologiyalar va integrativ ta'lim muhitining xususiyatlari o'rganiladi. Ikkinchidan, geografik pedagogik ta'limga faol va interfaol texnologiyalarni joriy etish istiqbollari tahlil qilinadi.

Bo'lajak geografiya o'qituvchilarining fanga oid kompetensiyalari mazmun va mohiyatini aniqlash, ularni bloklarga ajratish va tizimlashtirish fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash imkonini berdi. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasini takomillashtirish orqali bo'lajak geografiya o'qituvchilarining fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishning eng maqbul pedagogik shart-sharoitlari sifatida quyidagilar belgilandi: talablarning geografik vositalar bilan ishlash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy ishlar; geografik

qobiqda sodir bo‘ladigan jarayonlar va boshqalar bilan bog‘liq masalalarni yechish va topshiriqlarni bajarish; talabalarda dastlabki metodik (o‘qitish) tajribasini shakllantirishga qaratilgan kvazikasbiy faliyatni tashkil etish.

#### **Birinchi bob yuzasidan xulosalar**

1. Yurtimizda geograf-metodistlar tomonidan o'tgan davr davomida geografiya fanini o'qitish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari va bu ilmiy tadqiqotlar natijasida geografiya fanini o'qitish metodikasi takomillashib, rivojlanib borganligini ko'rish mumkin. Amalga oshirilgan tadqiqot ishlari geografiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalariga bog'langanligi va ularning zamon bilan hamnafas takomillashib borishi geografiya ta'limiga doir tadqiqotlarni jadal davom ettirish hamda erishilgan yutuqlarni keng ommalashtirishni, shuningdek, bo'lajak o'qituvchilar metodik jihatdan yuqori saviyada tayyorlash juda muhim ekanligini ko'rsatmoqda.
  2. Geografiya fanini o'qitishga oid bir qator muammolarning yechimi sifatida tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni o'qitish metodikasini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirishni e'tirof etish mumkin. Umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitishda pedagogik-psixologik qonuniyatlardan chetga chiqmagan holda talabalarda tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.
  3. Tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning pedagogik, metodik jihatlarining tahlili geografiya ta'limi mazmuni hamda bakalavrлarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarga tayangan holda ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilashga asos bo'ladi.
  4. Tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish shakllari ajratildi, ularni amaliyotga joriy etish yo'nalishlari belgilandi. Bu kabi amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish shakllarining ta'lim tizimidagi o'mni va ahamiyati ko'rsatib o'tildi va ilmiy boyitildi.
  5. Litosfera, gidrosfera va atmosferada sodir bo'layotgan tabiiy geografik jarayonlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish xususiyatlari asoslandi.

6. Tabiiy geografiya kurslaridan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasini takomillashtirish orqali bo'lajak geografiya o'qituvchilarining fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishning tashkiliy-pedagoik shart-sharoitlari (tabiiy geografiya kurslari mazmunini boyitish, fanlararo aloqadorlikni ta'minlash, ta'lim texnologiyalari va metodik vositalardan majmuaviy foydalanish) va didaktik imkoniyatlari (umumkasbiy va ixtisoslik fanlar integratsiyasini ta'minlash, o'qitishning faol va interfal shakllarini joriy etish, individual ta'lim)ni takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari kompetentli, integrativ va faoliyatiy yondashuvlar asosida talqin etildi va aniqlashtirildi.

7. Tabiiy geografiya kurslaridan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasini takomillashtirish bo'lajak geografiya o'qituvchilarida rivojlantiriladigan fanga oid kompetensiyalar tizimi uch blokka ajratish mumkin: 1) geografik faoliyat kompetensiyalari (nazariy, metodologik, tushunchaviy-terminologik, faktologik, toponomik, kartografik, kasbiy yani tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni aniqlash, tushunish va tushuntirish, geografik obyektlar, joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish); 2) o'lkashunoslik kompetensiyalari (joydagi predmetlarga qarab ufq tomonlarini aniqlash, geografik kenglik va uzunliklarni aniqlash, tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat); 3) metodik kompetensiyalar (gnoseologik, loyihalash, o'qitish, diagnostik, reflektiv, tadqiqotchilik, o'qitish vositalaridan foydalananish, tarbiyaviy, globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish).

## **II-BOB. TABIIY GEOGRAFIYA KURSLARINI O'QITISHDA AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI**

## **2.1-§.Tabiiy geografiya kurslaridan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasini loyihalash va qo'llashning metodik fizimi**

Mamlakatimiz hayotining ijtimioiy-iqtisodiy, madaniy sohalarida o'zgarnishlar, shuningdek ta'lif tizimidagi keng ko'lamli islohatlar o'qitish ta'lif jarayoniga jahon tajribalarini qo'llash va ularni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu esa o'qitishning yangi shakl va usullaridan dars jarayonida foydalanishga va ularni takomillashtirishga sabab bo'lmoqda. Hozirgi vaqtida pedagogik adabiyotlar va ilmiytadqiqot ishlarida texnologik yondashuv, ta'lifni texnologiyalashtirish, texnologiya, ishlab chiqarish texnologiyasi, ta'lif texnologiyasi (TT), o'qitish texnologiyasi (O'T), pedagogik texnologiya (PT), pedagogik tizim (PT), o'qitish metodikasi (O'M), fan metodikasi (FM), konsepsiya (g'oya), shaxsga yo'naltirilgan ta'lif, tizimli yondashuv, faoliyatli yondashuv, suhbatli yondashuv, muammoli ta'lif, hamkorlikdagi ta'lif kabi tushunchalar keng qo'llanilmoqda.

O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy hayotidagi ta'lif sohasidagi chuqur islohotlar o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish metodologiyasi va texnologiyasini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Ummumta'lif, tabiiy-ilmiy, umumkasbiy va ijtimoiy fanlar tarkibi va hajmining uzlusiz ravishda o'zgarishi, modulli o'qitish usuliga o'tish, geografik ta'limida kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash pedagogika oliv ta'lif muassasalari rahbarlari va o'qituvchilaridan pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirishni talab qilmoqda.

Pedagogik jarayon:

Pedagogik jarayonga innovatsiyani tadbiq etish ta'lim va tarbiya maqsadi, mazmuni, metodlari va shakllari, o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishga yangiliklar kiritishni bildiradi. Keyingi o'n yilliklarda respublikamiz ta'limi uchun, shuningdek pedagogik innovatsion jarayonlarga kirishishni istagan o'qituvchilar uchun pedagogik texnologiyalar va pedagogik innovatsiyalarni loyi-halash sekin-asta meyorga aylanmoqda. Biroq maxsus adabiyotlar, ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini va pedagogika oliy ta'lim muassasalarini o'zlashtirishni talab qilmoqda.

faoliyati tajribalarini tahlil qilish ko'rsatadiki, tabiiy geografiya kurslaridan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishshda pedagogik yangiliklar yetarli darajada faol va intensiv ravishda qo'llanilmaydi. Pedagogik yangiliklarning pedagogika oliy ta'lim muassasalari muassasalari faoliyati amaliyotida yetarli darajada qo'llanilmasligining asosiy sabablaridan biri – ularning amalda tatbiq etilishiga tashkiliy jihatdan ham, texnik jihatdan ham, pedagogik jihatdan ham (shaxsiy munosabatda ham) avvaldan yaxshilab tayyorgarlik ko'rilmasligidadir.

Pedagogik oliv ta'lim muassasalarida tabiiy geografiya kurslaridan dars beradigan o'qituvchilar tabiiy geografiya kurslaridan talabalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etishda faqat o'zilaridagi mavjud bilim va tajibaga tayanishning o'zigina yetarli emas, bunda ularga pedagogik ijodkorlik zarur bo'ladi.

Fan-texnika taraqqiyoti texnologiyani fan sifatida o'rganishni, keyinchalik esa o'quv jarayonini ham texnologyalashtirishga olib keldi. Ta'lif-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalarni davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari shu faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda. Huddi shu kabi ta'lif-tarbiya sohasida ham so'ngi yillarda pedagogik texnologiyaga amal qila boshladi [61; 17-b.].

Pedagogik ijodkorlik mavjud o'qitish shakllari, metodlari, texnologiyalari va vositalarini takomillashtirish yoki ularning yangilarini yaratishda namoyon bo'ladi. Buning uchun pedagogik loyihalash nazarivasi va texnolgiya katta imkoniyatlar eshigini ochadi.

Pedagogik loyihalash texnologiyasi deganda talabalar va o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladigan ta'lim faoliyatining asosiy elementlari tafsilotlarini avvaldan ishlab chiqish tushiniladi. U talabalar va o'qituvchilarning ta'lim-pedagogik faoliyatini samarali tashkil etish mexanizmini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lib, amaliyot o'qituvchisining bir xil tarzdagи ishlari sonini kamaytiradi va ijodkorligi uchun katta imkoniyat yaratadi.

Pedagogik loyihalash pedagogik muammolarni yechishga ilmiy-asoslangan yondashuvlarni belgilab beradi va bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi: modellashtirish, loyihalash va konstruksiyalash, tadbiq etish.

Pedagogika oliy ta'lif muasasalarining 5110500-“Geografiya o'qitish metodikasi” ta'lif yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak geografiya o'qituvchilarining fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida tabiiy geografiya kurslari (“Umumiy yer bilimi”, “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi”, “O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi”, “O'zbekiston tabiiy geografiyasi”), “Geografiyadan masala va mashqlar” nomli o'quv qo'llanma, o'quv-uslubiy majmua, “Amaliy mashg'ulotlarning modul dasturi” tayanib nazariy va amaliy bilim olishlari uchun asosiy va tayanch tushunchalar, amaliy ishlari bajarishlari uchun esa geografik mashiqlar va topshiriqlarning bir qancha namunalari ishlab chiqiladi. Geografik mashiqlar va topshiriqlarning variantlari DTS talablariga va tabiiy geografiya kurslari dasturi mazmuniga mos ravishda tuzilgan bo'lib, u orqali talabalar nafaqat tabiiy geografiya kurslari bo'yicha amaliy topshiriqlarni loyihalash qobiliyatini, shu jumladan, loyihalash-konstrukturlik ishlarni shakllantirish va bajarishni avtomatlashtirish sohasi bo'yicha kasbiy-pedagogik tayyorgarligi va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladilar.

Pedagogika oliy ta'lif muasasalarining 5110500-“Geografiya o'qitish metodikasi” ta'lif yo'nalishida hozirgi sharoitda joriy etilgan pedagogik tizimni tahlil qilish bizga o'quv faoliyati subyektini shakllantirish muammolarini aniqlash imkonini berdi. Ta'lifning yangi paradigmasi talablaridan kelib chiqqan holda, ta'lif sifatini yangicha nuqtai nazardan tushuninsh, talqin qilish bo'lajak geografiya o'qituvchilarining fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasini loyihalash asosida takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi. Buning uchun esa, eng yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish lozim. Ulardan biri yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kurslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasini loyihalash va uning qo'llashning metodik tizimini ishlab chiqish zarur bo'ldi.

O'quv jarayonini va pedagoglarning kasbiy faoliyati loyihalash faoliyati mamlakatimiz va xorijiy davlatlarning olimlari tomonidan batafsil o'rganilgan bo'lib ularning natijalari ko'plab maqolalar va tadqiqot ishlarda aks etgan. Jumladan, J. A. Hamidov, L. Golish,

D. Mamatov, M.B.O'rozovalarning fikricha, loyihalash faoliyatining maqsadi faqat atrof-muhitini shuncha tavsiflay oladigan shaxsni emas, balki unda faol ishtirok etadigan, ta'lif jarayonida turli ijtimoiy va ishlab chiqarish masalalarini yechish tajribasini egallagan mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Chunki pedagogik loyihalashga katta e'tibor ham ta'lif muhitining innovatsion o'zgarishlari vositasiga, o'qitish texnologiyalariga e'tibor kabi muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik loyihalash pedagogik muammolarni yechishga ilmiy-asoslangan yondashuvlarni belgilab beradi va bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi: modellashtirish, loyihalash va konstruksiyalash, tadbiq etish.

Pedagogik modellashtirish bizning holatimizda o'qitish texnologiyasining umumiy g'oyasini ishlab chiqishni, modelini yaratishni va uni joriy etishning asosiy yo'llarini ko'rsatishni nazarda tutadi.

Pedagogik loyihalash – yaratilgan modelni takomillashtirish va uni amalda foydalanish darajasiga yetkazishdir.

Pedagogik konstruksiyalash – mashg'ulotni loyihalashning yakuniy bosqichi. Loyihaning asosiy tayanch komponentlari batafsil aniqlanadi, pedagogik jarayon ishtiroklari aniq tanlanadi. Mashg'ulotlarni pedagogik loyihalash ko'nikmasini shakllantirish kasb ta'limi o'qituvchisini tayyorlashda muhim masala hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida pedagogik adabiyotlarda va pedagog-amaliyotchilar kasbiy faoliyati jarayonida “modulli o'qitish”, o'quv-uslubiy majmua”, multimedia texnologiyalari”, ayniqsa, “loyihalash” atamalar tez-tez tilga olinadi. Loyihalash aniq darslar, alohida mavzular, butun o'quv fani yoki kurslar, o'quv mashg'ulotlari yoki o'quv predmetlari majmularini va boshqa pedagogik ishlanmalarni ishlab chiqish bilan uzviy bog'liq.

Ko'plab tadqiqotchi pedagogik olimlaring fikricha, “pedagogik loyihalash” deyilganda talabalar va o'qituvchilar, ishlab chiqarish ta'lifi ustasi tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatining asosiy elementlari tafsilotlarini avvaldan ishlab chiqish tushiniladi.

Pedagogik loyihalash pedagogik obyektlarni, shu jumladan, pedagogik jarayonlarni yaratish imkonini beradi.

Pedagogik loyihalashni qo'llash o'qituvchilar, ishlab chiqarish ta'lifi ustasining bir hil tarzda amalga oshiradigan ishlarni kamaytiradi va uni ancha osonlashtiradi, ijodiy izlanishlarga ko'proq imkon yaratadi.

Pedagogik loyihalash ishlab chiqarish ta'limi ustasi, shuningdek talabalarning samarali faoliyatini ishlab chiqish bilan uzviy bog'liq.

Pedagogik jarayonlarni, texnologiyalar va boshqa obyektlarni batafsil ishlab chiqish yo'li bilan ishlab chiqarish ta'limi ustasi talabalar shaxsini va kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi, turli salbiy omillarning ta'sirini kamaytiradi, zarur psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratadi. Shu bois, u qabul qilingan pedagogik tizim sharoitida shaxsning individual rivojlanishining o'ziga xos loyihasini yaratadi.

Pedagogik loyihalashning barcha obyektlari bir-birlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, pedagogik jarayon muayyan pedagogik tizim doirasida amalga oshiriladi, pedagogik vaziyat esa aniq pedagogik jarayonlar doirasida yuzaga keladi.

Nazariyotchi va amaliyotchi pedagoglarning tadqiqotlarini tahlil qilish natijalari ko'rsatadiki, pedagogik loyihalash kasb ta'limining muhim komponenti bo'lib, ta'lim jarayonini rejalashtirilgan natijaga erishishga yo'naltirishga qaratilgan faol usullar(loyihalashtirish, prognozlashtirish, tahlil, sintez) orqali tashkil etishning nostandart, noan'anaviy uslubidir. Biz loyihalash faoliyatini bo'lajak mutaxassislarda amaliy-kasbiy ko'nikmalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirishga imkon beruvchi innovatsion faoliyatning eng samarali turi sifatida qaraymiz.

O'qituvchi loyihalash faoliyatining rivojlantiruvchi funksiyalari quyidagi asoslangan:

- tasavvurning mahsuldarligiga (bunda bo'lajak texnik-mexaniklar kasbiy kompetentligining amaliy yo'nalanlik komponenti rivojlanishing asosini tashkil etgan faoliyat turlariga bo'lgan qobiliyat rivojlanadi);

- ijodkorlik imkoniyati va erkinligiga(shaxsning kasbiy ahamiyatga ega muhim sifatlari rivojlanadi, u aksiologik komponent tashkil etuvchisi hisoblanadi);

- mantiqiylik va izchilikka (bu tashkilotchilik ko'nikmalar bo'lib, rejalashtirilgan ish hajmini amalga oshirish bo'yicha masalalarni izchil yechish qobiliyatini nazarda tutadi);

- ijtimoiy faoliyini shakllantirishga rag'bat o'yg'otishga(bunda amaliy yo'nalanlik komponentining kommunikativ ko'nimalari shakllanadi, ular shaxslararo munsabatlarni xarakterlaydi);


- mavjud holatni o'zgartirishga qobiliyat hisi bilan bog'liq holda, o'z hayotini emotsional boyitishga (shaxsning har qanday faoliyatga qobiliyati va tayyorligini belgilovchi aksiologik komponent namoyon bo'ladi);

- predmet natija olish imkoniyatiga (barcha komponentlar kompleks tarzda namoyon bo'ladi, gnostik komponent bilimlar sifatida, amaliy yo'nalanlik komponenti, ko'nikmalar sifatida, aksiologik komponent qadriyatlar sifatida).

Pedagogika oliv ta'lim muasasalarining 5110500-“Geografiya o'qitish metodikasi” ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'qitishda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi va uni joriy etishning pedagogik tizimini tahlil qilish, o'rganish, loyihalash o'quv faoliyati subyektining fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish muammolarini aniqlash imkonini berdi. Ta'limning yangi paradigmasi talablaridan kelib chiqqan holda, ta'lim sifatini yangicha nuqtai nazardan tushunish, talqin qilish amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasini takomillashtirish orqali bo'lajak geografiya o'qituvchilarining fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi.

Tabiiy geografiya kurslaridan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasini loyihalash va qo'llashning metodik tizimini ishlab chiqishda quyidagi ishlar amalga oshirildi: amaliy mashg'ulot muhitini shakllantirish maqsadida uning bosqichlari (tashkiliy-tayyorgarlik, tashxislash, mazmuniy faoliyat, baholash), pedagogik shart-sharoitlari, joriy etish tartibini aniqlash (1-rasm); amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasini (o'quv jarayonining texnologik xaritasi), kurslar bo'limlari bo'yicha o'quv jarayonini loyihalash (texnologik xaritalar majmuasi), tabiiy geografiya kurslari va "Geografiyadan masala va mashqlar" o'quv qo'llanmasining mazmuniy-metodik matritsasi (mazmuniy-metodik yo'nalishlari)ni ishlab chiqish, fanlararo aloqadorlik mazmunini aniqlash (2-3 bosqichda), tabiiy geografiya kurslarni o'qitishni meyorlashtirish, optimallashtirish (kurslarning o'quv rejasini va dasturi mazmunini takomillashtirish (ekspertlar uchun baholash jadvali, kasbiy vazifalarning takrorlanishi, muhimligi va murakkabligiga ko'ra aniqlash matritsasini ishlab chiqish), loyihani pedagogik ekspertdan o'tkazish, tashxislash, taqrizlar olish (takomillashtirilgan pedagogik loyihani ishlab chiqish).

Loyihalangan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi va uni qo'llashning metodik tizimini joriy etishda talabalarning dastlabki geografik bilimi va ko'nikmalari, fanga oid kompetensiyalarini test, savol-javob, suhbat, geografik kasbiy masalalar, amaliy topshiriqlar orqali baholandi va tahlil qilindi.



**1-rasm. Tabiiy geografiya kurslaridan amaliy mashg'ulotni tashkil etish texnologiyasini loyihalash va qo'llashning metodik tizimi**

Tahlil natijasida amaliy mashg'ulotlarni ta'limini tashkil etishning metodik ta'minoti mazmuni takomillashtirildi (o'quv-meyoriy hujjatlar, o'quv qo'llanma, metodlik tavsiyalar, tabiiy geografiya kurslari bo'yicha EO'MM, xaritalar va jihozlar, metodik ko'rsatmalar, mustaqil topshiriqlar, pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodlari, amaliy didaktik topshiriqlar, kompyuterda bajariladigan vizuallashtirilgan mashqlar tizimi). Yuqorida keltirib o'tilgan talablarni kompleks tarzda amalda bajarish o'quv jarayoni va uning metodikasi mohiyatini belgilab beradi.

Tabiiy geografiya kurslaridan amaliy mashg'ulotlar jarayonida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda maktab va professional ta'lim muassasalaridagi kasbiy faoliyatlarining o'ziga xosligi e'tiborga olinib, amaliy mashg'ulotlar jarayonida geografik vositalar va jihozlari (geografik, topografik xaritalar, planlar, atlaslar va yozuvsiz xaritalar, globuslar, tarqatma materiallar, proyektor va elektron doska)dan faoliyat obyekti sifatida foydalanish ta'limda samarali natijalarga erishishga imkon beradi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarining 5110500-“Geografiya o'qitish metodikasi” ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak geografiya o'qituvchilarining fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasini loyihashning umumiy shaklini keltirib o'tamiz (4 va 5-jadval)

#### 4-jadval

#### Tabiiy geografiya kurslaridan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi loyihi

Loyihaning maqsadi (u nima uchun bajariladi)	Muammoni hal etish usullari va vositalarini ishlab chiqish
Natija	Reja, strategiya, harakatlar dasturi va boshqalar
Ko'zda tutilgan foydalanuvchilar	Mutaxassislar, talabalar (qo'shimcha o'quv axborot, keys), o'qituvchilar (amaliy bilimlar uchun o'quv materiali)
Loyiha doiralari	Ta'lim jarayoni
Yakuniy natijani baholash	O'z-o'zini baholash, guruhlar tomonidan o'zaro baholash, mahsulotdan foydalanuvchilar - mansatdor shaxslar va tuzilma (buyurtmachi) larning bahosi, o'qituvchining bahosi
	Ishlab chiqish texnologiyasi

	I.Tayyorlov bosqichi
1.1. Loyihaviy faoliyat natijalariga muayyan ehtiyojni aniqlash.	Muammoning qo'yilishi.
1.2. Loyiha maqsadini aniqlash.	1.3. Muammoli vaziyatning loyiha oldi tahlili.
1.4. Muammoni hal etish vazifalarini belgilash.	1.5. Loyiha maqsadiga erishish usullari va vositalarini tanlash.
1.6. Amaliyot natijasini taqdim etish shakllarini tanlash.	II. Bajarish bosqichi
2.2. Amaliyot natijasini rasmiylashtirilishi. Uni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.	2.1.Loyihaning bajarilishi.
2.3.Taqdimotga tayyorlash.	III. Yakuniy bosqich
3.1. Loyiha taqdimoti va himoyasi.	3.2. Natijani baholash.
O'qitishning ahamiyati	Tabiiy geografiya fanlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirish va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirish hamda amaliyotda foydalanish, amaliy tayyorgarlikni shakllantirish va rivojlantirish

### 5-jadval Amaliy mashulotlarni tashkil etish texnologiyasini loyihashning universal texnologik xaritasi

Ta'lif shakli. Ish bosqichi	Faoliyat	
	o'qituvchi	talabalar
1.O'quv mashg'ulotiga kirish	Auditoriya ishi: tayyorgarlik bosqichi  Amaliy mashg'ulot mavzusi va maqsadini aytadi, talabalarning prognoz qilinadigan o'quv yutuqlari ro'yxatini ma'lum qiladi, amaliy mashg'ulotidagi ish tartibi va xususiyatlari, o'quv natijalarini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi	
2. Asosiy bosqich	Loyiha faoliyati mazmuni va uning bo'lg'usi geografiya o'qituvchisining fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar bilan tanishtiradi. Talabalarning loyiha mavzusi bo'yicha bilimlarini dolzarblashtiradi; blits-so'rovnomma o'tkazadi yoki o'qitishning savol-javobli shaklni, muammoli, modulli o'qitish usulini qo'llaydi. Mavzularni taklif qiladi, loyihalari mazmunini tushuntirib beradi, ularni qo'llash doiralarini ifodalaydi, ishlarning turlarini aytadi, ularning natijalarini ma'lum qiladi. Guruhlarga birlashish va loyiha mavzusini tanlashni taklif qiladi	Guruhlarga birlashishadi. Mavzuni tanlash haqida umumiy qarorni muhokama etishadi va qabul qilishadi

	Evristik suhbat orqali muammoni o'rtaga qo'yadi: muammoli vaziyatni bayon qiladi va talabalarni ziddi-yatlarni aniqlash hamda ularni hal qilish zarurligini bilishga, muammoni va loyiha mavzusini ifodalashga undaydigan savollar qo'yadi Talabalarning loyiha maqsadi va uning vazifalarini ifodalashi bo'yicha munozara yoki aqliy hujum uysushtiradi.	
	Uning kutiladigan natijasi -mahsulot va uning taxminiy foydalanuvchilarini ifodalaydi talabalarga ifodalashni taklif qiladi).	
	Loyiha topshirig'ini qo'yadi. Talabalarning uning bilan tanishishi va tushunishini uysushtiradi. Axborot manbalari, uni yig'ish va tahlil etish usullarini tavsija qiladi. Loyiha faoliyati natijalarini va umuman jarayonni baholash rusumlari va mezonlari bilan tanishtiradi. Talabalarning loyiha ustida ishlash shaklini tanlashini tashkil qiladi. Loyiha guruhlari shakllantirishini uysushtiradi	
	Guruh ishi uchun topshiriq beradi, guruhdada ishlash qoidalarini eslatadi: - loyihadagi vazifalar va faoliyat turlarini ajratish, ularni qatnashchilar o'rtaida taqsimlash (guruhli loyiha); - loyiha faoliyati algoritmini ishlab chiqish; - loyiha vazifalarini bajarish, uning natijalarini ifodalash va taqdimot usullari va vositalarini tanlash; - ishechi rejasini tuzish	
3. Yakunlovchi-baholash bosqichi	Loyiha topshirig'i ustidagi ishning asosiy natijalarini belgilash va loyiha faoliyatini rejaleshtirish bo'yicha xulosa chiqaradi. Talabalar e'uborini loyiha ishlari mazmuniga va loyihaning ijro bosqichida ularni bajarish grafigiga qaratadi.  Savollarga javob beradi	Savollarga javob berishadi

Dala sharoitidagi ish: ijro bosqichi		
Loyihaning bajarilishi. 2. Natijalarning ifodalanishi. 3. Hisobot tuzilishi. 4. Taqdimot tayyorlanishi	Maslahat beradi, guruhlar ishini muvofiqlashtiradi, ular faoliyatini rag'batlantiradi, kuzatadi, axborot manbalarini izlashda yordam beradi, o'zi axborot manbai bo'ladi, loyiha ishlari monitoringi va nazoratini amalga oshiradi	Individual vazifalarga binoan ishlarni bajarishadi. Faol va mustaqil ishlashadi, har kim o'z vazifasiga muvofiq va birgalikda: -turli manbalardan axborot yig'ishadi, tahlil etishadi va umumlashtirishadi; -tadqiqotlar o'tkazishadi, hisob-kitoblarni bajarishadi; -zaruratga qarab maslahatlashishadi; - oraliq natijalarni muhokama qilishadi; Hamma olingen natijalarning umumiyligi yig'ilishi va muhokamasini o'tkazishadi. Loyiha mahsulotini ifodalashadi. Hisobot tuzishadi. Loyihadagi yutuqlarning o'zini-o'zi baholash anketalarini to'ldirishadi. Loyiha ishi natijalari taqdimotini rasmiylashtirishadi
Laboratoriya sharoitidagi ish: yakunlovchi bosqich		
Amaliy mashg'ulotga kirish	Loyihalar taqdimotiga ko'rsatma beradi; guruhlarning bajarilgan loyihalarni taqdim etishi reglamenti va izchilligini belgilaydi. Baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini eslatadi. O'zaro baholash jadvallarini tarqatadi	
2. Asosiy bosqich	Taqdimot boshanishini e'lon qiladi. Har bir guruh taqdimoti yakunlari bo'yicha: - mazmuni bo'yicha aniqlovchi savollar va har bir qatnashching roli haqida aniq maqsadga qaratilgan savollar beradi; - kursoshlar savollariga javoblar vaqtida quvvatlaydi va rag'batlantiradi Talabalar bilan birga loyiha ustidagi ish jarayoni va yakunlarini muhokama qiladi, notiqlarni rag'batlantiradi, o'z mulohazalarini nazokat bilan bildiradi, agar zarur bo'lsa, ayrim talabalarining yutuqlari va xatolari haqida o'z fikrini individual bildiradi	Guruhlar o'z ishi natijalari haqida ma'ruza qiladi va ularni belgilangan shaklda taqdim etadi. Savollarga javob berishadi

3. Yakunlovchi-baholash bosqichi	Loyiha faoliyatining asosiy natijalarini aniqlash bo'yicha xulosa chiqaradi. Bajarilgan ishning bo'lg'usi professional faoliyat uchun muhimligiga e'tiborni qaratadi. Guruhlar faoliyati, loyiha topshirig'i ustidagi individual ish natijalariga baho beradi. O'zaro baholashga yakun yasaydi. Loyiha va loyihali ta'l'm maqsadiga erishish darajasini tahlil etadi va baholaydi. Savollarga javob beradi.	Natijalar, jarayon, o'zining undagi ishtirokini boshqalar baholarini hisobga olib o'zi baholaydi
----------------------------------	---	--

Pedagogik loyihalashning umumiyligi algoritmini kuyidagicha ifodalash mumkin.

1 Tayyorgarlik ishlari. Loyiha obyektini tahlil qilish. Pedagogik loyihalash obyekti tahlili. Eng avvalo, pedagogik loyihalash obyektini, obyekt tuzilmasi va uning elementlarini, ularning holatini, ular o'rta-sidagi o'zaro bog'liqliklarni aniqlash tavsija etiladi. Tahlil jarayonida uning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashning, uning ijtimoiy va davlat hamda shaxsiy talablar nuqtai nazaridan obyektning kam-chiliklarini, shuningdek obyekt komponentlari o'rta-sidagi, unga bo'lgan talablar va uning holati o'rta-sidagi ziddiyatlarni aniqlash lozim bo'ladi.

Pedagogik loyihalash shaklini tanlash. Loyihalash shaklini tanlash pedagogik loyihalash obyekti loyihalashning qaysi bosqichida ishlab chiqilishiga va loyihalash necha bosqichdan iborat ekaniga bog'liq.

Loyihalashning nazariy ta'minoti. Pedagogik obyektning har qanday loyihasi mavjud loyihalar asosida ishlab chiqiladi, shu bois boshqa sharoitlardagi bunday obyektlar faoliyati tajribasi haqidagi ma'lumotlar, pedagogik tadqiqotlar nazariy va empirik ma'lumotlari va umuman, optimal pedagogik loyihami ishlab chiqishga imkon beruvchi boshqa har qanday ma'lumotlar foydadan xoli bo'lmaydi.

Loyihalashning metodik ta'minoti. Bu bosqich didaktik va metodik materiallarni yaratishni, pedagogik obyekt va pedagogik loyihami samarali joriy etishga yordam beradigan boshqa materiallar mazmunini tahlil etishni nazarda tutadi.

Loyihalash muhiti va vaqt. Har qanday pedagogik loyiha muayyan

muhit va vaqt doirasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Muhit ta'minoti ishlab chiqilgan loyihani joriy etish uchun mos joy va xonani tanlashni nazarda tutadi. Vaqt ta'minoti – bu loyiha amalga oshirish uchun uning hajmi, joriy etish sur'ati bo'yicha, maromi, izchilligi bo'yicha vaqt ajratish, bu esa pedagogik va o'quv faoliyatini oqilona amalga oshirishni nazarda tutadi.

Loyihalashning moddiy-texnik ta'minoti. Bu bosqich loyihalash bo'yicha faoliyatni amalga oshirish va keyin ishlab chiqilgan pedagogik loyihani muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirish uchun tashkiliy va pedagogik texnikani ta'minlashni nazarda tutadi.


Loyihalashning huquqiy asoslari va ta'minoti. Bu bosqich pedagogik tizimlar, jarayonlar yoki vaziyatlar doirasida amalga oshiriladigan talabalar va o'qituvchilar faoliyatini ishlab chiqishtashkil etishning huquqiy asoslarini yaratish yoki hisobga olishdan iborat.

2. Loyihani ishlab chiqish. Tizim hosil qiluvchi omilni tanlash. Har qanday tizimning belgisi tizim hosil qiluvchi omilning mavjudligi hisoblanadi, u orqali qolgan barcha komponentlar aniqlanadi. Bu omil boshqa barcha komponentlarni yaxlitlikda birlashtirish, ularni maqsadli tanlash va shakllantirish uchun asoslar yaratadi. Pedagogik tizim uchun, odatda, ayni pedagogik obyektning vazifasini va talabalar shaxsida shakllantiriladigavn sifatlarni belgilab beruvchi maqsad komponenti tizim hosil qiluvchi hisoblanadi. Tizim hosil qiluvchi komponentning funksiyasini boshqa komponentlar ham bajarishi mumkin, biroq ular maqsad bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozimligini yoddan chiqarmaslik lozim.

Komponentlarning o'zaro aloqasi va bog'liqligini aniqlash. Tizim komponentlari o'rtasida turli o'zaro aloqlar va bog'liqliklar mavjud, shu bois ayni tadbir pedagogik loyihalashda asosiy tadbirlardan biri hisoblanadi.

Hujjatlarni tuzish. Pedagogik loyihalashning avval mavjud bo'lgan shakllaridan foydalanish mumkin. Bunda avval yaratilgan loyihalash shakli va mazmuniga asoslanib pedagogik obyektlar loyihalanadi. Ammo zarur hollarda loyihaning mohiyatini yaxshi aks ettiruvchi yangi hujjatlar yaratilishi mumkin.

O'qitish texnologiyasi bir-biriga bog'liq "Kirish", "Asosiy" va "Yakuniy" bosqichlardan iborat pedagogik tizimdan iborat (2-rasmga



2-rasm. O'qitish texnologiyasi

I. *Kirish bosqichi*. Ushbu bosqich ham bir-biriga bog'liq tashkiliy-boshlang'ich, maqsad va vazifalarni belgilash, tayanch bilimlarni faollashtirish komponentlardan iborat.

Tashkiliy-boshlang'ich komponenti. Bunda o'qituvchi talabalar bilan salomlashib, guruh davomatini aniqlaydi. O'qituvchi talabalarning darsga tayyorgarligini tekshirib ko'radi.

Maqsad va vazifalarni belgilash komponenti. Talabalar mashg'ulot-mavzusi, maqsadi, ishning vazifalari va baholash usullari bilan tanish-

tiriladi. Vazifalar aniqlashtiriladi ya o‘quv faoliyati holati yaratiladi.

Tayanch bilimlarni faollashtirish komponenti. Talabalarning o'tilgan mavzular bo'yicha nazariy bilimlari test orqali baholaniladi.

II. Asosiy bosqich: o'zaro bog'liq bo'lgan 1) yangi materialni o'rGANISH, 2) o'rGANILGAN O'QUV materialini mustahkamlash kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

1. Yangi materialni o‘rganish. Yangi mavzuni o‘rganishning mantiqiy tuzilishi sxemasi bo‘yicha o‘rganiladigan o‘quv materialning asosiy unsurlari yuzasidan talabalarga tushuncha beriladi.

Yangi o'quv materiali kichik o'quv guruhlarida topshiriq savollari orqali o'rganiladi. Talabalarga bir-birlarini o'qitish bo'yicha yo'l-yo'rqliar taqdim etiladi. Talabalar kichik o'quv guruhlarida ish olib boradilar.

Bunda talabalarning bunda laboratoriya jihozlarnining vazifalari, tuzilishi, ularni ishga tayyorlash, ishga tushirish, xizmat ko'rsatish, saqlash va boshqalar haqidagi) nazariy bilimlarni qanchalik darajada o'zlashtirgani o'rganiladi. Shu bilan birga, ularning matnlar, materiallar (adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar) bilan ishslash ko'nimalari ham aniqlanadi.

Talabalar o'quv materialini mustaqil o'zlashtirishlari jarayonida o'qituvchi asosiy savollar, geografik atamalarni izohlab, qo'shimcha ma'lumotlar beradi. Talabalarning o'qituvchi bilan surʼati.

Talaba geografik topshiriq savoli bo'yicha dastlab yangi mavzular bilan mustaqil tanishib, uni o'rganadi, so'ngra uni guruh a'zolari bilan savol-javob qilish orqali o'rganadi. Undan keyin esa barcha guruhlardan oldida o'z bilimini namoyish etadi, ya'ni talaba "o'qituvchi" vazifasini bajaradi. Bu paytda esa, uning so'zini boshqa talabalar tinglaydilar, kuzatadilar, tahlil qildilar. "Dars"dan so'ng "o'qituvchi"ning ta'lim berish faoliyati baholanadi.

2. O'quv materialini mustahkamlash. O'rganilgan nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun o'qituvchi tomonidan individual amaliy topshiriqni bajarish faoliyati tashkil etiladi. Individual amaliy topshiriqni bajarish faoliyatining vazifalari, amaliy topshiriqlar mazmuni, ish o'rnlari va ularda amalga oshiriladigan ishlarni bajarish tartibi ya yo'llari tushuntiriladi.

Ayrim hollarda ishlar bajarib ko'rsatiladi. Shu bilan birga, texnika xavfsizligi qoidalari va mashg'ulot jarayonida ularga riova etish

bo'yicha yo'riqnomalar beriladi. Talabalar ish o'rirlarida laboratoriya jihozlarning tuzilishini takror o'rganadilar; laboratoriya jihozlarning texnik holatini tekshirish; ishchi qismlarini ajratish va joylashtirish; bajarilgan ish yuzasidan hisobot tayyorlash bo'yicha ma'lumotlar beriladi.

O'qituvchi mashg'ulot mobaynida talabalar tomonidan ishlarning to'g'ri bajarilishi, joriy yo'riqnomalarga amal qilishlari, asboblardan to'g'ri foydalanish, rostlashlarni to'g'ri bajarishlarini izchil kuzatib boradi, yo'l qo'yilgan xatolarni ko'rsatadi, talabalarning savollariga javob beradi. Shu bilan birga, qiyin o'zlashtirayotganlarga alohida e'tibor beradi, ularni yaxshi va tez ishlashga yo'naltiradi. Yaxshi bajarilgan ishlarni boshqalarga namuna qilib ko'rsatadi.

Aksincha, ishlarni bajarishda texnologik ketma-ketlik yoki texnika xavfsizligi buzilsa, mashg'ulot to'xtatiladi. O'quv guruhlariga yo'il qo'yilgan xatolik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligi tushuntirib beriladi. Mashg'ulot tugashidan yarim soat oldin o'qituvchi va amaliyot o'qituvchisi tomonidan o'quv-ish o'rinalarda talabalarning bilim va ko'nixmalari aniq va qisqa savollar orqali tekshiriladi.

Mashg'ulot oxirida o'quv joylarini talabalar tartibga keltiradilar. O'qituvchi yordamchilar bilan nazorat qilib turadi. O'quv joylari va asboblar kichik guruh yetakchilari tomonidan qabul qilib olinadi.

III. Yakuniy bosqich. O'quv guruhida shaxsiy kuzatishlar va amaliyot o'qituvchisining mulohazalari asosida mashg'ulot tahlili o'tkaziladi. Talabalarning amaliy topshiriqlarni bajarish sifati va mashg'ulot vaqtidagi uyushqoqligi guruhlar ishini baholash uchun mezon hisoblanadi.

O'qituvchi talabalarning ish jarayonida aniqlangan umumiyligi va alohida kamchiliklariga e'tibor qaratadi va keyingi mashg'ulotlarda ushbu xatolarni takrorlamasliklarini uqtiradi.

Geografik kasbiy masalalarini yechish variantlari bir qancha bo'lish mumkin (tabiat hodisalarining texnik modellarini yaratish, labortatoriya moslamalari, obyektlari, jihozlarini yechib olish, sozlash, o'rnatish, ishlatish, kichik detallar tayyorlashning sodda va murakkab variantlari). Bu darajada talabada amaliy muammoni qo'yish, ifodalash va hal etish ko'nixmalari namoyon bo'ladi (6-jadval).

6-jadval

**Talabalarda fanga oid bilimlarning rivojlanganligi darajalari**

Darajalar	Fanga oid bilimlarning rivojlanganligi darajasini ifodalovchi xususiyatlar
Qoniqarsiz	Talaba fanga oid kompetensiyalarni egallamagan. Tabiiy geografiya kurslari bo'yicha bilimi va tayyorgarligi ancha past. Tabiiy geografiya bo'yicha bilimi va tayyorgarligi ancha past. Tabiiy geografiya kurslari bo'yicha qisman shakllangan. Talaba geografik nomlar, ularning to'g'ri talaffuzi, obyektlarning xaritada joylashishi to'g'risida zaif yoki o'tacha bilim ko'rsatadi, ma'lum toponim bilimlarga ega bo'ladi, nazary pozitsiyalarni, jarayonlarni, hodisalarni konkretlashtirishda, obyektlarni tasvirlash, solishtirishda toponimlardan kam foydalanadi. Geografik obyektlarni devor xaritasida aks etirish texnikasini egallaganligini ko'rsatadi.
Qoniqarli	Fanga oid kompetensiyalarni shakllangan, ammo amalda o'qituvchining yordamisiz qo'llay olmaydi. Talaba geografik nomlar, ularning to'g'ri talaffuzi, obyektlarning xaritada joylashishini yaxshi bilishini namoyish etadi, geografik bilimlarga ega, nazary qoidalarni, tabiat jarayonlarini, hodisalarni konkretlashtirishda, obyektlarni tasvirlashda, ularni taqqoslashda toponimlardan foydalanadi. Geografik obyektlarni devor xaritasida ko'rsatish usulini egallaganligini ko'rsatadi, atlas va kontur xaritalar bilan ishlashni tashkil qiladi. O'qituvchi metodik o'z ishida foydalanadigan geografik nomenklatura bilimlarni yodlash, takrorlash, nazorat qilish bo'yicha talabalar faoliyatini tashkil etishning faqat usullarini qo'llaydi.
Yaxshi	Fanga oid kompetensiyalari shakllangan, amalda ularni erkin qo'llaydi. Kasbiy bilim va ko'nikmalarni mukammal egallangan, amalda ularni qo'llashda xatolarga yo'q yesti. Talaba geografik nomlar, ularning to'g'ri talaffuzi, obyektlarning xaritadagi joylashuvi haqida mukammal bilimini namoyish etadi, geografik bilimlarga ega, nazary pozitsiyalarni, jarayonlarni, hodisalarni konkretlashtirishda, obyektlarni tasvirlashda, xaritasida ko'rsatish usulini egallaganligini ko'rsatadi, atlas va kontur xaritalar bilan ishlashni tashkil qiladi. Shuningdek, geografik nomenklatura bo'yicha bilimlarni yodlash, ega ekanligini hamda o'quv qurollari (ish kitoblari, darslik, ko'rgazmali, audiovizual va elektron vositalar) bo'yicha malakali bilimga ega ekanligini ko'rsatadi, ammo ba'zi xatorlarga yo'l qo'yadi.
A'lo	Fanga oid kompetensiyalari shakllangan, amalda ularni erkin qo'llaydi. Kasbiy bilim va ko'nikmalarni mukammal egallangan, amalda ularni qo'llashda xatolarga yo'q maydi. Topshiriqlarni belgilangan vaqtida bajaradi. Talaba geografik nomlar, ularning to'g'ri talaffuzi, obyektlarning xaritadagi joylashuvi haqida mukammal bilimini namoyish etadi, geografik bilimlarga ega, nazary pozitsiyalarni, jarayonlarni, hodisalarni konkretlashtirishda, obyektlarni tasvirlashda, ularni taqqoslashda ko'pincha egallaganligini ko'rsatadi, atlas va kontur xaritalar bilan ishlashni tashkil qiladi. Shuningdek, geografik nomenklatura bo'yicha bilimlarni yodlash, takrorlash, nazorat hamda o'quv qurollari (ish kitoblari, darslik, ko'rgazmali, audiovizual va elektron vositalar) bo'yicha malakali bilimga ega ekanligini ko'rsatadi, barcha topshiriqlarni xatosiz bajaradi va savollarga to'g'ri javob beradi.

Umuman, tabiiy gografiya kurslarigan talabalarning dala sharitida laboratoriya sharoitida va o'quv-amaliy sharotida tashkil etiladigan mashg'ulotlari jarayonida amaliy topshiriqlarni bajarishi bo'yicha ko'nikmalarini 5 ballik tizim asosida baholash mumkin.

Agar talaba fanning turli sohalariga oid bilimlardan foydalanib, o'qituvchining yordamisiz amaliy geografik topshiriqni belgilangan muddatda sifatlari va yuqori saviyada bajargan bo'lsa, uning ishi "a'lo" baholanadi. Talaba o'qituvchining yo'naltiruvchi savollari yordamida fanning biror sohasiga oid bilimlardan foydalanib, ishini sifatlari va belgilangan muddatda bajargan bo'lsa, uning ishi "yaxshi" baholanadi.

Agar talaba o'qituvchining yo'naltiruvchi savollari va maslahatlarini yordamida ishini belgilangan muddatdan bir oz kechikib, sifatsizroq bajargan bo'lsa, u holda bu ish "qoniqarli" baholanadi.

Talabalarda kasbiy ko'nikmalarining shakllanganligi darajasini aniqlashning yuqorida qayd etib o'tilgan mezonlari kasb-hunar kollejlariда kasb ta'limi yo'nalishida ta'lim olayotgan bo'lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi va o'qitish metodikasining samaradorligini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

## 2.2-§. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish modeli


Tabiiy geografiya kurslaridan amaliy mashg'ulotlar jarayonida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda maktab va professional ta'lim muassasalaridagi kasbiy faoliyatlarining o'ziga xosligi e'tiborga olinib, amaliy mashg'ulotlar jarayonida geografik vositalar va jihozlari (geografik, topografik xaritalar, planlar, atlaslar va yozuvsiz xaritalar, globuslar, tarqatma materiallar, proyektor va elektron doska)dan faoliyat obyekti sifatida foydalanish proyektor va elektron doska)dan faoliyat obyekti sifatida foydalanish imkon berdi. Tabiiy geografiya ta'lilda samarali natijalarga erishishga imkon berdi. Tabiiy geografiya kurslaridan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasini takomillashtirish orqali bo'lajak geografiya o'qituvchilarining fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga turli konseptual yondashuvlar o'rganilib, tabiiy geografiya kurslarini o'qitishda kompetentli, integrativ va faoliyatli yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarning fanga oid kompetensiyalarini samarali rivojlantirish modelini ishlab chiqish imkoniyati aniqlandi.

Tabiiy geografiya kurslaridan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasini takomillashtirish orqali bo'lajak geografiya o'qituvchilarining fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini loyihalash kompetentli, integrativ, faoliyatli yondashuvlar nuqtai nazaridan amalga oshirildi. Shu bilan birga, tadqiqot mantig'iga asoslanib, fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tizimi aniqlandi. Aniqlangan shart-sharoitlarning birligini hisobga olgan holda, amaliy kasbiy tayyorgarlik sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish metodik tizimi modeli ishlab chiqildi (3-rasm). Bo'lajak geografiya o'qituvchilarining fanga oid kompetensiyalarini kompetentli yondashuv asosida rivojlantirish modeli maqsad (ayni jarayonning maqsad va vazifalari), mazmun (ta'lim oluvchilar o'quv-kasbiy faoliyatining nazariy, metodik va texnologik jarayonlari), jarayon, natijaviy-baholash komponentlaridan tashkil topgan.

Maqsad komponentida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining DTS va malaka talablarida belgilangan nazariy va amaliy geografik ta'lim mazmunining zarur va yetarli hajmini egallagan, amaliyot dasturlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan, tabiiy geografiya kurslarida o'z bilimini chuqurlashtirib, amaliy kasbiy ko'nikmalarni va fanga oid kompetensiyalarini puxta egallagan pedagogik kadrlarni tayyorlash vazifasini amalga oshirish nazarda tutilgan. Maqsad komponentiga tabiiy geografiya kurslaridan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasini takomillashtirish orqali talabalarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadlari iyerarxiyasini aniqlash va belgilash, talabalarni o'qitish dasturini aniqlash maqsadida ularning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish orqali erishiladi.

Mazmun komponenti tabiiy geografiya kurslari bo'yicha talabarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish, kasbiy tayyorgarligi mazmunini tahvil qilish, tabiiy geografiya kurslarini o'zaro bog'liqlikda modullilik tamoyili asosida o'qitish, tabiiy geografiya kurslari mazmunining o'ziga xosligini hisobga olgan holda, amaliy mashg'ulotlar shakllarini tanlash, faol va interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali joriy etiladi. Mazmun komponentida talabalarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlanning o'quv-meyoriy asoslari sifatida ta'limiy talablar va mehnat bozori talablarini integratsiyalash asosida DTSlarini kompetensiyaviy yonda-

shuv asosida takomillashtirish, fanga oid kompetensiyalarini zamonaiy texnologiyalar asosida modernizatsiyalash bosqichlarini, o'quv reja va dasturlarini takomillashtirish ko'zda tutiladi.



**3-rasm. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish jarayonida talabalarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish modeli**

Mazmun komponenti tabiiy geografiya kurslari bo'yicha talabalarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish, kasbiy tayyorgarligi mazmunini tahilil qilish, tabiiy geografiya kurslarini o'zaro bog'liqlikda modullilik tamoyili asosida o'qitish, tabiiy geografiya kurslarini mazmunining o'ziga xosligini hisobga olgan holda, amaliy mashg'ulotlari shakllarini tanlash, faol va interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanishi orqali joriy etiladi. Mazmun komponentida talabalarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlanning o'quv-meyoriy asoslari sifatida ta'limiy talablar va mehnat bozori talablarini integratsiyalash asosida DTSlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, fanga oid kompetensiyalarini zamonaq texnologiyalar asosida modernizatsiyalash bosqichlarini, o'quv reja va dasturlarini takomillashtirish uchun qo'shilish.

Jarayon komponentning tashkil etuvchilari: amaliy tayyorgarlik subyektlari, fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus ta'limgah muhiti (maqsad qo'yish, izlanish, tahlil), pedagogik texnologiyalarni integrativ qo'llash, ta'limgah metodlari, ta'limgah shakllari (nazariy, amaliy, individual), ta'limgah vositalari (mashqlar va amaliy topshiriqlar tizimi). Talabalarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish modeling jarayon komponenti mazmuni o'z ichiga quyidagi larni qamrab oldi: ta'limgah shakllari: tabiat quynida (dala sharoitida), laboratoriya sharoitida o'tkaziladigan va nazariy-amaliy mashg'ulotlar; faol va interfaol texnologiyalar (Case study, Clusters, aqliy hujum, FSMU, modulli ta'limgah va kartografik texnologiyalar); o'qitish vositalari: aerokosmik axborot, interaktiv xaritalar (geografik, meteorologik), globus va xaritalar, topografik xarita va planlar, atlas va yozuvlari, tarqatma materiallari, ETRlari, proyektor va elektron doska, tabiat hodisalari modeli.

Talabalarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishning modelining jarayon komponenti mazmunini o‘z ichiga quyidagi larni qamrab oldi: ta’lim shakllari: tabiat quynidada (dala sharoitida), laboratoriya sharoitida o‘tkaziladigan va nazariy-amaliy mashg‘ulotlar; faol va interfaol texnologiyalar (Case study, Clusters, aqliy hujum, FSMU, modulli ta’lim va kartografik texnologiyalar); o‘qitish vositalari: aerokosmik axborot, interaktiv xaritalar (geografik, meteorologik), globus va xaritalar, topografik xarita va planlar, atlas va yozuvviz xaritalar, tarqatma materiallar, ETRlari, proyektor va elektron doska, tabiat hodisalari modeli.

Natijaviy-baholash komponentida bo‘lajak o‘qituvchilarining fanga oid kompetensiyalarining rivojlanganligi darajasini baholash tashxislash metodlari, sifat va miqdoriy tahlil usullari, korreksion (trening) mashg‘ulotlari yordamida amalga oshirilishi nazarda tutildi. Bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining fanga oid bilimlarining rivojlanganligi darajalari (qoniqarsiz, qoniqarli, yaxshi, a’lo)ni baholashning kognitiv, motivatsion, faoliyatli mezonlari tanlandi. Baholashning kognitiv mezoni talabalarning tabiiy geografiya kurslaridan o‘zlashtirilgan bilimlari darajasini ifodalaydi. Motivatsion mezoni talabalarning tabiiy geografiya kurslariga, kasbiy faoliyatga barqaror qiziqishini xarakterlaydi va fanga oid kompetensiyalarini xususiy qo‘llash sharoitida faollashadi. Baholashning faoliyatli mezoni talabalarning tabiiy geografiya kurslaridan o‘zlashtirigan nazariy, amaliy va metodik bilimlarini amalda qo‘llash qobiliyatini aniqlaydi.

Taklif etilayotgan modelning samaradorligi uning bosqichma-bosqich joriy etilishi bilan ta'minlandi. Shu bois talabalarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishning konseptual modelini bosqichma-bosqich (fanga qiziqishni oshirish, geografik bilimlarini kengaytirish, fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirish) amalga oshirishda tabiiy geografiya kurslarini o'qitishda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyalari taklif etildi. Tabiiy geografiya kurslari amaliy mashg'ulotlarida interfaol texnologiyalardan foydalanish metodikasi chiqildi. “Blits-savol”, “Klaster”, “Vennn diagrammasi”, “FSMU”, “Geografik tavsiFDA xato bormi”, “Ortiqchasini topping”, “Omad kulib boqqanda” kabi o'qitish texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim samaradorligiga erishildi.

Amaliy mashg‘ulot vositalariga globus, xaritalar, atlaslar va yozuvsız xaritalar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar, proyektor hamda elektron doskalarini kiritish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Sababi, bunday vositalar orqali talabalarda globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyatda foydalana olish, ularni o‘qish, ularda tasvirlangan geografik obyektlar, joy nomlarini to‘g‘ri qo‘llay olish kompetensiyalari shakllantiriladi. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish jarayonida turli ko‘rgazmali vositalardan foydalanadi, lekin ular ichida kartografik materiallarning tutgan o‘rni beqiyosdir. Chunki globus, xarita, atlas va yozuvsız xaritalarsiz geografiya darslarini, xusu-

san tabiiy geografiya darslarini tasavvur qilish qiyin. Shu sababli tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda kartografik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Tabiiy geografiya kurslari amaliy mashg‘ulotlarda geografik masala va mashqlardan juda ko‘p foydalaniladi. Misol uchun, ”Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi”, ”O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi”, ”O‘zbekiston tabiiy geografiyasi” kurslariida mavzular asosan quyidagi ketma ketlikda o‘rganiladi.

- hududning geografik o‘rni;
- hududning tektonikasi va relyefi;
- hududning iqlimi;
- hududning ichki suvlari;
- hududning tabiat zonalari (tuprog‘i, o‘simlik olami va hayvonot dunyosi)
- hududni tabiiy geografik rayonlashtirish.

Yuqoridagi mavzulardagi amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda albatta geografik masala va mashqlardan foydalaniladi. Ta’kidlash o‘rinliki tadqiqot ishini olib borish jarayonida oliy ta’lim muassasalarini ”Geografiya o‘qitish metodikasi” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun ”Geografiyadan masala va mashqlar” nomli o‘quv qullanma tayorlanib, nashr ettirildi [16]. Ushbu manbada ham kartografik manbalardan keng foydalanilgan.

Geografik bilimlarni xaritalardan foydalanmasdan o‘rganishni tasavvur etib bo‘lmaydi. Xaritalarda darslikka kiritilmagan ma’lumotlar, diagrammalar, jadvallar, rasmiy landshaftlar berilgan. Xaritalardan foydalanish o‘qitish sifatini va samarasini oshirishning eng yaxshi usullaridan biri hisoblanadi. Bu talabalarning mustaqil ta’lim olish, qo‘llay olish imkoniyatini yaratadi hamda ularning anglash faoliyatini faollashtiradi, ta’lim samaradorligini kuchaytiradi, o‘quv materialini o‘zlashtirish sifatini oshiradi. Darslarda xarita bilan ishlash orqali talabalarda umumiyo‘quv ko‘nikmalari va malakalari shakllantiriladi va bu ko‘nikma hamda malakalarning darajasi ta’limni muvaffaqiyatlidavom ettirish uchun zamin yaratadi.

Xaritalar orqali talabalarga mustaqillik berish, egallangan bilimlar negizida yangi bilimlarni o‘zlashtirishlari uchun qulay sharoitlar yaratish ularda mustaqil fikrga ega bo‘lish, o‘z fikrini to‘la bayon qilib

berish kabi xislatlarni shakllantiriladi. Xarita bilan ishslash orqali talaba darslikdan o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan mavzuni chuqurroq va kengroq tushunadi, o‘zi ko‘rib bajargan ishlari uzoq vaqt xotirasida qoladi, bu esa uning fanga bo‘lgan qiziqishini orttiradi, shuningdek, ko‘plab qo‘shimcha ma’lumotlarga ega bo‘ladi, mavzu yuzasidan egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantiradi [55; 195-b.].

Kartografik materialar yangi mavzuni yanada boyitadi, amaliy mashg‘ulot darsi samaradorligini oshiradi. Bu talabaning xaritaga, fanga bo‘lgan qiziqishini orttiribgina qolmay, o‘z ustida ishlashini, olgan bilimlarini hayotga qo‘llay olishini, yozuvsiz xaritada mustaqil topshiriqlarni bajarish va u orqali bilim olishini, xotirasini mustahkamlashini taminlab, globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish, geografik obyektlar, joy nomlarini to‘g‘ri qo‘llay olish kabi talabanining fanga oid kompetensiyalarini shakllantiriladi.

Amaliy mashg‘ulot shakllari, metodlari va vositalarini inobatga olib, tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg‘ulot topshiriqlarni tuzish va bajarishda foydalaniladigan manba turlarini aniqlash lozim. Shu sababdan amaliy mashg‘ulot jarayonida foydalaniladigan geografik manba turlariga darslik va o‘quv qo‘llanmalar, uslubiy qo‘llanmalar, xarita va atlaslar, ma’ruza matnlari, mavzuga oid profillar, diagrammalar, jadval va chizmalar, xujjatli film va diafilmlar, ayerokosmik suratlar, internet ma’lumoti, davriy matbuot ma’lumotlari, mavzuga oid rasm va ma’lumotlar kiritiladi. Sababi, bu manbalardan foydalanib talabalar mavzuga oid qo‘shimcha va qiziqarli ma’lumotlarni olishadi. Bu esa talabalarning axborotlar bilan ishslash kompetensiyalarini rivojlantirib, o‘quv faoliyatining ilmiyligini va sifatini oshirish imkonini beradi.

Amaliy mashg‘ulot jarayonida alohida e’tibor beriladigan obyektlarga esa tabiat unsurlarini (relyefi, iqlimi, suvlari, tuproq va o‘simlik qoplamasi, hayvonot dunyosi) tavsifi, tabiat komplekslariga (zona, provenсия, okrug, rayon va boshqalar) tavsif, insonning tabiatga ta’siri oqibatida kelib chiqadigan salbiy oqibatlar, tabiat boyliklarining holati va unga ta’sir etuvchi omillar, tabiat boyliklarini muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar, tabiat boyliklarini muhofaza qilishga oid qonunlar va qarorlarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Chunki, amaliy mashg‘ulot jarayonida alohida e’tibor beriladigan obyektlar talabalarda tabiat unsurlaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza

qilish, tabiatga extiyotkorona bo‘lish ko‘nikma va malakalarini hamda talabaning tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kabi kompetentligini rivojlantiradi.

Tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg‘ulot topshiriqlarni tuzish va bajarishda foydalilaniladigan manba turlari aniqlashtirilgandan so‘ng amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishning mazmuni va ketma-ketligini rejalashtirish juda muhim hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi o‘quv faoliyatining tashkilotchisi bo‘lganligi uchun undan har bir dars mashg‘ulotlarining didaktik maqsad va vazifalarni to‘g‘ri anglagan holda kreativ topshiriqlarni tuzish talab etiladi. Agar o‘qituvchi amaliy mashg‘ulotlarning didaktik maqsadidan kelib chiqib, kreativ topshiriqlarni tuzadigan bo‘lsa va mavzuni ilmiy asoslab bersa talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi hamda kreativ topshiriqlarni bajarishga qaratilgan metod, texnologiya va vositalarni qo‘llash esa talabalarning ijodiy va tanqidiy fikirlashlarini rivojlantiradi. Bajarilgan topshiriqlarni umumlashtirish orqali talabalar o‘zi bildirgan mustaqil fikrlarni himoya qilish, boshqa bildirilgan fikrlardan xulosa chiqazish ko‘nikmalari shakllanadi hamda o‘qituvchining umumiyligi qilish va baholashini kuzatish orqali egallagan bilimlarini holis baholash, aqliy qobiliyatilarining darajasini bilish imkoniyatini beradi.

Amaliy mashg‘ulotlarni yuqoridagi ketma-ketlikda to‘g‘ri tashkil etish talabalarda tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni aniqlash, tushunish va tushuntirish, globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish, tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kabi fanga oid kompetensiyalari rivojlantiradi. Natijada ushbu modelni amaliyotga qo‘llash orqali talabalarning tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg‘ulotlarga oid kompetensiyalar takomillashgani isbotlandi.

Talabalarning fanga oid kompetensiyalari quyidagilardan iborat.

**Tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarini kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi:** Geografik biosferada kechadigan tabiiy hodisa hamda jarayonlarning mohiyatini anglash, tushunish va tushuntira olish, tabiiy hodisa va jarayonlarni kundalik hayotda turli asboblar (kompas, termometr, barometr, flyuger ijtimoiy hodisa va jarayonlarning turli o‘lcham va kattaliklarini (harorat,

yog‘in miqdori, aholi soni va hokazolarni) tasvirlovchi grafiklarni tuza olish, yer yuzi tabiatiga fazoviy (tashqi) va sayyoraviy (ichki) omillarning ta’sirini tushunish va tushuntira olish, geografik qobiqning asosiy qonuniyatları — bir butunlik, modda va energiya almashinuvi, ritmiklik, zonallik, azonallik, balandlik mintaqalanishini bilishni nazarda tutadi.

**Geografik obyektlar, joy nomlarini to‘g‘ri qo‘llay olish kompetensiyasi:** O‘zi yashaydigan joy (mahalla, qishloq, tuman, shahar) nomlarini bilish, u yerdagi geografik obyektlarning (tog‘, tekislik, suv havzalari va boshqalarning) nomlanishini og‘zaki va yozma ravishda to‘g‘ri qo‘llay olish, joy nomlarining o‘ziga xos mazmun va tarixiy ahamiyatga ega ekanligini ayta olish, materiklar, qit’alar va okeanlarning o‘rganilish tarixi va uning geografik obyektlar nomlarida aks etganligini ayta olish, tabiiy geografik o‘lkalar, davlatlar, poytaxt va yirik shaharlarning nomlarini ayta olish va to‘g‘ri yoza olishni o‘z ichiga oladi.

**Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi:** Globus, dunyoning yarim sharlari xaritasi, O‘zbekiston tabiiy va siyosiy xaritalaridan geografik obyektlarning joylashgan o‘rnini ko‘rsata olish, O‘zbekistonning tabiiy xaritasidan o‘zi yashaydigan hududni, mamlakatimizdagagi eng baland tog‘lar, tekisliklar, daryolar va boshqa geografik obyektlarni ko‘rsata olish, Globus va geografik xaritalar, o‘quv atlaslari masshtabi, daraja to‘ri (meridian va parallellar) yordamida geografik obyektlarning joylashgan o‘rnini va geografik koordinatalarini hamda o‘lchamlarini aniqlay olish, Xaritalarda qo‘srimcha ma’lumot sifatida berilgan jadval, diagramma va grafiklar bilan ishlay olish, geografik xaritalar yordamida dunyoning mintaqalari, Markaziy Osiyo va O‘zbekistonning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitiga tavsif berish va qiyosiy tahlil qila olish kabilarni nazarda tutadi.

**Tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiyasi:** O‘zi yashaydigan joy tabiat, O‘zbekistondagi tabiat boyliklari, diqqatga sazovor tabiat obyektlari, ularni muhofaza qilish haqida aytib bera olish, tevarak atrofdagi tabiiy muhitni (suv, havo, tuproqni) asrab, ulardan tejamkorlik bilan foydalana olish, mamlakatimizning cho‘l, vodiy-voha, adir, tog‘, yaylov mintaqalarida tabiatni muhofaza qilish haqida bilish va aytib bera olish, tabiatdan

oqilona foydalanish, insonning tabiatga ta'siri, global va mintaqaviy ekologik muammolarning kelib chiqish sabablarini bilish va misollar bilan tushuntira olish, tabiiy resurslarning jamiyat hayotidagi o'rni haqida ayta olish, materiklar, turli mamlakatlar, O'zbekiston Respublikasidagi muhofaza etiladigan hududlar, ularning turlari, hududiy joylashuvi va amaliy ahamiyatini ayta olish va misollar bilan izohlay olish, turli tabiiy resurslarning hududiy tarqalish qonuniyatlari haqida ayta olish va ularni misollar bilan izohlay olish kabilarni o'z ichiga oladi.

Shu o'rinda kompetensiya va kompetentlik tushunchalarga oydinlik kiritish lozim.

Kompetensiya bu — talabalarda mavjud bilim, ko'nikma va malakalarни kundalik faoliyatida qo'llay olish qobiliyati hisoblanadi.

Kompetentlik bu — talabalar nazariyadan egallagan bilim, ko'nikma va malakalaridan samarali foydalanib, kasbiy faoliyatini yuqori darajada tashkil etish orqali kasbiy mahorat va iqtidorini namoyon eta olishidir.

### **2.3-§. Tabiiy geografiya kurslaridan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodikasi**

Ta'limgiz tizimining barcha bosqichlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun, avvalombor bu ta'limgiz muassasalarda dars beradigan pedagoglarning o'zlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida habardor bo'lishi lozim, shu sababli pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'limgiz muassasalarida har bir dars jarayonida, albatta, ulardan foydalangan holda darslarni tashkil etish lozim. Natijada bu dars orqali ikki muhum vazifa bajariladi. Birinchidan, talabalarga berilayotgan ma'lumotlar oson va yodda qolarli bo'lib yoritib beriladi, sababi turli metodlardan foydalanib, talabalarning mustaqil fikrashi, mushohada qilishi orqali egallagan bilimlari uzoq vaqt xotirada saqlanib texnologiyalar haqida habardor bo'lib, kelgusi pedagogik faoliyatlarida ularni qo'llashga oid bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlanishga boradi.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyalardan foydalanishga oid o'quv-uslubiy adabiyotlarning yetishmasligi dars jarayonida ulardan kam foydalanishga olib kelmoqda. Shuningdek, o'qituvchilar orasida pedagogik texnologiya va ta'limgiz metodikasiga bitta tushuncha sifatida

qarash hollari ko'p uchraydi. Natijada, ba'zi o'qituvchilar o'qitish metodikasini o'zgartirib dars olib borsa, go'yoki ular darslarga pedagogik texnologiyalarni qo'llagandek tasavvur uyg'otadi. Aslida esa ular orasida juda katta farq mavjud bo'lib, ular ta'limgiz jarayonida turli maqsadlarni ko'zda tutadi. Shu boisdan quyida pedagogik texnologiya va ta'limgiz metodikasi haqidagi tushuncha va tasavvurlarni boyitish maqsadida ularga to'xtalib o'tishni joiz topdik.

"Pedagogik texnologiya" termini birinchi bor o'tgan asrning 20 yillarida pedagogika bo'yicha asarlarda tilga olingan. Shundan so'ng pedagogik texnologiya o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga qaratilgan uslublar va vositalar sifatida qaralgan. 1980 yillariga kelib pedagogik texnologiyani fan sifatida o'qitila boshlangan. "Pedagogik texnologiya" fan va amaliyot oralig'ida muayyan tamoyillarni olg'a suruvchi metodlar ishlab chiqaruvchi, ularni izchil qo'llash kabi masalalarni hal etishga yo'naltirilgan mustaqil fan" [111; 26-b.]. O'tgan asrning 90 yillariga kelib pedagogik texnologiya fani shakllandi. Bugungi kunda pedagogik texnologiya oliv ta'limgizda fan sifatida o'qitiladi. "Pedagogik texnologiya" amaliy-pedagogik fan sifatida to'la ravishda "Pedagogika"ning poydevoriga tayanadi va pedagogik metodologiyada o'z o'rnini aniq belgilaydi [44; 18-b.].

O'quv adabiyotlarni tahlil qilish natijasida "Pedagogik texnologiya" tushunchasiga tadqiqotchi olimlar turlicha yondashib, turli xil ta'riflar berishganligini ko'rish mumkin.

Pedagogik texnologiya — o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan xolda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir [29; 13-b.].

Pedagogik texnologiya — o'quv jarayoniga texnologik yondashgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlardan kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashtirishdir [93; 6-b.].

Pedagogik texnologiya — o'quvchilar harakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan, aniqlanadigan, maqsadni ifodalaydi [38; 139-b.].

Pedagogik texnologiya — avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartib amallar tizimidir [40; 26-b.].

Burassiyalik olimlarning ta'riflari va qarashlari bir biriga yaqin bo'lib, asosan, bilimlarni amaliyotga joriy qiladigan muayyan pedagogik tizim loyihasi sifatida qarab, oldindan belgilangan darsning maqsadidan kelib

chiqib, asosiy diqqatni o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalash va tashkil etishga qaratadi va puxta bilim egallashlari uchun bajarilishi lozim bo'lgan bir qancha amallarni rejalashtiradi.

Shuningdek, pedagogik texnologiya ta'riflariga sharq va g'arb mamlakatlari olimlari ham ta'rif berishgan. Quyida yaponiyalik pedagog olimni ta'rifini va YUNESKO bergan ta'rifni keltiramiz, sababi YUNESKO bergan ta'rif AQSH va Yevropa mamlakatlari olimlari bergan ta'riflar bilan mos tushadi.

Pedagogik texnologiya – bu majmuali fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda pedagogik jarayonni muayyan bir majmuuga keltirishdir [126; 43-b.].

Pedagogik texnologiya – bu bilim berish va uni egallashda texnika va inson resurslarini o'zaro uzviy bog'liq holda ko'rib, butun ta'lim jarayonini loyihalashda va amalda qo'llash majmuali yondashuv usulidan foydalanishdir [52; 3-b.].

Bu ta'riflardan ko'rinish turibdiki, pedagogik texnologiya ta'lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan holda fanlarni o'qitish va bilimlarini o'zlashtirishda ta'lim jarayoniga bir butun majmua sifatida qarab, unda texnika hamda inson omillaridan birgalikda foydalanishni amaliyotga tadbiq etish metodlarini jamlashni nazarda tutadi.

Shu o'rinda vatanimizning pedagog olimlari tomonidan ham berilgan ta'riflarni keltirib o'tmoqchimiz.

Pedagogik texnologiya – ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy hodisadir [121; 8-b.].

Pedagogik texnologiya – bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba) larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir [104; 7-8-b.].

Pedagogik texnologiya – pedagogik jarayondan ko'zlangan natijaga erishishning shaxs imkoniyatlari va o'qituvchisining innovatsion tayyab [68; 6-b.].

Ishlab chiqarishdagi texnologiyada turli materiallarga ishllov

berib tegishli kasb ustalari tamonidan amalga oshiriladi. Pedagogik texnologiyaning mazmuni esa o'qituvchi yoki tarbiyachi tamonidan talabaga aqliy, ruxiy, ahloqiy jihatdan turli usulda ta'sir o'tkazishdan iborat [56; 8-b.].

Hozirgi kunda ishlab-chiqarish sohasining rivojlanib borishi hamda fan-texnika inqilobidagi jadal o'zgarishlar ta'lim-tarbiya tizimidagi ba'zi muammolarni yuzaga chiqishga olib kelmoqda. Ya'ni an'anaviy ta'lim shaklidagi o'qitishning shakl, metod vosita va usullari jamiyatning bugungi rivojlanish bosqichi uchun xizmat qiladigan mutaxassis kadrlar tayyorlash jarayonida o'zini oqlay olmay qoldi. Natijada, pedagogika sohasida ta'lim oluvchi talabaning individualligi, o'ziga xosligi va extiyojlari doirasidan kelib chiqib o'qitishning noan'anaviy shakllari, ya'ni talabani mustaqil fikr lashga va ijodiy izlanishga undovchi metodlari tizimini yaratish dolzarb masala darajasiga ko'tarilib bormoqda. Bu esa doimo rivojlanishda bo'lgan ta'lim sohasiga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashni talab etmoqda [70; 31-b.].

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rish mumkinki, pedagogik texnologiyaga o'qitishning texnik vositalari va o'qituvchining shaxsiy imkoniyatlariga bog'liq ekanligida qarab, oldindan ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'qitishning intensiv shakllaridan foydalanib, o'quv – tarbiya jarayonini loyihalashtirishni ko'zda tutadi.

Demak, pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonida katta avlod tomonidan ortirilgan bilim va tajribalarni o'sib kelayotgan avlodga o'rgatishning tashkiliy-uslubiy vositalari majmui bo'lib, ta'limning rejashtirilgan maqsadlariga erishish uchun qulay va intinsiv yondashuvlar asosida ta'lim metodlari, usullari, yo'llari, vositalari yig'indisidan foydalanishdir.

Pedagogik texnologiya bilan ta'lim metodikasini bir-biridan farqlash uchun metodika tushunchasining negizi bo'lgan "metod" so'zining lug'aviy ma'nosini va ta'rifini bilishimiz zarur hisoblanadi.

"Metod" so'zi yunoncha "methodos" so'zidan olingan bo'lib "tadqiqot usuli, yo'li" degan ma'nolarni anglatadi [119; 286-b.].

Metod — tabiat va jamiyat hodisalarini bilish, tadqiq qilish usulidir [41; 16-b.].

Demak, metod bu voqelikni amaliy va nazariy egallah, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l-yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli hisoblanadi. Shuning uchun insonlar

hayoti davomida har xil metodlarini o'zlashtirib boradi. Sababi, biror isjni bajarish metodini egallagan kishi shu isjni boshqalarga nisbatan oson, tez va sifatli bajara oladi, aksincha, metodni egallamagan inson esa bu isjni bajarish uchun ko'p vaqt va kuch sarflaydi [45; 663-b.].

"Metodika" grekcha so'z bo'lib tushuntirishning yangi yo'lini topaman, qidiraman, izlayman degan ma'noni anglatadi [79; 8-b., 89; 32-b.].

Metodika – biror isjni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasidir [107; 16-b.].

Metodika – o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish hamda fanlarini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladigan fan tarmog'idir [114; 13-b.].

Ta'limg metodikasi – ta'limg beruvchining ta'limg oluvchilarga doimiy qo'llaydigan, ularning o'z bilimlarini va qobiliyatlarini rivojlantirish hamda bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llash imkonini beruvchi ish uslubidir [122; 43-b., 125; 14-b.].

Ta'limg metodikasining pedagogik texnologiyadan farqini ajratish uchun ta'limg jarayonida har ikkisidan ham samarali foydalanishni bilish lozim. Ta'limg metodikasi doimiy qo'llanilib kelayotgan uslub bo'lganligi uchun o'quvchilarning qiziquvchanliklariga yetarlicha erkinlik bera olmaydi, aksincha, pedagogik texnologiya esa o'quvchilarning qizi-jarayondir. Aytish mumkinki, pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning erkinliklarni zaruratsiz va asossiz cheklanmasligiga xizmat qiladi, ya'ni ularning o'z fikr va mulohazalarini erkin bayon qilish imkonini beradi (xatto uni fikr va mulohazalari noto'g'ri bo'lsa ham), bu esa ularni erkin va mustaqil fikrlashga va fikrlarini amaliyotga qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Pedagogik texnologiya ta'limg metodikasidan tegishli tayyorgarlikka ega bo'lgan hamma mutaxasislar tomonidan qayta tiklanuvchanligi, qo'llash imkoniyatining ko'pligi va natijalarning kafolatlanganligi bilan farq qiladi.

Pedagogik texnologiya ta'limg rivojlantiruvchi tamoyillarga asoslangan bo'lib, komil insonni tarbiyalashi lozim. Bunda pedagogik jarayon markazida ta'limg beruvchi (o'qituvchi) va ta'limg oluvchi (o'quvchi) lar bo'lib, ular o'rtasidagi o'zaro hamkorlik hamda o'zaro muloqat zamonaviy talablarga javob berishi lozim [115; 14-b.].

Buning uchun o'qituvchi eng avvalo ta'limg tarbiya jarayonini

tashkil etishga nisbatan qo'yiluvchi talablar, ta'limgi tashkil etish va boshqarish tamoyillari, yo'llari, o'quvchini aqliy va jismoniy jihatdan rivojlanishiga xizmat qiluvchi usullar u bilan hamkorlik qilish uni o'qish va o'rganishga yo'naltirish, o'quvchi shaxsi faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ular bilan muloqotga kirishish, pedagogik faoliyatini tashkil etish, auditoriyada ijodiy, ishchanlik muhitini tashkil qilish, o'quvchi faoliyatini hosil qilish, o'quv faoliyatini aniq va to'g'ri baholashga imkon beruvchi metodlar bilan qurollangan bo'lishi lozim [116; 42-43-b.].

Ta'limg tizimida qator yillar davomida pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda o'rganilib kelinadi. Natijada o'qitish jarayonini takomillashtirishga yoki o'quv-chi-larning bilim faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan u yoki bu asta-ilg'or metodikalar texnologiyalar darajasiga ko'tarila olmay astasekinlik bilan o'z mavqeini yo'qotib pedagogika fanidan uzoqlashib ketmoqda[105;8-b].

Pedagogik texnologiya o'quv jarayonini demokratlashtirish, kelishuvchanlik asosida tashkil qilishda hamkorlik, ham ijodkorlik rivoj topmoqda. Bular talabaning o'quv mehnatini amalga oshirishda harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi [98; 117-b].

Shu boisdan pedagogik texnologiyalarni ta'limg jarayonida qo'llash talaba va o'qituvchini doimiy izlanishga, uzliksiz o'z ustida ishlashga undaydi. Bu, o'z navbatida, ta'limgi samaradorlikni ta'minlaydi.

O'qituvchi tomonidan tashkil qilingan bilish faoliyati, uning bergan bilimlarini eslab qolish va ularni qayta aytib berish bilan bog'liq bo'lsa, unda talabalar aqlini faol ishlatmay, xotirasini ishga solib, yod olish bilan cheklanadilar. Bunday usul reproduktiv usul deyiladi. Agar talabalar tafakkurini yuqori kuch bilan ishlashga majbur qiladigan usullarni qo'llasa, ular yarim tadqiqot va tadqiqot usullari deyiladi [87; 52-b.].

Shu boisdan ham talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish va ijodiy tafakkurini o'stirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish eng maqbul yo'ldir. Bu boroda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Ta'limg tarbiya ilm-fan madaniyat va san'at sportni rivojlantirish masalalari yoshlarmizning chuqur bilimga ega bo'lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini

egallashini ta'minlash doimiy ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi" -degan edi [14; 65-b.].

Mazkur vazifani muvafaqiyatli hal etilishida yana bir omilning mavjudligi ya'ni uzlusiz ta'lim tizimi hodimlari pedagoglar tomonidan zamonaviy pedagogik texnologiyalarining mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olishlari, shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning fikrimizcha zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy vazifasi – o'qitish jarayonining maqsadlarini amalga oshirish va shaxsni har tomonlarda ishlashni boshqarish.

Shunday ekan hozirgi globallashuv sharoitida yashab mehnat qiladigan yoshlari o‘zining kasbiy qiyofasini shakllantirish uchun ma’lum shaxsiy va kasbiy fazilatlarga ega bo‘lishi talab etiladi. Jamiyatdagi turli o‘zgarishlarni ongli tahlil etib, o‘z munosabatini bildira olish, mustaqil tanqidiy fikrlash, o‘z – o‘zini boshqarish va rivojlantirish, kasbiy mavqeyini aniq belgilash va unga intilish, mustaqil ta’lim olish kabi sifatlar shular jumlasidandir. Bunday sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir [67; 18-b.].

Hozirgi vaqtida axborotlar oqimi ijtimoiy hayotimizga shiddatli tezlik bilan kirib kelmoqda va barcha sohalarni qamrab olmoqda. Bunday axborotlarni tezda qabul qilish, ularni tahlil etish, qayta ishslash, umumlashtirish, xulosa qilish hamda ma'lumotlar almashuvuni yo'lg'a qo'yish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bunday muammolarni bartaraf etishda zamonaviy pedagogik va axborot komunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati katta [113; 24-b.].

Hozirgi ilmiy tayinil...

Hozirgi ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida har qaysi fan o‘zining asrlar davomida to‘plangan juda katta hajmdagi bilimlarini kun sayin tabora orttirib bormoqda. Bunday tez sur’atlarda oshib borayotgan ma’lumotlardan insonlarni hech qachon dunyo miqyosida barcha axborotlarni o‘zlashtira olmasligi keltiri.

Shuning uchun bugungi ta'limning dolzARB masalasi jamiyat a'zolari, ayniqsa yosh avlodni fan-texnika taraqqiyotidan orqada qolib ketmasligi uchun unga hozirgi fanning asoslarini o'zlashtirishiga imkon beradigan shart-sharoit yaratib berishdan iborat. Bundan talabalarни ma'lumotli qilish va tarbiyalash, ular ongini rivojlantirish maqsadlari individual va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim mazmunini va axborot

hajmini tanlash, uni ta’lim oluvchilar imkoniyatlariga uyg‘unlashtirish zaruriyati kelib chiqadi.

Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi “talaba - darslik (o‘quv materiali) – o‘qituvchi” tizimida talabaning mustaqil bilim olish orqali ko‘nikma va malaka hosil qilish, ijobiy fikrlashga o‘rgatish muhim hisoblanadi [50; 37-b.].

Tabiiy geografiya darslarida ko'proq talabalarni erkin va mustaqil faol ishlashga yordam beradigan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish lozim. Buning uchun yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini hamkorlikda go'lib o'qitish metodikasi katta imkoniyatlarga ega.

Bugungi kun fani, texnikasi va ishlab chiqarishning rivojlanishi, ta'limda nazariya bilan amaliyat birligi hamda ta'limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvining talablari, talabalarning mustaqil faol va ongli mehnatga asoslangan, ularning ijodiy faoliyatlarini raqbotlantiradigan, tafakkurini rivojlantiradigan, shuning bilan birga vaqt ni tejaydigan, bilim olishni yengillashtiradigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va o'quv jarayoniga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan geografiya, xususan tabiiy geografiya darslarida qo'llashning imkoniyatlari katta. Bizga ma'lumki, geografiya fani Yer yuzasi tabiatini, aholisi va uning ho'jalik faoliyatini o'rganadigan bo'lsa, tabiiy geografiya fani esa, geografik qobiqda ro'y beradigan voqealarini, ularning o'zgarish sabablarini kompleks o'rganuvchi fan hisoblanadi. Ushbu fan yutuqlarini, ularning geografik jihatlarini talabalarga yetkazib berishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni hamda ularning metod va usullarini dars jarayoniga keng joriy etish hozirgi kun davr talabi hisoblanadi [49; 423-b.].

Mustaqillik yillarda respublikada amalga oshirilgan islohatlar doirasida uzlusiz ta'lim tizimini shakllantirish, uzlusiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat olib borayotgan ta'lim muassasalarini faoliyatini yanada takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, o'qitish jarayonida zamонавиyy texnik vositalar xizmatidan foydalanishga erishish, ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilayotgan bilim, kasbiy ko'nikma va malakalar darajasini jahon ta'limi standartlari darajasiga ko'tarishga erishish, barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirilgan

ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mavjud ko'rsatkichi bugungi kun talablariga to'la muvofiq kelishi yo'lida muayyan harakatlarni amalga oshirish lozim [65; 27-b].

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi barcha sohalar kabi ta'lim sohasida ham yangi talablarni qo'ymoqda. Hozirgi kunda joriy qilanayotgan zamонавиъ педагогик texnologiyalarning asosiy vazifasi talaba va talabalarga beriladigan bilimlarni o'zlashtirilishining samaradorligini oshirishdir [112; 76 б].

Shunday ekan axborot texnologiyalaridan foydalanib pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda dars mashg'ulotlarini o'tish, ularni oliv o'quv yurtlarida dars jarayonida qo'llash zarur hisoblanadi. Buning uchun hozirgi kunda pedagogik va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga qo'llash uchun har bir oliv o'quv yurtlari yetarli darajada texnik bazalar bilan ta'minlangan.

Ta'lim sohasida, jumladan, oliv ta'lim muassasalarida zamonaliv pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi hisoblanadi. Bu borada oliv ta'lim muassalarida o'qitiladigan fanlar ichida geografiya, hususan, tabiiy geografiya fani o'zining qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Chunki, geografiya fani eng qadimgi, shu bilan birga, eng yosh fan hisoblanadi. Eng qadimliligi shundaki, miloddan avvalgi III-II asrlarda yashagan Erotasfen geografiya faniga zamin yaratgan. Davr talabiga mos ravishda, yangi ma'lumotlar asosida doimo ham mazmunan, ham mohiyatiga ko'ra boyib borishi geografiyaning yosh fan ekanligiga dalil bo'la oladi. Geografik qobiq Yerning yaxlit, qonuniy, takomillashgan qobig'i bo'lib, tabiiy geografiyaning o'rganish obyekti hisoblanadi.

Yangi asrning dolzarb muammolaridan biri - tabiat bilan jamiyat o'rta-sidagi o'zaro munosabatlar hosilasi bo'lgan geoekologik muammolar ham tabiiy geografiyaning tekshirish obyektiga aylandi. Shuni hisobga olgan holda insonlarning xo'jalik faoliyatini tabiatda sodir bo'layotgan narsa va hodisalarining asosiy omili tariqasida tatqiq etish ham tabiiy geografiyaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Chunki, Yer tabiatining keyingi taraqqiyoti, uning taqdiri insonlarning faoliyati bilan bog'liq bo'lib bormoqda. Darhaqiqat inson tabiatni shiddat bilan uni zabit etish maqsadida uning ichiga kirib bordi. Lekin, qaytib chiqishda o'zidan keyin cho'llarni, ekologik tanazzulli mintaqalarni qoldirdi. Insonni yaratgan va undan ozor chekkan Ona tabiat ham insonlarning sog'ligiga

ya iш faoliyatiga kuchli salbiy ta'sir eta boshladi.

Tabiat va jamiyat o'tasidagi murakkab o'zaro aloqalarni faqat yagona sof geografiyagina yecha olishi mumkin. Negaki, yagona geografiyaning o'z tadqiqot obyekti, ilmiy asosi, tadqiqot metodlari va amaliy ahamiyati bor. Qushlar ikki qanotsiz ucha olmaganidek yagona sof geografiyani uning ikki tarmog'i: tabiiy va iqtisodiy geografiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu boisdan ham "geografiyadan qiziqlarli va eng ommabop fanni topish qiyin" deb bejiz aytilmagan [102; 5-b.].

Hozirgi ekologik, tabiatni muxofaza qilish, tabiatni asrasli, tiklash va boshqarishni, tabiat boyliklaridan oqilonan foydalanish kabi mahalliy, mintaqaviy va dunyoviy muammolarni echishda geografiya fanining ahamiyati beqiyosdir. Shuningdek, talaba yoshlarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda, barkamol avlodni voyaga etkazishda geografiya, jumladan tabiiy geografiya muhim o'rinni egallaydi. Buning uchun esa tabiiy geografiya darslarini ayniqsa amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri va jonli tashkil etish lozim.


Yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadryatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirishda, ularda milliy iftixor tuyg'usini tarkib toptirishda geografiyaning o'rni beqiyosdir. Bu esa o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Ularni bajarish uchun hozirgi zamon o'qituvchisi ilg'or tajriba, fan yutuqlari bilan qurollangan bo'lishi kerak [97; 67-b.].

Tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, faqatgina iqtifasi, moshonka qurʼo  
yo'li bilan egallangan bilimgina xotirada yaxshi saqlanib qolar ekan.  
Jahonning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida vaqt sinovidan o'tgan  
yangi pedagogik texnologiyalar dars maqsadini amalga oshirishdagi  
samarasi yuqori ekanligi bilan ahamiyatlidir, chunki bunda butun e'tibor  
o'quvchining faolligini oshirishga qaratiladi. Bu esa o'quv jarayonini  
yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan zamonaviy  
darslar asosida tashkil etish davri kelganligidan dalolat beradi.

Boshqacha qilib aytganda, zerikarli darslar o‘zinga darslanishiga etishga mas’uliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, mas’uliyatlari, zamonaviy, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o‘zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta’limni tashkil eta oladigan o‘qituvchilarga talab oshib bormoqda. Ta’limda moddiy ba’za, standart, o‘quv rejalar, dastur va darsliklar qanchalik takomillashtirilmas, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o‘zlashtirishga erishish bevosita nazariy

va amaliy mashg'ulotlarni olib boruvchi o'qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga pedagogik mahoratiga bog'lanib qolaveradi, o'quv-biluv markazida esa o'quvchi turmog'ini taqozo etadi.

Shu boisdan ham biz quyida tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning taktik va strategik texnologiyalarini "olti qoida"ga asoslangan maqsadlar daraxti bilan identivlik muvozanati produktivligini ta'minlash orqali takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqish maqsadida, quyidagi "olti qoida"ni ishlab chiqdik (4-rasm).



**4-rasm. "Olti qoida"ga asoslangan maqsadlar daraxti**

Birinchi qoida: o'qitish jarayonida barcha talabalar ishtirok etishi shart. Buning uchun pedagog ta'lif oluvchilarda bilishga qiziqishni faollashtiruvchi texnologiyalardan foydalanishi lozim.

Ikkinchi qoida: talabalarning samarali o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish uchun maqbul kreativ muhitni yaratish zarur

Uchinchi qoida: interaktiv texnologiyalar asosida taqdim etilgan o'quv materiallarini samarali o'zlashtirish uchun guruhdagi talabalar sonining maqbul meyorda bo'lishini (30 nafargacha) hisobga olish lozim. Chunki talabalar bir-biri bilan o'zaro hamkorlikda ishlay olishi

To'rtinchi qoida: talabalarning katta va kichik guruhlarda topshiriqlarni bajara olishi uchun qulay sharoit yaratish zarur. Agar mashg'ulot onlays tarzda tashkil etilsa, turli onlays-guruhlarda ishslashning samarali vositalaridan foydalanish lozim.

Beshinchi qoida: amaliy mashg'ulotning har bir bosqichi aniq belgilib qo'yilishi va vaqt to'g'ri taqsimlanishi lozim.

Oltinchi qoida: talabalarni mikroguruhlarga taqsimlashda maqbul yondashuvni qo'llashi lozim. Dastlab talabalarni o'z xohish-istagiga ko'ra, so'ngra tasodifiy tanlov orqali mikroguruhlarga taqsimlash maqsadga muvofiq.

Yuqoridaq "olti qoida"ga asoslangan maqsadlar daraxtini mahorat darslari, interaktiv vebinarlar, keys topshiriqlari, so'rov va ovoz berish, ijodiy topshiriqlar, kichik guruhlarda ishslash kabi shakllarini olib borish jarayonida foydalanib, "olti qoida"ni samaradorligi tekshiriladi.

Hozirda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy fikrlarini oshiruvchi hamda ta'lif tarbiya samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Ta'lifning interfaol metodi XX asrning oxiri va XXI asrning boshlaridan pedagogik adabiyotlarda keng ishlatilmoqda va ta'lif sohasida foydalanilmoqda. Uning asosiy maqsadi yagona bo'lib, o'quvchilarni mustaqil bilim olishga qiziqtirish, o'z ustida ko'proq ishslash, qo'shimcha mustaqil bilim olishga qiziqtirish, o'z ustida ko'proq ishslash, qo'shimcha adabiyotlarni o'qish, zamon bilan hamnafas ta'lif-tarbiyaga, mustaqil fikr yurita oladigan komil insonni voyaga etkazishga xizmat qiladi [91; 8-b.].

Interfaol metodlar – shunday metodlarki u o'quvchilarning o'zaro muloqot va o'zaro ta'siridagi dars jarayonini amalgalashuvchi usul. muloqot va o'zaro ta'siridagi dars jarayonini amalgalashuvchi usul. Interaktiv" so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, "Interact", ya'ni Inter "Interaktiv" so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, "Interact", ya'ni Inter – bu "o'zaro", "act" – "harakat, ta'sir, faollik" ma'nolarini beradi [80; 45-b., 103; 13-b.].

Hozirgi kunda yangicha metodlarni ta'lif jarayoniga tadbiq etish haqida gap borganda interfaol metodlarning qo'llinilishi tushuniladi. Interfaol metodlar asosida kechgan o'quv jarayonlarida o'quvchi tanlashga, murakkab masalalarini tahlil asosda yechimini topishga, qidiy fikrlashga, murakkab masalalarini tahlil asosda yechimini topishga, shunga yarasha axborotni izlash, ayrim al'ternativ fikrlarni o'zaro munozalarda erkin bayon qilishni o'rganadi va shunday ko'nikmalar

shakllanadi [117; 21-b., 90; 9-b.].

Interfaol metodlarning foydalanishning asosiy mohiyati shundaki, ta'lim jarayonida barcha o'quvchilar bilish jarayonining ishtirokchisiga aylanadi, ular muhokama etilayotgan muammolarni, voqealarni va hodisalarining rivojini tushunadi, muammoli vaziyatlarni aniqlaydi, uni hal etish yo'llarnini izlab, eng maqbul variantni tavsiya etadi [46; 317-b., 43; 14-b.].

Interfaol metodlar qo'llanganda o'quvchilar tanqidiy fikr yuritish, axborot manbalari va ularni tahlil qilish, murakkab muammoli vaziyatlarni hal etish, guruhdagi boshqa ishtirokchilarning fikrini tahlil qilib asoslangan xulosalar chiqarish, munozarada ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan muloqatda bo'lismayish, o'quvchilar bir-birini tushunish, hamkorlikda va hamjihatlikda ishlash ko'nikmalarini egallaydi.

Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan interfaol metodlarning "Charxpak", "FSMU", "Insert", "Yelpig'ich", "Bummering", "Zakovatli zukko", "Qarorlar shajaras", "Qora quti", "Qarama-qarshi munosabat", "Blits o'yin" va boshqa ko'plab turlari mayjud [48; 55-b.]. Ammo ulardan geografiya ta'limida foydalanish sohasida sezilarli ishlar hali qilingani yo'q. Vaholangki, mazkur metodlardan geografiyasi darslarida xususan, tabiiy geografiya kurslari amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish imkoniyati katta. Amaliy mashg'ulotlarni ushbu metodlardan foydalanib tashkil etish va o'tkazish tartibi turlicha bo'lib, ta'lim jarayonida ushbu metodlardan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish geografiya fani o'qituvchisining pedagogik mahorati va tafakkur ko'laming kengligiga bog'liq bo'ladi.

Biz quyida tabiiy geografiya kursi amaliy mashg'ulotlarda interfaol metodlardan foydalanish metodikasini "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" kursi misolida ko'rib chiqamiz va amaliy mashg'ulot jarayonida topshiriqlar berish orqali ba'zi metodlarning xususiyatlariga va foydalanish metodikasiga to'xtalib o'tamiz.

#### Darsning mavzusi: Afrika materigi relyefi.

**Darsning ta'limiy maqsadi:** Talabalarning Afrika materigi yer yuzasi tuzilishi va relyefi bo'yicha ma'ruzada egallagan bilimlarini amaliy mashg'ulotlarni bajarish orqali mustahkamlash.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Talabalarga mavzuga oid ma'ruzada egallagan bilimlarini mustahkamlash orqali ekologik, ahloqiy tarbiya

berish, tabiatni muhofaza qilishga o'rgatish, milliy qadriyatlarimizni e'zozlashga o'rgatish, ajdodlarga hurmat, iftixor, g'urur tuyg'usini shakllantirish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** Talabalarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, darslik, qo'shimcha adabiyot, xarita, yozuvlari xarita bilan ishslash ko'nikmalari hamda nutq va muloqat madaniyatini rivojlantirish.

**Darsning jahozi:** Proyektor, Globus, Dunyoning tabiiy xaritasi, Afrika materigi tabiiy xaritasi, atlas va yozuvlari xarita, Afrika materigi foydali qazilmalariga oid jadvallar, Afrika materigi haqida ko'rgazmali vositalar.


**Darsdan foydalanadigan texnologiya:** Interfaol metodlar - "Blits-savol", "Klaster", "Venn diagrammasi", "FSMU", "Geografik tavsifda xato bormi", "Ortiqchasini toping", "Omad kulib boqqanda" metodlar va kartografik texnologiyalar.

#### Darsning borishi:

**I. Tashkiliy qism.** Yangi mavzu didaktik maqsadi bilan tanishtirish va talabalarning faoliyatini ya'ni o'quv topshiriqlarni mustaqil bajarishga yo'llash.

II. O'tilgan darsni takrorlash.

1-Topshiriq. Blits-savollarga javob bering [62].




5-rasm. Afrika materigi relyefini o'qitishda "Blits-savol"lar

“Blits-savol” metodni amaliy mashg’ulotni boshida berish orqali talabalar diqqatini bir joyga toplash imkonini beradi hamda dars so‘ngida baholash va mustahkamlash maksadida qo’llash samarali natijalarni beradi.

**III. Asosiy qism.** Har bir o‘quv topshiriqlarining to‘liq bajarilishini nazorat qilish, tegishli maslahatlar berish, har bir o‘quv faoliyati yakunida savol-javob bahsi yoki munozara tashkil etish.

**2-Topshiriq.** Afrika materigida mayjud relyef shakllariga oid klasterni to‘ldiring.




6-rasm. Afrika materigi relyefini o‘qitishda klaster usuli

Klaster metodi talabalarga ixtiyoriy muammo va savollar xususida erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun

sharoit yaratishga imkon beradi. Ya’ni Afrika matrigida mayjud bo‘lgan relyef shakllaridan ixtiyoriy ravishda yozish mumkin, bu yerda ma’lum cheklov va miqdor yo‘qligi sababli talabalar o‘zları bilim va malakasiga tayangan holda istagancha tog‘larni yoki tekisliklarni yozishlari mumkin. Undan foydalanish talabaning ilmiy tafakkurining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning talabalar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi. Ya’ni ma’ruzada olgan bilimlariga tayangan holda tog‘lar va tekisliklarni, plato va qirlarni, pasttekislik va botiqlarni bir-biridan ajratib, ularga oid geografik obyektlarni joylashtirish jarayonida mantiqiy fikrlash hamda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

**3-Topshiriq.** Afrika tog‘lariga oid “Venn diagrammasi”ni to‘ldiring.



7-rasm. Afrika materigi relyefini o‘qitishda “Venn diagrammasi” tuzilishi

“Vennn diagrammasi” metodni turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiyligi va farqlovchi xususiyatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi. Talabalar ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiyligi va farqlovchi xususiyatlarini izlab topadilar, umumlashtiradilar

va doirachalarning tegishli qismiga yozadilar. Bu orqali talabalarga ma'ruzadan olgan nazariy bilimlar, ma'lumotlar yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi.

#### 4-Topshiriq. "FSMU" jadvalini to'ldiring.

"FSMU" metodi talabalarga umumiyl fikrlardan xususiy xulosalar chiqarishga, xulosa va fikrlarni taqqoslashga, ma'lumotlarni tahlil qilish va qiyoslash orqali axborotni mustaqil o'zlashtirishga imkon beradi, shuningdek mustaqil qaror qabul qilish, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. 7-jadvalga qarang.

#### 7-jadval

##### "FSMU" jadvali

Xulosa yoki g'oyalar "FSMU" metodining bosqichlari	Sharqiy Afrika yassitog'ligi Afrikadagi eng katta va eng baland tog' sistemasidir	Atlas tog'larida 1983-yilda eng falokatli zilzila sodir bo'lgan	Sahroyi Kabir dunyodagi eng katta cho'ldir
F- fikringizni bayon qiling:	<i>Haqiqatdan ham bu tog' shimoldan janubga katta masofaga cho'zilgan hamda bu tog'da Afrikaning eng baland cho'qqisi joylashgan</i>		
S- sabab ko'rsating:	<i>Bu tog' hozirgi faol seysmik mintaqada joylashgan</i>		
M- misol keltiring:	<i>Kilimanjaro, Karisimbi, Keniya vulqonlari va Buyuk Afrika yer yorig'i shu tog' hududida joylashgan</i>		
U- umumlashtiring:	<i>Materikning deyarli butun sharqiy qismini tog'liklardan iborat bo'lib, uning katta qismini shu tog' ishg'ol etadi va bu tog'dagi Kilimanjaro cho'qqisi (5895 m) materikning eng baland nuqtasi hisoblanadi</i>		

"FSMU" metodini amalga oshirish tartibi.

1. Har bir talabaga "FSMU" metodining bosqichlari va mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya yozilgan jadvallar tarqatiladi (huddi yuqoridagi kabi).

2. Har bir talaba yakka tartibda tarqatilgan jadvaldag'i "FSMU"ning

to'rt bosqichini taklif etilgan xulosa yoki g'oyaga nisbatan o'z mustaqil fikr va muloxazalarini yozma bayon etgan holda to'ldiradi.

3. Har bir talaba o'zi yozgan FSMU bilan boshqalarga o'qib eshittiradi.

4. Talabalar barcha fikr va muloxazalarni tinglab, ularni umumlashtiradi, kerakli xulosalar shakllantiriladi.

5-Topshiriq. "Geografik tavsifda xato bormi" matnni o'qib yo'l qo'yilgan xatolarni toping.

Afrika dunyodagi qit'alar orasida Yevrosiyodan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Materik relyef tuzilishiga ko'ra ikki qismga bo'linadi. Materikda tog'lar eng katta maydonni egallagan. Yer yuzidagi eng katta va eng quruq cho'1 Sahroyi Kabir shu materikda joylashgan bo'lib, uning g'arbida Tibesti tog'ligi, markazida Darfur platosi va sharqida Axaggar tog'ligi joylashgan. Materikda ko'plab harakatdagi va so'ngan vulqonlar mavjud. Materikning sharqiy yarim sharida Keniya vulqoni, g'arbiy yarim sharida esa Kamerun vulqoni bor. Sharqiy Afrika yassitog'ligi eng baland tog' bo'lib yuqori qismlarida muzliklar shakllangan. Shunday qilib, Afrikaning markaziyi va sharqiy qismlari baland tog'lardan iborat.

#### Yo'l qo'yilgan xatolarni ularning to'g'ri shakli:

1. Yevrosoyo qit'a emas materik. U Amerika va Osiyo qit'alaridan keyin 3-o'rinda turadi.

2. Materikda tog'lar emas, tekisliklar katta maydonni egallaydi.

3. Sahroyi Kabir eng katta cho'1 bo'lsada lekin eng quruq cho'1 emas.

4. Axaggar va Tibesti tog'lari Sahroyi Kabir cho'lining sharqi va g'arbida emas balki markazda, Darfur platosi esa janubi-sharqida joylashgan.

5. Keniya vulqoni materikning sharqida, Kamerun vulqoni esa g'arbida joylashgan lekin materik asosan sharqiy yarim sharda joylashganligi uchun bu ikki vulqon sharqiy yarimsharda joylashgan.

6. Afrikaning sharqiy va janubiy qismlari baland tog'lardan, markaziyi qismi Kongo botig'idan iborat.

"Geografik tavsifda xato bormi" metodi talabani o'ylashga, ijodiy va mantiqiy fikrlashga, tasavvur qilishga, diqqatini bir joyga to'plashga, ma'ruzadan olgan bilimlarini tahlil qilib xulosa chiqarishga o'rgatadi. Bu metodni qo'llayotganda shu narsaga ahamiyat berish kerakki,

berilayotgan ma'lumotlar albatta ma'ruza darslarida berilgan bo'lishi kerak. Matnni tuzayotganda ma'lumotlar keltirilgan jumlalar orasida har doim to'g'ri ma'lumotlar ham bo'lishi lozim, aks holda talaba har bir jumlada hato bor deb, undagi xatoni topish uchun qayta va qayta o'qib chiqaveradi, bu esa talabani ijodiy va mantiqiy fikrlashiga, ma'lumotlarni tahlil qilib xulosa chiqarishiga salbiy ta'sir qiladi. Agar ba'zi jumlalardagi ma'lumotlar to'g'ri bo'lsa, talaba boshqa jumladagi xatolarni diqqat bilan o'qib chiqib topishga xarakat qiladi.

**6-Topshiriq.** "Ortiqchasini toping" va uni izohlab, ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslang. 8 va 9-jadvallariga qarang.

8-jadval

"Ortiqchasini toping"	
Kilimanjaro	
Karisimbi	
Kenya	
Tubkal	
Margarita	

9-jadval

"Ortiqchasini toping" jadvalni to'ldirish uchun na'muna	
Atlas tog'lari	
Kap tog'lari	Bu yerda Kap tog'lari ortiqcha.
Axaggar tog'ligi	Sababi, boshqa tog'lar shimoliy yarim sharda joylashgan hamda ular tekislik hududlarida vujudga kelgan, Kap tog'lari esa janubiy yarim sharda joylashgan hamda "Baland Afrika"ga tegishli
Tibesti tog'lari	
Kamerun tog'lari	

"Ortiqchasini toping" metodida talabalar mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ko'rsatish va shaxsiy yondashuvlarini asoslash orqali mustaqil fikrlash, tengdoshlarining fikrlari bilan shaxsiy mulohazalarini o'zaro taqqoslash va mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishadi. Buning uchun topshiriq tuzilayotganda, ya'ni mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirayotganda shu masalaga e'tibor berish kerakki, ular orasidagi bog'liqlik bir nechta bo'lishi (talabalar har xil bog'liqlikni topishi) lozim. Shundagina talabalar o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'likni asoslashga va bu aloqadorlikni analiz va sintez qilishga imkon tug'iladi.

#### IV. Mavzuni mustahkamlash.

**7-Topshiriq.** "Omad kulib boqqanda" o'yinida munosib ishtirok eting. 10-jadvalga qarang.

#### Afrika materigi relyefi mavzusiga oid "Omad kulib boqqanda" o'yini savollari

1. Sahroyi Kabir hududida joylashgan tog' qaysi? Tibesti tog'ligi
2. Kamerun vulqoni balandligi qancha? 4070 m
3. Afrikaning dengiz sathidan eng past nuqtasi qaysi botiqda joylashgan? Afar botig'i
4. Afrikadagi eng quruq cho'l qaysi? Namib cho'li
5. Kap tog'lari materikning qaysi qismida joylashgan? Janubiy
6. Tubkal cho'qqisi qaysi tog'da joylashgan? Atlas tog'lari
7. Efiopiya tog'linining eng baland nuqtasi necha metr? 4620 m
8. Dengiz sathidan -133 metr pastda joylashgan botiq qaysi? Kattara botig'i
9. Qizil dengiz qirg'oqlarida joylashgan cho'l qaysi? Nubiya cho'li
10. Kamerun vulqoni materikning qaysi qismida joylashgan? G'arbiy
11. Afrika materiginining janubi-sharqi qismidagi tog' qaysi? Drakon tog'lari
12. Tubkal cho'qqisi balandligi qancha? 4165 m
13. Afrikaning eng yirik botig'i qaysi? Kongo botig'i
14. O'rta dengiz va shimoliy tropik chizig'i orasida joylashgan cho'l qaysi? Liviya cho'li
15. Materikning eng past nuqtasi Assal ko'li Efiopiya tog'larining qaysi qismida joylashgan? Sharqiy
16. Liviya cho'lining qaysi qismi tekislik va pasttekisliklardan iborat? Shimoliy

10-jadval

#### "Omad kulib boqqanda" o'yini tarqatma materiallari

4070 m	Drakon tog'lari	G'arbiy	Namib cho'li
Kongo botig'i	Janubiy	Nubiya cho'li	Kattara botig'i
Liviya cho'li	Atlas tog'lari	Afar botig'i	4620 m
Tibesti tog'lari	Shimoliy	4165 m	Sharqiy
Janubiy	Afar botig'i	4620 m	Tibesti tog'lari
Kattara botig'i	Liviya cho'li	Namib cho'li	Nubiya cho'li

Atlas tog'lari	Shimoliy	Drakon tog'lari	4165 m
Sharqiy	4070 m	Kongo botig'i	G'arbiy
Kongo botig'i	Shimoliy	Nubiya cho'li	Drakon tog'lari
G'arbiy	Tibesti tog'ligi	4165 m	Liviya cho'li
4070 m	Kattara botig'i	Atlas tog'lari	Sharqiy
Namib cho'li	4620 m	Janubiy	Afar botig'i
Drakon tog'lari	Janubiy	Namib cho'li	Tibesti tog'ligi
Nubiya cho'li	G'arbiy	Kattara botig'i	4070 m
Afar botig'i	Liviya cho'li	4620 m	Kongo botig'i
4165 m	Sharqiy	Atlas tog'lari	Shimoliy

**“Omad kulib boqqanda”** metodidan amaliy mashg'ulot darslarni boshida ma'ruzadan olgan bilimlar talabalar xotirasida qay darajada qolganligini yoki dars so'ngida, mavzuni mustahkamlash va baholash maqsadida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu metod talabalar xotirasining rivojlanishiga, o'zbilimijsifati va saviyasini xolis baholashga, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarnining o'zaro aloqadorligini analiz va sintez qilishga imkon beradi. Metodning qo'llanilish jarayonida talabalarni rag'batlantirib borishi, ularning faolligini va qiziquvchanligini oshiradi.

“Omad kulib boqqanda” metodini amalga oshirish tartibi.

1. Har bir talabaga “Omad kulib boqqanda” metodi savollarining javoblari yozilgan jadvallar tarqatiladi (huddi yuqoridagi kabi).

2. O'qituvchi uni to'ldirish borasida ko'rsatma va tavsiyalar berib o'tadi, savollar raqami talabalar tomonidan erkin tanlanadi (raqam tanlaydigan talabalar ketma ketligi jurnal bo'yicha yoki o'tirgan o'rni bo'yicha aniqlanadi), o'qituvchi shu raqamdagи savolni o'qydi, talabalar o'zlaridagi jadvalda berilgan javoblarning qay biri shu savol javobi deb hisoblasa, o'sha qismga savolni raqamini yozib borishadi (Savollarni 16, 25, 36 ta qilib tuzish, jadvallar sonini esa guruhdagi talabalar sonidan kelib chiqib tayyorlash mumkin).

3. Qaysi talaba jadvalni bo'yiga yoki eniga birinchi to'g'ri to'ldirsa u “omadli bilimdon” o'yinida birinchi, ikkinchi bo'lib to'ldirsa ikkinchi o'rinni va hokazo

4. O'yin oxirida o'qituvchi to'g'ri javoblarini e'lon qilib, ularga izohlar berib boradi, talabalar esa javoblarini tekshirish jarayonida

erishgan yutuqlarini (to'g'ri belgilab egallagan o'rni) anglash orqali o'ziga baho beradi, aksincha, yo'l qo'ygan xatolarini aniqlash orqali ma'lumotlarni analiz va sintez qiladi.

#### V. Faol qatnashgan talabalarini baholash va baholarni izohlash.

#### VI. Uyga vazifa berish.

**8-topshiriq.** O'quv adabiyotlar, xarita va atlaslardan foydalanib, “toifalash” jadvalini to'ldiring. 11-jadvalga qarang.

#### 11-jadval

#### Afrika materigi relyefi uchun “toifalash” jadvali

Relyef hosil qiluvchi omillar	Relyef shakllari tavsifi	Cho'kindi jinslarni bir biridan ajratish	Tog' jinslari xususiyatlari	Tog'lar va tekisliklarning geografik o'rninga ta'rif bering

**9-topshiriq.** O'quv adabiyotlar, qo'shimcha manbalar, xarita va atlaslardan foydalanib, “Krossvord” tuzish.

“Toifalash” metodi va “Krossvord” tuzish usulidan uyga topshiriq berish maqsadida foydalanilsa, talabalarda mustaqil o'qish va qo'shimcha manbalar, ma'lumotnomalar, lug'atlar, enciklopediyalar, geografik xaritalar bilan ishslash imkoniyatiga ega bo'ladi hamda ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalari rivojlanadi.

Odatda uyga vazifa sifatida berilgan topshiriqlar yozuvsiz xaritani bo'yash yoki savollarga javob yozishdan iborat bo'ladi. Bunda talabani mantiqiy o'ylashga, tafakkur qilishga, xulosa va qarorlar qabul qilishga ko'maklashuvchi ko'nikmalar deyarli shakllanmaydi. Demak, uyga topshiriqlar berish jarayonida interfaol metodlardan, ayniqsa “toifalash” metodi va “Krossvord” tuzish usulidan foydalanilsa talabalar o'z bilimlarini rivojlantirish bilan birga ma'lumotlarni mustaqil ravishda tahlil qilish orqali o'zlashtirishga, ijodiy mulohaza yuritishga, shaxsiy xulosalar asosida erkin fikr yuritishga o'rgatiladi, shuningdek axborotlarni qaysi bo'limga tegishli ekanligini aniqlash hamda ulardan savollar tuzib krossvordda ifodalash jarayonida mantiqiy fikrlash va shaxsiy qobiliyatları rivojlanadi.

Amaliy mashg'ulotlarda interfaol metodlarni qo'llashdan avval albatta darsning texnologik xaritasini ishlab chiqish lozim. Bu dars-

ning to‘g‘ri tashkil etilishiga va samarali bo‘lishiga xizmat qiladi. 12-jadvalga qarang.

### Afrika materigi relyefi mavzusidagi interfaol metodlarga asoslangan darsning texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqt	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min)	1.1. O‘quv mashg‘ulotining mavzusi va maqsadi, rejadagi crishilishi kerak bo‘lgan natijalarini e‘lon qiladi, ularning ahamiyatini va dozarligini asoslaydi. 1.2. Topshiriqlarni bajarish modul tarzda o‘tishini eslatadi. 1.3. Amalga oshirilishi kerak bo‘lgan vazifalarни e‘lon qiladi.	1.1. Eshitadilar, mashg‘ulot maqsadi va rejasini yozadilar. 1.2. Topshiriqni qabul qiladilar va bajarish yo‘llarini anglayadilar. 1.3. Vizual materiallar bilan tanishadilar.
2-bosqich. Asosiy (60 min)	2.1. Baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari hamda qanday qo‘sishmcha manbalardan foydalanish kerakligi tushuntiriladi (3.1-bo‘limda keltirilgan). 2.2. O‘tgan mavzu bo‘yicha blits-so‘rov o‘tkazadi (1-topshiriq). 2.3. Amaliy mashg‘ulot topshiriqlari beriladi va bajarish yo‘llari tushuntiriladi (2-6- topshiriq). 2.4. Yangi mavzu yakunlash lozimligi e‘lon qilinadi va yakuniy topshiriqlar beriladi (7- topshiriq). 2.5. Natijalarini baholashni tashkil etadi, izohlaydi, javoblarni tartibga keltiradi, shakllangan xulosalarini umumlashtiradi .	2.1. O‘quv topshiriqlari, baholash mezonlari bilan tanishadi. Qaysi qo‘sishmcha manbalardan foydalanish kerakligini bilib oladi. 2.2. Berilgan savollarga to‘liq javob berishda qatnashadi 2.3. Topshiriqlarni baja-radilar va xulosa qiladi. Savollarga javob beradilar. Jadvallarni to‘ldirishadi. 2.4. O‘zlari bajargan topshiriq javoblarini asoslab berishadi. 2.5. Boshqalarni eshitadilar, javoblarni tartibga solishadi, savol-javob o‘tkazishadi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min)	3.1. Mashg‘ulotga xulosa qiladi, talabalarni baholaydi. 3.2. Uy ishi uchun vazifa beradi (8- 9-topshiriq).	3.1. Talabalarning javoblarini baholashda qatnashib, mashg‘ulot yuzasidan takliflar beradi 3.2. Topshiriqni mustaqil bajaradilar.

Yuqoridagi kabi interfaol metodlارдан foydalanishda aniq bir maqsadni ko‘zda tutib, muammoni shakllantirib, talabalarni shunday pedagogik jarayonda ishlashga tayyorlab, ularni ma’lum malakalarga

ega bo‘lgan holatlarni amaliyotda qo‘llash orqali kutilgan natijalarini olish mumkin. Bunda shakllantirilayotgan muammo juda puxta o‘ylangan keng qamrovli diqqatni tortadigan holda bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Interfaol metodlarning biror bir metodini qo‘llashda, darsni tashkil etish uchun har bir mashg‘ulotning rejasi yaratilishi, shu asosda uning ketma-ketligi, reglamenti, bajarilish tartibi, maqsad, vazifalari kutilayotgan natijalar oldindan belgilab olinishi va undan talabalar habardor etilishi lozim.

### 2.4-§. Amaliy mashg‘ulotlarni keys-stadi va modulli ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etish

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy qilish, o‘quv jarayonida ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarining o‘zaro hamkorligini ta’minlash, ta’lim oluvchilarining mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Ana shunday vazifalarini amalga oshirishda oliy ta’lim muassasalarida tabiiy geografiya kurslarda amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan hisoblangan “Keys-stadi” va modulli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Keys-stadi texnologiyasining asosiya maqsadi o‘quvchilarining bilim olish jarayonini faollashtirish, mavjud muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali ularning ilmiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Shuningdek, Keys-stadi texnologiyasi talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalarini hamkorlikda qo‘llashga, taklif qilingan yechimlarni tahlil qilish orqali muqobil yechimini izlashga o‘rgatuvchi ta’lim texnologiyasidir [124; 11-b.].

Insonlar shaxsiy-kasbiy faoliyatida turli xil muammoli vaziyatlarga duch keladi, aynan shu vaziyatlarning muqobil yechimini izlash, yuzaga kelgan har qanday muammoli jarayoning yechimiga oid o‘z fikrlarni ayta olish va muammoli vaziyatning yechimini topa olish insonlarning bilim, ko‘nikma va malakasiga bog‘liq bo‘ladi. Ta’lim tizimida amaliy vaziyatlarni hal qilishda qo‘llaniluvchi “keys-stadi” texnologiyasi talabalar o‘quv faoliyatini jarayonida yuzaga keluvchi aniq vaziyatli muammolarning yechimini topishga o‘rgatuvchi, yangi yechimlarni ishlab chiqishga yo‘naltiruvchi pedagogik texnologiyalardan biridir

[58; 176-b., 84; 14-b.]

“Keys-stadi” texnologiyasining mazmun-mohiyati shundaki, uning asosini aniq vaziyat yoki hodisa tashkil etadi (“case” - hodisa). Shuning uchun, birinchidan, tahlil etilayotgan hodisada real hayotiy vaziyat aks etishi kerak, ikkinchidan, bu vaziyatda hali oxirigacha hal qilinmagan, yashirin muammo yoki bir nechta muammolar bo‘lishi zarur [32; 22-b., 94; 18-b.].

“Keys-stadi” texnologiyasi muammoli o‘qitish texnologiyalaridan bir hisoblanadi. Bu texnologiyaning muammoli ta’lim texnologiyasidan farqi shundaki, “Keys-stadi” texnologiyasida aniq vaziyat va xodisalar muammoli tarzda beriladi. Mazkur texnologiya aniq o‘quv materiallar asosida maxsus ishlab chiqilgan muammoli aniq vaziyatlarning yechimiga yo‘naltirilgan bo‘lib, oldindan dars mashg‘uloti mavzusi asosida tuziladi va talabalar bilan birqalikda bu muammoni tahlil qilish maqsadini ko‘zlaydi [21; 774-b., 24; 28-29-b.].

Bunda o‘qituvchi ko‘p variantli muammoni bayon qiladi, talabalar bu muammoni yechimini topish uchun o‘z fikr va mulohazalarini aytadi, bu jarayonda o‘qituvchi talabalarda muammoni yechishda yetishmayotgan bilimlarni aniqlab, muammoni yechimini izlash va topishga kerakli ko‘rsatma va tavsiyalar berib boradi. Bunda talabalar mustaqil faoliyatga yo‘naltirilib, shu kungacha olgan bilimlarni umumlashtirib, o‘z tajribasidan foydalangan holda muammoning o‘ziga xos yechimini topish yo‘llarini izlaydi. Bunday vaziyatda talabalardan darsda egallagan bilimlaridan tashqari qo‘srimcha ma’lumotlar, kundalik axborotlar ham kerak bo‘ladi. Turli manbalardan qo‘srimcha ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va axborotlar bilan ishslash jarayonida talabalar mustaqil ravishda xulosa chiqaradi, muammoli vaziyatni hal etish bo‘yicha o‘z takliflarini beradi.

“Keys-stadi” texnologiyasi yordamida o‘qitish bu ta’lim berishning shunday usuliki, bunda real ijodiy jarayon modellashtiriladi. Boshqacha aytganda, muammoli vaziyat yaratilib, talabalarning muammoni yechish borasidagi izlanishlari boshqariladi [59; 34-b.].

Talabalar yangi bilimlarni o‘qituvchi va tengdoshlari yordamida o‘zlashtiradilar. Buning uchun talabada ikki omil, biri ma’lum o‘quv materialini o‘zlashtirish va bilish ehtiyojining yuzaga kelishi bo‘lsa, ikkinchisi ma’lum muammoni hal etish uchun zarur bo‘lgan umumlashgan yangi bilimlarni egallahsga bo‘lgan ishtiyoqning mayjudligi muhim

hisoblanadi. Sababi, “Keys-stadi” texnologiyasidan foydalangan holda amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish o‘quv materialini o‘rganish ketma-ketligi va tahlil etishga o‘ziga xos yondashuvni taqozo etadi. Bunda o‘qituvchi savollarni o‘quv muammosi sifatida qo‘yadi. Savollar zamirida esa ma’lum muammoni aks ettiruvchi ta’limiy masala yotadi.

“Keys-stadi” texnologiyasi interfaol texnologiyalar guruhiga kiradi. Sababi bu texnologiya ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi “subyekt – subyekt” munosabatlari orqali amalga oshiriladi. Bunday o‘quv faoliyatda talaba ta’lim olishning faol subyektiga aylanadi, unda jamoa bilan hamkorlikda ishslash, o‘z fikrini bildirish va himoya qilish ko‘nikmalari shakllanadi [34; 66-b.].

Eng muhimi, mazkur texnologiya o‘quv faoliyatini jadallashtirish va o‘quv faoliyatidan tashqariga ham qaratilgan bo‘lib, talabalarni o‘zlarini egallayotgan kasb bilan bog‘liq muammolarni hal etishga yo‘naltiradi hamda kasbiy motivatsiyani shakllantiradi.

Geografiya darslarida muammoli keyslardan foydalanishda ochiq muloqot usuli samaraliroq hisoblanadi. Ochiq muloqotda asosiy omil sifatida talabalarning ko‘nikma va malakalari va o‘qituvchining muloqotni tashkil eta olish qobiliyati muhimdir. Bunda talabalarning diqqatini keys matnidagi aniq axborotga qaratib, undagi muammoli vaziyatlarni hal etish maqsadida berilgan savollarga mantiqan to‘g‘ri javob berishga va to‘g‘ri xulosa chiqazishga undaydi. Berilgan keys matndagi muammoni ajratib olish, hodisa va jarayonni tahlil qilish, vaziyatni baholash va unga o‘z fikr mulohazalarini bildirish talabalarning kommunikatsion ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

“Keys-stadi” texnologiyasidan dars jarayonidan tashqari mustaqil ta’limda, hamda ta’lim natijalarini nazorat qilish va tekshirishda ham foydalinish mumkin [28; 19-b.].

Bunda har bir talabaga mustaqil ta’lim olish uchun yoki imtixonidan o‘tish uchun individual tarzda keyslar beriladi. Talabalar keysdagি muammoli vaziyatini aniqlab, uni yechimiga qaratilgan taklif va xulosalarini hisobot shaklida o‘qituvchiga topshiradilar. Bunda talabalarda qo‘srimcha adabiyot va materiallar bilan ishslash imkoniyati iqtisodiy hodisa va jarayonlarni aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyalari rivojlanadi.

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda o‘qituvchi o‘quv maqsadlarini

hisobga olgan holda har xil turdag'i keyslarni ishlab chiqishi lozim. Keys asosidagi amaliy mashg'ulotlarida talabalar faoliyatini turli shakllarda tashkil qilish imkoniyati mavjud. Masalan, taklif etilayotgan vaziyat sahnalashtirilishi hamda "Aqliy hujum", bahs-munozara, ilmiy bahslashuv metodlari orqali muhokama qilinishi mumkin.

Keyslarning bir nechta turi mavjud.

1. Amaliy keyslar. Bunda vaziyat yoki hodisa real aks etadi. Uning asosini tarixiy manbaa, real hujjat, statistik ma'lumotlar tashkil qiladi. Bu turdag'i keyslarning maqsadi tarixdagi real hodisani, ekologik yoki texnologik muammoni hal etish yo'llarini modellashtirish, olingan bilmidan hayotda foydalanish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat.

2. Ta'limiy keyslar. Bunday keyslarning vazifasi ta'lim berish bo'lib, asosini o'quv vaziyatlar tashkil etadi. Bu keyslarni bajarish jarayonida shakllangan ko'nikmalar malakaga aylanadi.

3. Ilmiy keyslar. Talabalarni tadqiqotga yo'naltirish maqsadida ishlab chiqiladi [31; 37-b.].

Masalan, "Tabiiy geografik jarayonlar", "Hududdagi ekologik vaziyat", "Antropogen landshaftlar" va hokazo. Bu turdag'i keys materiallariga mavzuga oid ilmiy izlanish olib borgan olimlarning ishlaridan hamda o'lkashunoslik materiallardan ham foydalansa bo'ladi.

"Keys-stadi" texnologiyasida qo'llaniladigan keyslar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- tanlangan keys matni amaliy mashg'ulotining mavzusi va maqsadiga mos kelishi;
- keys matnida berilgan muammo dolzarb va bir nechta yechimlarga ega bo'lishi;

- topish va hal qilish zarur bo'lgan muammoli vaziyatning real hayotda mavjud bo'lishi;

- o'r ganilayotgan muammoli vaziyatni hal etish uchun axborotning yetarli bo'lishi;

- ta'lim oluvchilarga muammoli vaziyatni hal qilishda yordam sifatida tavsija va ko'rsatmalarni berish hamda ularni harakatlarini baholash imkoniyatining mavjud bo'lishi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda "Keys-stadi" texnologiyasini qo'llash o'qituvchi uchun bir qancha qiyinchiliklarni tug'dirishi mumkin. Bu texnologiya o'qituvchidan tanqidiy tafakkur va ijodiy faoliyatni, qolaversa, keyslarni ishlab chiqish ko'nikmasini rivojlantirish uchun

o'z ustida doimiy ishlash, fan bo'yicha yangi axborotlarni to'plashni talab etadi [60; 43-b.].

Chunki keyslar real holatlardan to'plangan ma'lumotlarga va empirik tahviliga tayanadi. Amaliy mashg'ulotlarda "Keys-stadi" texnologiyasidan foydalanish uchun o'qituvchi faoliyati ikki bosqichdan iborat bo'ladi: Birinchi bosqich – keys matnini va uning tahlili uchun kerakli savollarni ishlab chiqish uchun o'qituvchining ijodiy ishi. Bu bosqich amaliy mashg'ulotdan oldin amalga oshiriladi va pedagogning ilmiy-tadqiqot, metodik va konstruktiv faoliyatini qamrab oladi. Ikkinci bosqich – o'qituvchining auditoriyadagi faoliyati. Bunga o'qituvchining kirish so'zi, xulosasi, kichik guruhlarda ishni tashkil etishi, bahs-munozarani boshqarishi, vaziyat tahlili bo'yicha talabalar faoliyatini baholashi kiradi.

Amaliy mashg'ulotni tashkil etish jarayonida keyslar bilan ishlash quyidagi uch bosqichdan iborat bo'ladi:

Birinchi bosqich – hamkorlikdagi faoliyatga kirishish. Bu bosqichning asosiy vazifasi hamkorlikdagi faoliyatga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish.

Ikkinci bosqich – hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish. Bu bosqichning asosiy vazifasi kichik guruhlarda yoki individual tarzda muammoni hal etish bo'yicha faoliyatni tashkil etish. Har bir guruhda spiker (muammo yechimini taqdim etadigan), kotib (muhokamaning yechimi yozib boradigan), vaqt nazoratchisi (vaqt o'tishini nazorat qiladigan) tanlanadi. Agar keys to'g'ri tuzilgan bo'lsa bir guruhning yechimi boshqa guruhning javobiga o'xshamaydi. O'qituvchi bahsni tashkil etadi va uni boshqaradi.

Uchinchi bosqich – hamkorlikdagi faoliyatni tahlil qilish va refleksiya. Bu bosqichning asosiy vazifasi keys bilan ishlash natijalarini ajratib ko'rsatish. O'qituvchi bahs-munozaraga yakun yasaydi, guruhlar faoliyatini baholaydi, xulosa chiqaradi.

Biz tabiiy geografiya kursi amaliy mashg'ulotlarida "Keys-stadi" texnologiyasidan foydalanish metodikasini "O'zbekiston tabiiy geografiyası" kursi misolida ko'rib chiqamiz.

Amaliy mashg'ulot mavzusi: O'zbekiston tupoqlari.

**Darsning ta'limiy maqsadi:** Talabalarning O'zbekistonda tarqalgan tupoqlarning turlari, xususiyatlari, tarqalishi va holati yuzasidan ma'ruzada egallagan bilimlarini amaliy topshiriqlarni bajarish va

keyslarni muhokama qilish orqali kengaytirish va mustahkamlash.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Talabalarni vatanparvarlik, baynalminal, ekologik, estetik, ahloqiy, ruhda tarbiyalash, tabiiy resurslardan oqilona fodalanish va ularni muhofaza qilishga o'rgatish, milliy qadriyatlarimizni e'zozlashga o'rgatish, ajdodlarga hurmat, iftixor, g'urur tuyg'usini shakllantirish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** Talabalarning O'zbekiston tuproqlari yuzasidan ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, darslik, qo'shimcha adabiyot, atlas va yozuvsiz xarita, jadval va statistik ma'lumotlar ustida mustaqil ishlash, tahlil qilish ko'nikmalarini hamda nutq va muloqat madaniyatini rivojlantirish.


**Darsni jihozlash:** O'zbekistonning tabiiy, tuproq va tabiatni muhofaza qilish xaritalari, O'zbekiston atlasi, o'quv qo'llanmalar yoki ma'ruza matnlari, O'zbekiston tuproqlariga oid jadvallar, proyektor va prezentsatsiya materialllari.

**Darsda qo'llaniladigan texnologiya:** "Blits-savol", kichik guruhlarda "Keys-stadi" texnologiyasi, kartografik, "blits o'yin".

**Darsning borishi:**

I. **Tashkiliy qism.** Talabalarning mashg'ulot mavzusi, maqsadi, borishi va mustaqil bajariladigan o'quv topshiriqlari bilan tanishtirish.

II. **O'tilgan darsni takrorlash.** Blits-savollarga javob bering.



#### 8-rasm. O'zbekiston ichki suvlarini o'qitishda "Blits-savol"lar

**III. Asosiq qism.** Yangi mavzuni o'rganish.

a) Talabalarni kichik guruhlarga ajratib, guruhlar tomonidan belgilangan va o'quv topshiriqlarini mustaqil ravishda, sifatlari bajarishga

erishish.

b) o'quv materiali asosida oldindan ishlab chiqilgan keyslarni muhokama qilish va ularni yechimiga qaratilgan o'quv faoliyatini amalga oshirish.

**1-muammoni shakllantirish:** O'zbekiston tekislik - cho'l qis midagi tuproqlar tarkibida har xil tuzlar mavjud bo'lib, chirindi miqdori kam hamda sho'rashgandir. Bunday xususiyatlarga ega bo'lish sabablari nimada?

Muammoni hal etish uchun savollar:

1. Tuproqlarda har xil tuzlarning to'planishiga sabab nima?
2. Nima sababdan cho'l zonasi tuproqlari tarkibida chirindi miqdori kam bo'ladı?
3. Qanday sharoitda taqir va sho'rhoklar vujudga keladi?
4. Sur-qo'ng'ir tuproqlarning xususiyatlari qanday?
5. O'tloq va botqoq o'tloq tuproqlar qayerlarda vujudga keladi, buning sababini tushuntiring.

**2-muammoni shakllantirish:** O'zbekiston tog'larida u yoki bu tuproq turi yoppasiga tutashib, lenta hosil qilib tarqalmagan bo'lib, ular turli balandliklarda turlicha maydonlarni egallagan, xatto bitta tuproq turida, turli xil chirindi miqdori va har xil qalinlikda uchraydi? Buni sababini izohlang.

Muammoni hal etish uchun savollar:

1. Balandlikka ko'tarilgan sari tuproq turlari o'zgarib borish sabablarini va ularga ta'sir etuvchi omillarni izohlang.
2. Nima sababdan tipik va to'q bo'z tuproqlarda gumus miqdori nisbatan ko'p va chirindi saqlovchi qoplamlari qalin bo'ladı?
3. Jigar rang tuproq bilan qoramtil qo'ng'ir tog'-o'rmon tuproklar bir xil balandlik mintaqada joylashsada ularning tafovutlari bor, sababini tushuntirib bering.
4. Och tusli qo'ng'ir tuproqlar bir tog'ning ikki yonbag'rida nima sababdan turli xil balandlikda, har xil qalinlikda va har xil chirindi miqdoriga ega bo'lib tarqalgan?
5. Torfli-botqoq tuproqlar qanday sharoitlarda vujudga keladi?

**3-muammoni shakllantirish:** Tuproq - insoniyat hayoti uchun juda zarur bo'lgan resursdir. Chunki inson o'zi uchun zarur bo'lgan ozuqa mahsulotlarini tuproqdan oladi. Bu jihatdan qaraganda, O'zbekiston juda qulay imkoniyatga ega. Chunki uning hududida

44,7 mln. ga yer maydoni bo'lib, mutaxassislarning ma'lumotiga ko'ra sug'orma dehkonchilik uchun o'zlashtirish mumkin bo'lgan yerlar 18 mln. gektarni tashkil etadi. Hozircha umumiylar fondining faqat 4,2 mln. gektaridangina sug'orma dehqonchilikda foydalanimoqda. Dehqonchilikda foydalaniyoggan yerlardagi tuproqlarning 50 foizi (2,1 mln. ga yaqin) u yoki bu darajada sho'r-lashgan hamda o'rtacha va kuchli darajada eroziyaga uchrangan. Sug'oriladigan tuproqlarning sho'rلانishi va eroziyaga uchrashiga qanday tabiiy hamda antropogen omillar sababchi bo'lmoqda?

Muammoni hal etish uchun savollar:

1. Qanday joylarda tuproq sho'rashadi va unga karshi qanday choralar ko'rildi?
2. Birlamchi va ikkilamchi sho'rلانish deganda nimani tushunasiz?
3. Tuproqlarning sho'rلانishiga ta'sir etuvchi omillarni izohlang.
4. Tuproqlarning eroziyaga uchrashish sabab va oqibatlarini tushun-tirib bering.
5. Quyidagi 13- va 14- jadval ma'lumotlarini tahlil qilib, O'zbekistonda tuproq eroziyasini qaysi turi ustunlik kilishini va uni sabablarini izohlab, ularga qarshi qanday meliorativ tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir?

#### O'zbekiston tuproq eroziyasi turlari

Erroziya turlari	Ummumiylar maydonga nisbati, % hisobida
Suv erroziyasi	14,2
Irrigatsiya erroziyasi	1,16
Shamol erroziyasi	48,7
Suv va shamol erroziyasi	4,3
Erroziyaga uchramagan maydon	31,2
Hammasi	100


#### 13-jadval

#### O'zbekiston tuproqlarining suv, irrigatsiya va shamol ta'sirida eroziyaga uchranganlik darajasi

Erroziya turlari	Ummumiylar maydonga nisbati, %			
	Kuchli	O'rtacha	Kuchsiz	Hammasi
Suv erroziyasi	42,9	26,9	30,2	100
Irrigatsiya erroziyasi	19,1	20,9	60,0	100
Shamol erroziyasi	10,8	55,6	33,6	100

#### 14-jadval

IV. Mavzuni mustahkamlash. "Blits o'yin"da faol qatnashing.



Nº	Savollar	To'g'ri javob	Sizning harakatingiz
1	Avtomorf tuproqlarga qaysi tuproq turlari kiradi?		O'tloq, botqoq, botqoq-o'tloq tuproqlar
2	O'zbekistonning adir qismida va tog' etaklari bo'ylab 400-600 m. dan 1200—1400 m. balandliklarida qanday tuproqlar uchraydi?		Suv eroziyasi
3	Farg'on'a, Zarafshon, Surxondaryo, Chirchiq, Ohangaron vodiylarida, Qarshi va Mirzacho'l cho'llarida qanday tuproqlar keng tarqalgan?		Jigar rang va qoramfir-qo'ng'ir tog'-o'mmon tuproqlar
4	Kishilar ming yillab tuproqni sug'orib, xar xil o'g'itlar solib, ishlov berib tabiiy xususiyatlarini o'zgartirib yuborgan tuproqlar qanday tuproqlar deb ataladi?		So'rqa'ng'ir, bo'z, jigar rang va qo'ng'ir tog'-o'mmon tuproqlar
5	Farg'on'a, Zarafshon vodiysida, Mirzacho'l da, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida qaysi eroziya turi kuchli?		Sug'oriladigan tuproqlar
6	O'zbekiston tog'larida 1200—1600 m. dan 2800—3000 m. Balandlik-larida qanday tuproqlar uchraydi?		Bo'z tuproqlar
7	Bo'z tuproqlar mintaqasining 62,0 % i qanday tuproqlar zimmasiga to'g'ri keladi?		Qoramfir qo'ng'ir tog' o'mmon tuproqlar
8	Gidromorf tuproqlarga qaysi tuproq turlari kiradi?		Voha tuproqlar
9	Lalmikor yerlarda tuproqlar qaysi eroziya turiga ko'p duchor bo'lmoqda?		Shamol eroziyasi
10	O'zbekiston tog'larining yuqori qismida, xususan G'arbiy Tyanshan tog'larining sernam hamda yong'oqzorlar va butalari tagida qanday tuproqlar tarqalgan?		Sug'oriladigan bo'z tuproqlar

9-rasm. O'zbekiston tuproqlarini o'qitishda "Blits o'yin"

V. Darsni yakunlash va baholash.

VI. Uyga vazifa berish. O'zbekiston tuproq xaritasini yozuvsiz xaritaga tushirib, Tekislik va tog' tuproqlariga oid "Venn diagrammasi"ni tuzing.

Amaliy mashg'ulot jarayonida bajariladigan keyslarning ketma-ketligi va hajmiga qarab darsning texnologik xaritasi ishlab chiqiladi (15-jadval).

**15-jadval.**  
**“O‘zbekiston tuproqlari” mavzusidagi Keys-stadi texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg’ulot darsining texnologik xaritasi**

Bosqichlar, vaqt	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	Talaba
<b>I-bosqich. Kirish (10 min)</b>	<p>1. O‘quv mashg’ulotining mavzusi va maqsadi, rejadagi erishilishi kerak bo‘lgan natijalarni e‘lon qiladi, ularning ahamiyatini va dozarligini asoslaydi.</p> <p>1.2. Topshiriqlarni bajarish muammoli tarza o‘tishini eslatadi.</p> <p>1.3. Amalga oshirilishi kerak bo‘lgan vazifalarni guruhlarga taqsimlaydi.</p>	<p>1.1. Eshitadilar, qiziq-tirgan savollariga javob oladilar.</p> <p>1.2. Topshiriqni qabul qiladilar va savollarga javob beradilar.</p> <p>1.3. Vizual materiallar bilan tanishadilar.</p>
<b>2-bosqich. Asosiy (60 min)</b>	<p>2.1. Talabalarni guruhlarga ajratadi. Guruhlarda ishlash tartibi tushuntiriladi. Baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari hamda qanday qo‘srimcha manbalardan foydalanish kerakligi tushuntiriladi.</p> <p>2.2. O‘tilgan mavzu bo‘yicha blits-savol o‘tkazadi.</p> <p>2.3. Amaliy mashg’ulot topshiriqlari sifatida keyslar beriladi va bajarish yo‘llari tushuntiriladi. Guruhlarda ishlash boshlanganligini e‘lon qiladi.</p> <p>2.4. Keyslarda belgilangan muammoli savol mazmuni bo‘yicha guruhlarda muzokorani tashkillashtiradi, taqdimot tinglanadi,</p> <p>2.5. Keyslar yechimi yuzasidan natijalarini tahlil qiladi, xulosalarni umumlashtiradi.</p>	<p>2.1. O‘quv topshiriqlari, baholash mezonlari bilan tanishadi. Topshiriqlarni bajarish tartibini tushunib oladi.</p> <p>2.2. Berilgan savollarga to‘liq javob berishda qatnashadi.</p> <p>2.3. Keyslar matni va mazmuni bilan tanishib chiqadilar.</p> <p>2.4. Berilgan keyslar bo‘yicha muzokoralarda ishtirok etadi. Muammoli savollarga javob beradilar. Har bir guruh o‘zlari bajargan ishni asoslash uchun taqdimot qilishadi va qolgan guruhlarning taqdimotini baholashda qatnashib, savol-javob o‘tkazishadi.</p> <p>2.5. Keyslar yechimi yuzasidan xulosa qiladi.</p>
<b>3-bosqich Yakuniy (10 min)</b>	<p>3.1. Yakuniy xulosa qiladi, o‘zaro baholash natijalarini e‘lon qiladi.</p> <p>3.2. Talabalar diqqatini asosiy jihatlarga qaratadi. Muammoni hal qilish jarayonida guruhlar faoliyatidagi muvaffaqiyatlarni ta‘kidlaydi. Bajarilgan ishning kasbiy faoliyat uchun ahamiyatni aytib o‘tadi..</p> <p>3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi.</p>	<p>3.1. Tinglaydilar, aniqlashtiradilar. Mustaqil ish uchun vazifalarni yozib oladilar.</p>

Yuqorida kabi amaliy mashg’ulotlarda keys-stadi texnologiyasini qo‘llagan holda, kreativ topshiriqlarni berish, ularni bajarish davomida, talabalarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun lozim bo‘lgan ko‘rsatma va tavsiyalarni berib borish maqsadga muvofiq. Keyslar bilan ishlashda talabalarga erkinlik berish, egallangan bilimlar negizida yangi bilimlarni o‘zlashtirishlari uchun qulay sharoitlar yaratish ularda mustaqil fikrga ega bo‘lish, o‘z fikrini to‘la bayon qilib berish kabi xislatlarni shakllantiradi. Talaba ma’ruzada egallagan bilimlarini keys-stadi texnologiyasi asosida mustahkamlab olganidan so‘ng amaliy topshiriqlarni bajarilganda, birinchidan, talabalar topshiriqning mazmun-mohiyatini to‘liq anglagan holda bajaradi, ikkinchidan, topshiriqni tez va oson bajaradi, uchinchidan yuqori natijalarga erishadi. Natijada talabalar kreativ va mustaqil fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Ta’lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri, o‘quvchi-talabarga insoniyat tarixi davomida yaratilgan bilimlarni yetkazish, fanlar asoslari bo‘yicha muntazam bilim olishlari uchun tegishli sharoit yaratish, zarur axborotlarni tanlash va mustaqil o‘qishni o‘rgatish orqali bilim olishga bo‘lgan extiyojlarini qondirish va qiziqishlarini orttirishdan iborat bo‘lib, Ushbu vazifalarni an’anaviy ta’lim texnologiyasidan foydalanilgan holda hal etib bo‘lmaydi, shu sababli ta’lim-tarbiya jarayoniga modulli ta’lim tehnologiyasini qo‘llash zarurati vujudga keldi. [36; 15-b.]

Modulli ta’lim texnologiyasi geografiya ta’limida endi rivojlanib kelayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan biri hisoblanadi. Modulli ta’lim texnologiyasi talabalarning mustaqil ishlash va ijodiy izlanish orqali o‘quv faoliyati jarayonida ko‘zlangan maqsadlarga erishishiga asoslanadi. Boshqa texnologiyalardan farqli jihat shundaki, modulli ta’lim texnologiyasi o‘quv jarayoniga modul dasturlari orqali qo‘llanilishidadir.

Modul lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, qism (blok) degan ma’noni bildiradi. Geografiyani o‘qitishda modulli ta’lim texnologiyalarini qo‘llashda darsda foydalaniladigan mavzu mantiqiy tugallangan fikrli qismlar, ya’ni modullarga ajratiladi va har bir qismni talabalar mustaqil o‘zlashtirishlari uchun o‘quv topshiriqlari tuziladi. Shu o‘quv topshiriqlari asosida, har bir modul yakunida savol-javob o‘tkaziladi va xulosa chiqariladi. Modulli ta’lim texnologiyasi asosida tashkil etilgan

darslarda talabalar modul dasturlari yordamida mustaqil ishlashga asoslangan o'quv-bilish faoliyati orqali belgilangan maqsadga erishadilar [74; 242-b.].

Bundan ko'rish mumkinki, modul bu biror predmetning tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi tushuncha bo'lib, fan, bob, bo'lim va mavzular ayrim modullarga bo'linadi. Bunda modulga o'zgarmas, qotib qolgan narsa deb qaralmasligi kerak, sababi, modul fan doirasida bir qancha va mavzu doirasida ham bir qancha modullarga ajratish mumkin.

Odatda, fan 10-15 ta bo'laklardan iborat bo'ladi va eng oddiy hollarda darslikning boblariga yoki mavzulariga mos tushishi mumkin [106; 47-b.].

Har bir modulda o'quvchilar albatta egallashi lozim bo'lgan bilimlar tizimi aniqlanadi. Masalan, "Relyef. Relyef hosil qiluvchi omillar. Makro, mezo va mikrorelyef shakkllari" ("Umumiy yer bilimi" kursi) mavzusini quyidagi modullarga bo'lish mumkin: relyef hosil qiluvchi omillar, relyef xususiyatlari, relyef turlari, tekisliklar va tog'lar. Bunda talabalar albatta bilishi lozim bo'lgan bilimlarga relyef, relyef hosil qiluvchi endogen va ekzogen omillar va ularning xususiyatlari, tekisliklar, ularning turlari, tog' tizmalari, ularning qismlari, balandligiga ko'ra turlari, joylashgan o'rni, tarmoqlari, qadimgi va yosh tog'lar, tog' oraliq botiqlari joylashgan o'rni va xususiyatlari kiradi [26; 361-b.].

Modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning afzallik tomonlari quyidagilar:

- modul dasturi talablari asosida olib boriladi;
- vaqtidan samarali foydalaniadi;
- talabalar tomonidan o'quv materiali yuqori darajada o'zlashtirilishiga, o'z ustida mustaqil ishlashiga imkon yaratiladi;
- talabalar yakka, juft holda kichik guruhlarda ishlaydi, ular o'rtasida do'stona muloqot, o'zaro yordam, hamkorlik vujudga keladi, nutqi rivojlantiriladi;
- har bir talaba o'z qiziqishi, iqtidoriga asoslanib bilimini oshirish maqsadida mustaqil va ijodiy ishlab yangi bilimlarni o'zlashtiradi;
- o'z-o'zini nazorat, o'zaro nazorat va o'qituvchi nazorati amalga oshiriladi;
- pedagogik munosabatlар o'zaro hamkorlikka asoslanadi. Dars davomida talabalarga bilim darajasiga qarab savol va topshiriqlar berib borilsa, ularda ijodiy va tanqidiy fikrlashlari rivojlanib boradi

[86; 103-b.].

Ijodiy va tanqidiy fikrlash qancha ko'p takrorlansa, u maqsadga yo'nalgan kuchga aylanadi. Bu esa talabalarda o'ziga bo'lgan ishonchni orttiradi va jamiyatimizga mustaqil fikrlaydigan, o'z muammolarini o'zi hal qiladigan qobiliyatli yoshlarni yetkazib beradi.

Biz quyida modulli ta'lim texnologiyasini "Umumiy yer bilimi" kursi misolida ko'rib chiqamiz.


Kursning maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda "Umumiy yer bilimi" kursini 3 ta yirik modulga, ya'ni, Umumiy yer bilimining maqsad va vazifalari; Koinot haqida tushuncha, Quyosh tizimi; Geografik qobiqning tuzilishi kabi makromodullarga, ularni o'z navbatida mezo va mikromodullarga quyidagicha ajratdik. 10-rasmiga qarang.

Ushbu texnologiyaning ahamiyati talabalarga keng imkoniyatlar yaratib berish bilan birga ta'lim mazmunini mustaqil egallash, o'z-o'zini nazorat va o'ziga baho berish ko'nikmalarini rivojlantirishida bo'lsa, o'qituvchilar uchun ta'lim jarayoniga ijodiy yondashishni talab qilishidadir. Sababi, modul mazmunini aniq loyihalash, nazariy materialni ketma-ket taqdim qilish, o'quv jarayonini metodik material hamda bilimni o'zlashtirishga ko'maklashadigan didaktik vositalar bilan taminlash o'qituvchining kasbiy mohorati va ijodkorligiga bog'liq. Bularni barchasi ya'ni o'rganiladigan mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlaridan kelib chiqadigan didaktik maqsad, o'quvchilar dars davomida bajaradigan o'quv topshiriqlari, topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar o'qituvchi tomonidan tuziladigan modul dasturlarida o'z ifodasini topadi.

Modul dasturlarida o'quvchilarning muayyan bir mavzuni mustaqil o'rganish bo'yicha o'quv-bilish faoliyati aks etadi [66; 21-b.].

Shuning uchun ham modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanganda o'quv faoliyatining didaktik maqsadi o'quvchilar zimmasiga yuklanadi. Sababi o'qituvchi mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlaridan kelib chiqib bir qancha modullarni ajratib talabalarga mustaqil o'rganishlari uchun topshiriqlar sifatida beriladi, talabalar esa bu modullarga oid topshiriqlarni mustaqil bajarib va o'rganib o'qituvchiga taqdimot qilib berishadi. Agar talabalar o'qituvchi tomonidan ajratilgan modullarga puxta tayyorlanib, uni chuqurroq o'rgansa oldindan ko'zlangan natijalarga ya'ni darsning didaktik maqsadiga erishadi. Aksincha bo'lsa, darsning didaktik maqsadi amalga

oshmay qoladi, shu sababdan ham modulli ta’lim texnologiyasida darsning didaktik maqsadi talabalarning o‘quv faoliyatidagi qiziqishlari va intiluvchanligiga bog‘liq. Modul dasturlar to‘g‘ri va mantiqiy ketma-ketlikda tuzilgan bo‘lsa, o‘quv jarayonini o‘ziga xos real mehnat jarayoniga aylantiradi, talabalarni individual va mustaqil ishlashlariga, mavzuni samarali o‘zlashtirishiga imkon beradi hamda kutilayotgan natijalarini kafolatlaydi.



**10-rasm. Umumiy yer bilimi kursining bloki-modulli tuzilish loyihasi**  
(Chizma muallif tomonidan tuzilgan.)

Modul dasturi bo'yicha har bir ta'lim oluvchi har qaysi modul yuzasidan izchil yo'l-yo'riq oladi. Unda modulning maqsadlari ko'r-satiladi. O'quv ishlarning ma'lum turlari tavsiya qilinadi. Modul bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari keltiriladi. Ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv faoliyati turlari erkin tanlanadi va modul bo'yicha alohida sinov o'tkaziladi. Modulli o'qitish ta'lim berishning istiqbolli shakllaridan biri bo'lib, u ta'lim oluvchilarning bilish imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi [88; 53-b.].

O'qituvchi modul dasturini tuzish uchun quyidagilarni amalga oshirishi zarur:

1. O'rganiladigan mavzuning ta'lim-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadini aniqlash. Shu maqsadlar asosida modulning didaktik maqsadini belgilash, ya'ni talabalar shu modul dasturi yordamida mustaqil ishlab, qaysi bilimlarni o'zlashtirishi, ko'nikmalarni egallashi, shaxsiy sifatlarini ortirishi lozimligi qayd etiladi.

Modul dasturining didaktik maqsadini aniqlashda o'qituvchi Geografiyanı o'qitishning didaktik maqsadlar majmuasi (DMM), ya'ni Geografiyanı o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadni, mavzuning ta-limi, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari asosida, darsda foydalilaniladigan modul dasturining didaktik maqsadi (MDM) ni, mavzu ajratilgan modullardan kelib chiqadigan hususiy didaktik maqsadni (HDM)ni aniq tasavvur qilishi zarur. 16-jadvalga qarang.

#### 16-jadval

##### Geografiyanı o'qitishning didaktik maqsadlar majmuasi

DMM			MDM			MDM		
HDM	HDM	HDM	HDM	HDM	HDM	HDM	HDM	HDM

Jadval muallif tomonidan tuzilgan.

DMM - Didaktik maqsadlar majmuasi Geografiya o'quv fani yoki bobni o'rganishda ko'zda tutilgan maqsad bo'lsa, MDM - modul dasturining didaktik maqsadi - bu bir dars davomida erishilishi lozim bo'lgan maqsad, HDM - hususiy didaktik maqsad bu - modul dasturidan o'rin olgan modullarni o'rganishdan ko'zlangan maqsadlar deb tushunmoq kerak [75; 48-b.].

Ma'lumki, har bir o'quv fani tegishli didaktik maqsadlar majmuasi (DMM) ni ko'zda tutadi. Ta'lim jarayonining asosiy shakli bo'lgan

darslar ham shu didaktik maqsadlarning ma'lum qismini amalga oshiradi. Mazkur maqsadlar modul dasturining didaktik maqsadini tashkil etadi. Dars davomida ushbu maqsadni amalga oshirish talabalarning o'quv-bilish faoliyati orqali vujudga keladi. Bir dars davomida talabalarning o'quv-bilish faoliyati elementlaridan tashkil topadi. Modulli dasturlarda o'rin olgan har bir o'quv faoliyati elementi (O'FE) modulning didaktik maqsadidan kelib chiqqan holda hususiy didaktik maqsadni ko'zda tutadi. Shu tariqa modul dasturlarida hususiy didaktik maqsadlar (HDM), modul dasturining didaktik maqsadi (MDM)ni tashkil etsa, modulli dars boshqa darslar bilan birgalikda mazkur o'quv fanidan ko'zda tutilgan didaktik maqsadlar majmuasi (DMM)ni amalga oshiradi.

2. Yangi mavzu mazmuni mantiqiy tugallangan fikrli modullarga ajratiladi. Bunda modulli ta'lim tamoyillari hisobga olingan holda o'quv materialini mazmunan tugallangan mantiqiy ketma-ketlikdagi modullarga taqsimlanadi.

3. Talabalar tomonidan o'quv materiallarini har bir modulni o'zlashtirishi uchun tashkil etiladigan o'quv faoliyati usullari belgilanadi. O'quv faoliyati usullariga bog'liq holda modul dasturidan o'rin olishi lozim bo'lgan o'quv elementlarini va ularning ketma-ketligini aniqlanadi.

4. Har bir modulni talabalar mustaqil o'zlashtirishi uchun topshiriqlar, topshiriqlarni bajarish uchun ko'rsatmalar tuziladi. Talabalar uchun asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni tanlab, internet saytlarini aniqlashtiradi. Talabaning muayyan dars davomidagi faoliyati uning o'quv faoliyatini tashkil etishini nazarda tutgan holda har bir modulni o'zlashtirishdagi faoliyati o'quv faoliyatini elementi (O'FE) ni tashkil qiladi. Agar dars mazmuni 4 ta moduldan tashkil topsa, talabalarning o'quv faoliyati ham 4 ta elementdan tashkil topadi. Shuni qayd etish kerakki, dars yakunida talabalarning o'z faoliyatlarini tahlil qilishi va o'z-o'zini baholashini amalga oshirish maqsadida modul dasturini yakunlash bosqichi bo'ladi. Shu sababli fikr yuritilayotgan ushbu darsda foydalilaniladigan modul dasturida 5 ta o'quv faoliyati elementi (O'FE) bo'ladi. O'qituvchi shu asosda modul dasturini tuzadi. Mazkur darslarda talabalarning bilish faoliyati modullarni ketma-ket o'zlashtirishlarini nazarda tutgan holda tashkil etiladi. Shu sababli modullarning tartib raqamiga mos holda o'quv faoliyati elementlari belgilanadi. O'quv faoliyati elementlari talabalarning muayyan

modulning xususiy didaktik maqsadini, talabalar bajaradigan o'quv topshiriqlarni, topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi;

5. Modulni yakunlash yo'llarini ishlab chiqish. Talabalarga modulning xususiy maqsadi bajariladigan topshiriqlar e'lon etilganidan so'ng, har bir modulni talabalar o'zlashtirishi uchun tegishli vaqt ajratiladi. Keyin shu modul yuzasidan savol-javob, o'quv bahsi, munozara o'tkaziladi. Shu tariqa har bir modul ustida o'quvchilarning mustaqil ishi tashkil etiladi;

6. Modul dasturini yakunlashda o'quvchilarga modulning didaktik maqsadini o'qib chiqish, maqsadga qay darajada erishganligini belgilash, o'z o'quv faoliyatini besh balli tizim bilan baholash tavsiya etiladi.

Modulli ta'lif texnologiyasidan foydalanishda o'qituvchi quyidagi mezonlarga amal qilishi lozim:

1. Talabalarga mustaqil o'zlashtirish uchun tavsiya etiladigan o'quv materiali talabalarning o'quv imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ular uddalay oladigan va shu bilan birga maksimal darajada qiyin bo'lmasligi kerak.

2. Talabalar o'quv materialini dasturda belgilangan vaqt doirasida egallashlari kerak.

3. O'qituvchi talabalarni o'quv materiallarini mustaqil va ijodiy o'zlashtirish ko'nikmasiga ega bo'lishiga erishishi lozim. Bunda, dastlab o'qituvchi darsga olib kiradigan axborotni ikki qismga ajratadi. Birinchi qismini talabalar o'qituvchi yordamida ikkinchi qismini ijodiy va mustaqil o'zlashtirishlari lozim. Keyin belgilangan mavzularni modulli dars shaklida o'tkazishni mo'ljallab, modul dasturlarini tuzadi.

Biz quyida tabiiy geografiya kursi amaliy mashg'ulotlarida modulli ta'lif texnologiyasidan foydalanish metodikasini "O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi" kursining "O'rta Osiyo ichki suvlari va suv boyliklari. Hozirgi zamon muzliklari" mavzusi misolida modul dasturi tuzilishini ko'rib chiqamiz [69; 72].

**Modul dasturining didaktik maqsadi.** Talaba modul dasturi yordamida O'rta Osiyo ichki suvlari tarkibini va o'lka hududining gidrologik xususiyatlarini, O'rta Osiyo daryolarining o'ziga xos xususiyatlarini va to'yinish manbalarini, O'rta Osiyo daryolari haqida umumiy ma'lumotlarni, O'rta Osiyo ko'llari va suv omborlarining

ahamiyatini, O'rta Osiyo yer osti suvlarini va ularning xususiyatlarni, Hozirgi zamon tog' muzliklarning ahamiyatini va ularning holati o'rganish orqali ma'ruzada egallagan bilimlarini kengaytirishi va mustahkamlashi, jadvalli ma'lumotlar bilan ishlash va tahlil qilish, bilib olish va xulosa chiqarish, xarita va yozuv siz xarita bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishi kerak.

17-jadval.

#### Amaliy mashg'ulotning modul dasturi

O'FE	Talabalar o'zlashtirishlari lozim bo'lgan o'quv topshiriqlari	Topshiriqlarni bajarish uchun ko'nikmalar
1-O'FE	<p>Maqsad: O'rta Osiyo ichki suvlari tarkibini va o'lka hududining gidrologik xususiyatlarini o'rganish.</p> <p>Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib, O'rta Osiyo tabiiy xaritasini o'rganing va quyidagi savollarga javob bering, topshiriqlarni bajaring.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'rta Osiyo ichki suvlari nimalar kiradi?</li> <li>2. Nima sababdan O'rta Osyoda ichki suvlari juda notejis joylashgan?</li> <li>3. O'lka hududi gidrologik jihatdan qanday mintaqalarga ajraladi?</li> <li>4. O'rta Osiyo ichki suvlarini yozuv siz xaritaga tushiring.</li> </ol>	Kichik guruhlar bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtiroy eting.
2-O'FE	<p>Maqsad: O'rta Osiyo daryolarining o'ziga xos xususiyatlarini va to'yinish manbalarini o'rganish.</p> <p>Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib, O'rta Osiyo tabiiy xaritasini o'rganing va quyidagi savollarga javob bering, topshiriqlarni bajaring.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'lkanning gidrografik xususiyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini aytинг.</li> <li>2. O'rta Osiyo daryolari to'yinishinga ko'ra qanday guruhlarga ajraladi?</li> <li>3. Daryolarning to'yinishi uning oqim rejimiga qanday ta'sir qiladi?</li> <li>4. O'rta Osiyo daryolarining to'yinishing turlari nomli 18-jadvalni to'ldiring.</li> </ol>	Kichik guruhlar bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtiroy eting
3-O'FE	<p>Maqsad: O'rta Osiyo daryolari haqida umumiy ma'lumotlarni o'rganish.</p> <p>Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib, O'rta Osiyo tabiiy xaritasini o'rganing va quyidagi savollarga javob bering, topshiriqlarni bajaring.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'rta Osiyo daryolarini qanday mustaqil berk havzalarga ajratish mumkin?</li> <li>2. Har bir berk havzaga tegishli bo'lgan daryolarni va ularning boshlandigan tog' tizmalarini aytинг.</li> <li>3. O'rta Osyodagi eng uzun va eng sersuv daryolarga ta'rif bering.</li> <li>4. O'rta Osiyo daryolari haqida umumiy ma'lumot nomli 19-jadvalni to'ldiring.</li> </ol>	Kichik guruhlar bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtiroy eting

**18-jadval**

4-O'FE	<p>Maqsad: O'rta Osiyo ko'llari va suv omborlarini ahamiyatini o'rganish.</p> <p>Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib, O'rta Osiyo tabiiy xaritasini o'rganing va quyidagi savollarga javob bering, topshiriqlarni bajaring.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Nima sababdan O'rta Osiyoda ko'llar notekis taqsimlangan?</li> <li>2. O'rta Osiyodagi yirik ko'llarga ta'rif bering.</li> <li>3. O'rta Osiyo daryolarida qanday suv omborlar barpo etilgan va ular qanday maqsadlarda qurilgan?</li> <li>4. O'rta Osiyo ko'llari nomli 20-jadvalni to'ldiring.</li> </ol>	Kichik guruhlar bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting
5-O'FE	<p>Maqsad: O'rta Osiyo yer osti suvlari va ularning xususiyatlarni o'rganish.</p> <p>Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib, O'rta Osiyo tabiiy xaritasini o'rganing va quyidagi savollarga javob bering, topshiriqlarni bajaring.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Yer osti suvlari o'lka hududida qanday taqsimlangan?</li> <li>2. Yer osti suvlari qanday guruhlarga bo'linadi va ular qaysi omillar natijasida hosil bo'ladi?</li> <li>3. Yer osti suvlari o'lka aholisi hayotida qanday ahamiyatga ega?</li> <li>4. Yer osti suvlari qatlamlarini chizmada aks ettirib, qanday hududlarda ular bosimli yoki bosimsiz holatda bo'lishini tushuntiring.</li> </ol>	Kichik guruhlar bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting
6-O'FE	<p>Maqsad: Hozirgi zamon tog' muzliklarning ahamiyatini va ularning holati o'rganish.</p> <p>Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib, O'rta Osiyo tabiiy xaritasini o'rganing va quyidagi savollarga javob bering, topshiriqlarni bajaring.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'rta Osiyo tog'larida qor chizig'i necha metr balandliklardan o'tadi?</li> <li>2. Inson xo'jalik faoliyatida tog' muzliklarning ahamiyati qanday?</li> <li>3. Tog'lardagi muzliklarning holati qanday va ularni maydonini-yildan yilga kamayib borish sabablarini tushuntiring.</li> <li>4. O'rta Osiyo tog'laridagi hozirgi zamon muzliklari nomli 21-jadvalni to'ldiring.</li> </ol>	Kichik guruhlar bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting
7-O'FE	<p>Modul dasturini yakunlash. Modul dasturini didaktik maqsadini o'qib chiqing.</p> <p>Siz unga qay darajada erishdingiz?</p> <p>O'zingizning o'quv faoliyatizingizni besh balli tizimda baholang. O'quv faoliyatizingizdan qoniqish hosil qilgan bo'lsangiz, mavzu boyicha nazorat savollari nomli 22-jadvalni to'ldiring. Agar o'z o'quv faoliyatizingizdan erishilgan natija sizni qanoatlanitmasa, modul dasturi yordamida mavzuni qayta o'rganing.</p>	

**O'rta Osiyo daryolarining to'yinish turlari**

Daryolar	To'yinish turlari						
	Muz-qor	Qor-muz	Muz	Qor-yomg'ir	Cho'l tur (Qozog'iston tur)	Suv eng ko'p bo'ladiyan oylar	Suv eng kam bo'ladiyan oylar
Amudaryo							
Sirdaryo							
Zarafshon							
Chirchiq							
Ohangaron							
So'x							
Isfara							
Qashqadaryo							
Surxondaryo							
Murg'ob							
Tajang							
Vaxsh							
Panj							
Ili							
Qoratol							
Chu							
To'rg'ay							
Sarisuv							
Nura							
Ayagus							
Talas							

**19-jadval**

**O'rta Osiyo daryolari haqida umumiyy ma'lumot**

Daryolar nomi	Uzunligi km.	Havzasining maydoni kv.km.	Daryoning egrigubriliqi	Daryoning qiyaligi	Qayerdan boshlanadi	Qayerga quylaldi
Ili						
Qoratol						
Aqsu						
Lepsa						
Tentek						
Chu						
Talas						
Sirdaryo						

Qoradaryo					
Oqbura					
Isfayramsoy					
Norin					
Shohimardon					
So'x					
Isfara					
Ohangaron					
Chirchiq					
Pskom					
Chotqol					
Ugom					
To'rg'ay					
Nura					
Sarisu					
Oqsu					
Zarafshon					
Qashqadaryo					
Yakkabog'daryo					
Amudaryo					
Panj					
Vaxsh					
Kofirnixon					
Surxondaryo					
To'polong					
Keles					
Atrek					
Murg'ob					
Tajan					

20-jadval

### O'rta Osiyo ko'llari

Ko'llar nomi	Geografik o'rni	Maydoni kv.km.	Qaysi daryo quyiladi	Qaysi daryo oqib chiqadi	Ko'l qozoni-ning kelib chiqishiga ko'ra qanday ko'l
Orol					
Balxash					
Issiqko'l					
Rangko'l					
Sonko'l					
Zaysanko'l					

Tengiz					
Olako'l					
Sarez					
Sudoche					
SHo'rko'l					
Yashilko'l					
Zo'rko'l					
Iskandarko'l					
Sarichelek					
Chatirko'l					

21-jadval

### O'rta Osiyo tog'laridagi hozirgi zamон muzliklari

t/r	Muzliklar joylashgan tog' tizmalari	Muzliklar maydoni km.kv.
Tyanshan		
1	Saur-Tarbog'otoy	
2	Jung'oriya Olatovi Tyanshan	
3	Iliorti Olatovi	
4	Kungay Olatovi	
5	Qirg'iz tizmasi va Talas Olatovining shimoliy yonbag'ri	
6	Terskay Olatovi	
7	Oqshiroq tizmasi	
8	Qo'yilitov tizmasi	
9	Xontangri va G'alaba rayoni (Sarijoz, Inelchik, Qayirdi)	
10	Ko'kshag'altov tizmasi va Barkalday	
11	Jetimtov va Jetimbek tizmalari	
12	Norintov	
13	Otboshi	
14	Shusamirtov	
15	Farg'ona tizmasi	
16	Chotqol tizmasi va Talas Olatovining Chirchiq havzasiga qarashli qismi	
Oloy		
1	Oloy tizmasi	
2	Turkiston tizmasi	
3	Zarafshon-Hisor tizmasi (Zarafshon daryosi havzasiga qarashli)	
4	Hisor tizmasining janubiy yonbag'ri	

	Oloy tizmasi bo'yicha jami	
<b>Pomir</b>		
1	Oloy tizmasi	
2	Zulmat tizmasi	
3	Shimoliy Pomir	
4	Fanlar Akademiyasi tizmasi	
5	Pyotr I tizmasi	
6	Darvoz tizmasi	
7	Vanch tizmasi	
8	Yazg'ulom tizmasi	
9	Muzko'l tizmasi	
10	Rushon va Bozordara tizmasi	
11	Shug'un tizmasi	
12	Boqsig'ir tizmasi	
13	Ishakshin tizmasi	
14	Shoxdara tizmasi	
15	Janubiy Alichur	
16	Vohan tizmasi	
17	Sariko'l tizmasi	
	Pomir tog' tizmasi bo'yicha jami	
	<b>O'rta Osiyo bo'yicha jami</b>	

**22-jadval**

**Mavzu boyicha nazorat savollari**

Savollar	Javoblar
O'rta Osiyo daryolari nimalardan to'ynishini yozing.	
O'rta Osiyo daryolari o'z suvini qanday berk havzalarga quyadi?	
Sirdaryoga quyluvchi daryolarni yozing.	
O'rta Osiyodagi eng yirik ko'llarni yozing.	
Ko'llar botig'ini kelib chiqishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?	
O'rta Osiyoda qurilgan suv omborlarining vazifalari nimalardan iborat ekan?	
Yer osti suvlari deb nimaga aytildi? Qanday jinslar suv o'tkazadigan, qandaylari suv o'tkazmaydigan jinslar deb ataladi?	
O'rta Osiyoni qaysi hududlari yer osti suvlariiga boy?	

Qor chizig'i nima? Uning muzliklar hosil bo'lishi va joylanishida qanday ahamiyati bor?	
Yeng katta muzliklar qaysilar va ular qaysi tog'da joylashgan?	

Tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilishda modul dasturining didaktik maqsadidan kelib chiqib, darsning texnologik xaritasini ishlab chiqish o'quv faoliyatining jonli va faol bo'lishiga olib keladi. Shu sababdan darsning texnologik xaritasini ishlab chiqish muhim amaliy ahamiyatga ega.

**23-jadval.**

**"O'rta Osiyo ichki suvlari va suv boyliklari. Hozirgi zamон muzliklari" mavzusidagi modulli ta'lim texnologiyasining kichik guruhlarda ishslash metodiga asoslangan amaliy mashg'ulot darsining texnologik xaritasi**

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
<b>1-bosqich. Kirish (10 min)</b>		
	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi va maqsadi, rejadagi erishilishi kerak bo'lgan natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyatini va dozarligini asoslaydi. 1.2. Topshiriqlarni bajarish modul tarzda o'tishini eslatadi va talabalarni guruhlarga ajratadi. 1.3. Amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalarni guruhlarga taqsimlaysidi.	1.1. Eshitadilar, yozadilar. 1.2. Topshiriqni qabul qiladilar va savollarga javob beradilar. 1.3. Vizual materiallar bilan tanishadilar.
<b>2-bosqich. Asosiy (60 min)</b>		
	2.1. Guruhlarda ishslash tartibi tushuntiriladi. Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari hamda qanday qo'shimcha manbalardan foydalanan kerakligi tushuntiriladi. 2.2. O'tilgan mavzu bo'yicha "Aqliy hujum" savollari beriladi. 2.3. Amaliy mashg'ulotning modul dasturi beriladi va bajarish yo'llari tushuntiriladi. 2.4. Guruhlarda ishslash boshlanganligini e'lon qiladi 2.5. Modul dasturini yakunlash lozimligi e'lon qilinadi. 2.6. Natijalarini baholashni tashkil etadi, izohlaydi, javoblarni tartibga keltiradi, shakllangan xulosalarini umumlashtiradi. 2.7. Guruhlarda xulosalar umumlashtiriladi va aniqliklar kiritiladi, baholar e'lon qilinadi.	2.1. O'quv topshiriqlari, baholash mezonlari bilan tanishadi. Topshiriqlarni bajarish tartibini tushunib oladi. 2.2. Berilgan savollarga to'liq javob berishda qatnashadi. 2.3. Amaliy mashg'ulotning modul dasturi bilan tanishadilar. 2.4. Topshiriqlarni bajaradilar va xulosa qildi. Savollarga javob beradilar. Jadvallarni to'ldirishadi. 2.5. Har bir guruh o'zlarini bajargan ishni asoslash uchun taqdimot qilishadi. 2.6. Guruhlarning taqdimotini baholashda qatnashib, savol-javob o'tkazishadi. 2.4. Guruhlarda ishlaydi va hisobot tayyorlaydi. Mashg'ulot yuzasidan takliflar beradi.
<b>3-bosqich. Yukuniy (10 min)</b>		
	3.1. Mashg'ulotga xulosa qiladi, talabalarni baholaydi. 3.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi: mavzuga oid qo'shimcha ma'lumotlarni o'rganish.	3.1. Eshitadi, yozib oladi. 3.2. Topshiriqni bajaradi.

Tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilishda modulli ta’lim texnologiyasidan foydalanish orqali talabalar faqat tabiat va jamiyat to‘g‘risida yangi bilimlarnigina topib qolmasdan mazkur darsning qiziqarli va jonli bo‘lishiga erishiladi. Bu esa talabalarni ijodiy tafakkurini hamda fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

### **Ikkinci bob yuzasidan xulosalar**

1. Oliy ta’lim muassasalarida tabiiy geografiya kurslarini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ayniqsa, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning turli shakllaridan mavzuning maqsadidan kelib chiqqan holda samarali foydalanish imkoniyatlari katta ekanligi aniqlandi.

2. “Pedagogik texnologiya” ta’lim jarayonida ko‘zlangan maqsadga yo‘naltirilgan ma’lumotlarni uzatish (pedagog), bilimlarni o‘zlashtirish (talaba) va ulardan amalda foydalanishning oson va qulay ta’lim metodlari, usullari, yo‘llari, vositalari yig‘indisi bo‘lib, bilim oluvchini mustaqil o‘qishga, faolligini oshirishga, mantiqiy o‘ylanishga, ijodiy izlanishga, mustaqil fikrlashga va qaror qabul qilishga o‘rgatishni kafolatlaydigan pedagogik jarayon loyihasi hisoblanadi.

3. Tabiiy geografiya kurslaridan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish texnologiyasini takomillashtirish orqali talabalarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishning tuzilmaviy-funksional modeli komponentlari (maqsad, mazmun, jarayon, baholash-natijaviy) mazmuni tabiiy geografiya kurslarini o‘zaro bog‘liqlikda o‘qitish modulini izchillik tamoyili asosida joriy etish orqali takomillashtirildi.

4. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish texnologiyalarini joriy etishning axborot-metodik ta’minoti “Geografiyadan masala va mashqlar” nomli o‘quv qo‘llanma, o‘quv-uslubiy majmua, “Amaliy mashg‘ulotlarning modul dasturi”, faol va interfaol texnologiyalar (Case study, Clusters, aqliy hujum, FSMU, Business game, “Omad kulib boq-qanda”), amaliy topshiriqlar tizimi, PISA va tashxislash testlari vositasida integrativ takomillashtirildi.

5. Amaliy mashg‘ulotlarni faol va interfaol texnologiyalar asosida tashkil etish talabalarning ijodiy fikrlash, mustaqil bilim olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, o‘zlashtirgan bilimlarini aniq pedagogik vaziyatlarda qo‘llash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish, yangi bilim

olishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, ilmiy salohiyatini kengaytirish, tabiiy geografiya kurslari mazmuniga ma’lumotlarni izlash, topish va ulardan foydalanish komponentsiyalarini rivojlantirishga olib kelishi isbotlandi.

### **III-BOB. AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL QILISH BO'YICHA TAJRIBA-SINOV ISHLARI VA UNING NATIJALARI TAHLILI**

#### **3.1-§. Tabiiy geografiya kurslarida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish**

Bugungi kunda yurtimizda ta'lif islohatlaridan ko'zlangan asosiy maqsad yuksak bilimli barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishda ta'lif maskanlari zimmasiga ta'lif jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, kartografik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish borasida chet el tajribasini chuqur va har tomonlama o'r ganib chiqib, respublikamiz ta'lif tizimiga ularni joriy etish vazifasi yuklatilgan. Mana shunday muhim vazifalarni amalga oshirishda oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan ko'plab fanlar qatori geografiya fani ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli yosh avlod mukammal bilim, ko'nikma va malakalarni egalashlari uchun geografiya darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish lozim. Shu sababli, biz tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasini ishlab chiqib, ularni amaliyotga joriy qilish maqsadida oliy ta'lif muassasalari tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish dasturini ishlab chiqdik.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish jarayonida oliy ta'lif muassasalari tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda quyidagi muammolar mavjudligi aniqlandi:

- oliy ta'lif muassasalarida tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning hozirgi globallashuv sharoitdagi mavjud holati tahlil etilmaganligi;
- amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning moddiy texnik bazasi va didaktik shart-sharoitlari yetarlicha o'rganilmaganligi;
- ta'lif sifatini oshirishda amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib tashkil etishning ahamiyati va dolzarbli ko'rsatilmaganligi;
- tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning zamonaviy modeli ishlab chiqilmaganligi;

- tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llanilishi atroficha yori tilmaganligi;

- amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda dars ishlanma va texnologik xaritalarning mukammal tuzilmaganligi;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqilgan amaliy mashg'ulot loyihalaring amaliyotga joriy etilmaganligi;

- tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish samaradorligi bo'yicha tajriba-sinov ishlarini o'tkazilmaganligi;

Tajriba-sinovning maqsadi oliy ta'lif muassasalari tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish metodikasini amaliyotga joriy etish bo'yicha tajriba-sinovdan o'tkazish va natijalar asosida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tajriba-sinov ishlarining vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

1. Tajriba-sinov maydonlarini aniqlash.
2. Oliy ta'lif muassasalarida tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning hozirgi globallashuv sharoitdagи mavjud holatini o'rganish.
3. Oliy ta'lif muassasalarining amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha moddiy texnik bazasi va didaktik shart-sharoitlarini o'rganib, kerakli tavsiyalar berish.
4. Ta'lif samaradorligini oshirishda amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib tashkil etishning ahamiyati va dolzarbligini asoslash.
5. Tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning zamonaviy modelining o'rmini belgilash.
6. Tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda dars ishlanma va texnologik xaritalarini ishlab chiqish va tajriba-sinovdan o'tkazish.
7. Tajriba-sinov o'tkazishda foydalilaniladigan usullarni aniqlash.
8. Amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini o'tkazish bosqichlarini

aniqlash.

9. Amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning samaradorligi bo'yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalarini tahlil etish.

10. Tajriba-sinov o'tkazish mobaynida olingan natijalarning samaradorligini matematik-statistik metodlar yordamida aniqlash.

11. Tajriba-sinov ishlari yakunidagi ko'rsatkichlarni o'zaro qiyoslash asosida xulosa chiqarish.

12. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqilgan amaliy mashg'ulot loyihamonini ta'lim amaliyotiga keng joriy etish.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti hamda Jizzax davlat pedagogika institutilarida olib borildi. Tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning sifat va samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov o'tkazish uchun yuqoridaq oliy ta'lim muassasalarining "Geografiya o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishining 2 ta guruhlari tanlab olindi. 1- guruhni tajriba guruhi, 2- nazorat guruhi guruhi sifatida tanlandi.

Tajriba-sinov ishlari "Geografiya o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi uchun mutaxassislik fanlari hisoblangan "Umumiy yer bilimi" (1-kurs), "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" (2-kurs), "O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi" va "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" (3-kurs) tanlandi. Ushbu kurslar bo'yicha dissertatsiyasi ishi yuzasidan amaliy mashg'ulot darslarida tajriba-sinov ishlarni olib borildi. Tajriba-sinov davrida 1-guruhlarda ya'ni nazorat guruhlarida an'anaviy usulda, 2-guruhlarda ya'ni tajriba guruhlarida darslar dissertatsiyasining 2.3, va 2.4. bo'limlarida nazariy jihatdan yoritilgan interfaol metodlar, "Keys-stadi" texnologiyasi va modulli ta'lim texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan amaliy mashg'ulot ishlanmalari foydalanib tajriba-sinov ishlari tashkil etildi.

Tadqiqot davomida "Umumiy yer bilimi" kursining "Geografik kashfiyotlarning asosiy tarixiy davrlari", "Yer to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar", "O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi" kursining "O'rta Osiyo ichki suvlari va suv boyliklari, hozirgi zamon muzliklari" mavzularini o'qitishda modulli ta'lim texnologiyasi (kichik guruhlarda

ishlash metodi), B.B.B. jadvali, blits-savol, aqliy hujum, kartografik texnologiyalar, "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" kursining "Afrika materigi relyefi" mavzusini o'qitishda interfaol metodlar - "Blits-savol", "Klaster", "Venn diagrammasi", "FSMU", "Geografik tavsifda xato bormi", "Ortiqchasini toping", "Omad kulib boqqanda", "Toifalash jadvali" metodlari va kartografik texnologiyalar, "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" kursining "O'zbekiston tuproqlari" mavzusini o'qitishda "Keys-stadi" texnologiyasi, blits-savol, kartografik texnologiyalardan foydalanildi.

Mavzular o'rganib bo'linganidan so'ng samaradorlikni aniqlash maqsadida mavzularga oid ishning ilova qismidagi testlardan foydalanib, test sinovlari o'tkazildi va 5 baholik tizimda baholandi. Shuni alohida qayd etish joizki, test savollari 3 xil murakkablik darajasiga ega bo'lib, 1-daraja oson, 2-darajada o'rtacha murakkab va 3-darajada murakkab testlardan foydalanildi. Bu test darajalarning bir-biridan farqi, 1-oson darajadagi testlarda savol va javoblar sodda va talaba topishi uchun oson tarzda berilgan bo'lsa, 2- va 3- o'rtacha murakkab va murakkab testlarda talabalar savollar javobni topishda ijodiy yondashadi, izlanadi, mustaqil mushohada yuritadi, avval egallagan bilimlariga tayanadi.

Shuningdek, biz testlar orasiga PISA (inglizcha - Programme for International Student Assessment, o'zbekcha - Xalqaro talabalarni baholash dasturi) testlardan ham qo'shdik, bunday testlar ularning ijodiy va tanqidiy fikr bildirishlariga imkon beradi va bunday testlarni tuzish ko'nikmalarini rivojlantiradi [20; 21-b.]

Pedagogik tajriba-sinov ishlari 2019-2021 yillarga mo'ljallangan bo'lib, 4 ta bosqichda amalga oshirildi.

**Tayyorgarlik bosqichi.** Bu jarayonda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishning umumiy ahvoli, tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni loyihalash holati o'rganildi. Bu jarayon dalillarni yig'ish, kuzatish va suhbat uyushtirish orqali olib borildi. Dalillarni yig'ish ilmiy tadqiqot ishining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda quyidagi tartibda amalga oshirildi: "Geografiya o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi DTS, o'quv reja, fan dasturi, darslik va o'quv qo'llanmalar mazmuni va o'qituvchilar faoliyati o'rganib chiqildi, "Geografiya o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishlarida o'qiyotgan talabalar guruhidan tajriba-sinov maydonlari aniqlandi.

**Izlanish bosqichi.** Bu bosqichda amaliy mashg'ulotlarni zamona-

viy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga bag'ishlangan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, mavjud o'quv va o'quv-metodik qo'llanmalar orqali fan mazmunini talabalarga samarali yetkazish ishlarini olib borish e'tiborga olindi. Izlanish jarayonida o'qitishning zamonaviy pedagogik va kartografik texnologiyalariga asoslangan o'quv mashg'uloti ishlanmalarini tuzish asosida professor-o'qituvchilarga metodik yordam berish nazarda tutildi. Tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish bo'yicha tayyorlangan o'quv materiallari loyihamalarini tajiriba-sinovdan o'tkazish bo'yicha tadbirlar amalga oshirildi.

**O'qitish bosqichi.** Bu bosqichda tajriba-sinov o'tkazilayotgan oliy ta'limga muassasalarida guruhlarni tanlash, ularning tajriba va nazorat guruhiga ajratildi. Tajriba guruhidagi amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish hamda axborot va kartografik texnologiyalarga asoslangan holda o'quv faoliyatini tashkil etish belgilandi. Nazorat guruhida amaldagi o'quv adabiyotlari asosida oliy ta'limga muassasalarini professor-o'qituvchilarining tajribasiga asoslanib amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Bu jarayonda izlanish bosqichida to'plangan, materiallar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan dars ishlanmalarning ishonchliligi tekshirildi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan dars ishlanma va darsning texnologik xaritalarining yutuq va kamchiliklari aniqlanib, takomillashtirilib borildi. Ularni takomillashtirishga oid metodik tavsiya va xulosalar ishlab chiqilib, tahrir qilinib borildi.

**Tasdiqlovchi bosqich.** Bu yakunlovchi bosqichda tajriba va nazorat guruhidagi talabalarning nazorat ishlari, testlar va savol-javoblar asosida aniqlangan bilim darajalari taqqoslandi va xulosalar chiqarildi va o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining umumiy tahlili ishlab chiqildi. Bu bosqichda olingan natijalar umumlashtirildi, xulosalandi va matematik-statistika yordamida tahlil qilindi. Jarayonda bevosita ishtirokchi sifatida qatnashish va kuzatishlar asosida nazorat va tajriba guruhlarida amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar berildi.

Tadqiqot davomida ilgari surilgan g'oyalar asosida tanlab olingan oliy ta'limga muassasalaridagi muammolar va bu g'oyani amalga oshirishning holati o'rganilib tahlil etildi, "Geografiya o'qitish metodikasi" ta'limga yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchilarning faoliyati yuzasidan kuzatishlar olib borildi, suhbatlar o'tkazildi, yetakchi olimlar,

pedagoglarning tadqiqot mavzusiga oid ilmiy ishlari tahlil qilindi. Shundan so'ng tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlar zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida dars ishlanma va darsning texnologik xaritalari ishlab chiqildi, u asosida mashg'ulotlarni olib borish nazorat qilindi va tanlab olingan ta'limga muassasalarining ta'limga jarayoniga tatbiq etildi.

Tajriba-sinov o'tkazishda pedagogik tajriba usuli; pedagogik kuzatuv usuli; suhbat usuli; innovations-pedagogik usul va boshqalardan foydalанинди. Tanlangan yo'ldan og'ishmaslik maqsadida pedagogikada baholashning axborot ta'minoti va texnologiyasiga xos bo'lgan metodik jihatlarga to'xtalinib, statistikaning tanlanma usuli keng qo'llanildi. Ilmiy tadqiqot yuzasidan ishlab chiqilgan tajriba-sinov dastur asosida oliy ta'limga muassasalarida olib borildi. Tajriba-sinov ishlarida talabalar bilan suhbatlar tashkil etilib, testlar o'tkazildi. Bularni o'tkazish uchun, avvalo, o'quv muassasalarini rahbariyati, professor-o'qituvchilar jamoasi bilan fikrashildi.

Oliy ta'limga muassasalarini tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg'ulotlari tashkil etildi va olingan natijalar umumlashtirildi. Tajriba-sinov o'tkazish mobaynida olingan natijalar matematik-statistik jihatdan qayta ishlandi va tajriba-sinov ishlarining tajriba yakunidagi ko'rsatkichlarini o'zaro qiyoslash asosida yakuniy xulosa chiqarildi. Talabalar bilimini baholashda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash va ta'limga samaradorligini ko'rsatish maqsadida tajriba va nazorat guruhlarida o'tkazilgan test va nazorat ishlari natijalarini hisoblash qulay bo'lish uchun 100 ballik reyting tizimidan 5 baholik tizimga o'tkazildi.

Tajriba-sinov boshlanishida bilim darajalarining yaqinligi mezonini asosida oliy ta'limga muassasalarida tahsil olayotgan talabalar guruhlaridan tanlanma usul bilan tajriba-sinov uchun tajriba guruhlarida 78 nafar, nazorat guruhlarida 80 nafar qatnashchining natijalarini tahlil qilindi.

Tadqiqot ishining umumiy g'oyalari dissertatsiya ko'rinishida bayon qilindi. Dissertatsiya materiali kafedra xodimlari, mutaxassislar, amaliyotchi professor-o'qituvchilar, metodistlar oliy ta'limga muassasalarini va rahbarlarini ishtirokida muhokamalardan o'tkazildi. Tegishli tuzatishlar kiritildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarida tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy faraz tasdiqdan o'tkazildi.

### 3.2-§. Tajriba-sinov ishlari natijalarining matematik-statistik tahlili

Pedagogik tajriba-sinov ishlari.

2019-2020 o'quv yilida.

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutining 55 nafar;

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 51 nafar;

Jizzax davlat pedagogika institutining 52 nafar talabalarini jalb qilindi. Jami: 158 nafar.

2020-2021 o'quv yilida.

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutining 48 nafar;

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 47 nafar;

Jizzax davlat pedagogika institutining 47 nafar talabalarini jalb qilindi. Jami: 142 nafar.

2021-2022 o'quv yili I semistridda.

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutining 42 nafar;

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 45 nafar;

Jizzax davlat pedagogika institutining 46 nafar talabalarini jalb qilindi. Jami: 133 nafar.

“Geografiya o'qitish metodikasi” ta'lif yo'nalishida o'qitiladigan “Umumiy yer bilimi” (1-kurs), “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiysi” (2-kurs), “O'rta Osiyo tabiiy geografiysi” va “O'zbekiston tabiiy geografiysi” (3-kurs) kurslaridan amaliy mashg'ulotni tashkil etish texnologiyasi va uni qo'llashning metodik tizimi, o'quv-uslubiy ta'minoti tajriba-sinovdan o'tkazildi. Talabalarning fanga oid bilimlarining rivojlanganlik darajalari (5 – a'lo 4 – yaxshi, 3 – qoniqarli, 2 – qoniqarsiz) kompetensiyaviy mezonlar (motivatsion, kognitiv, faoliyatli) asosida aniqlandi (1-jadval). Taklif etilgan texnologiya va talabalarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish modeli tabiiy geografiya kurslarini o'zlashtirish samaradorligini oshirishga olib keldi. Ta'lif samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba va

nazorat guruhlari talabalarining tajriba-sinov ishlari dastlabki va yakunlovchi bosqichlarda nazorat topshiriqlarini bajarish natijalari tahlil etilib, 5 ballik tizim asosida baholandi. Natjalarning matematik-statistik tahlilini amalga oshirishda  $\chi^2$  (xi kvadrat) mezonidan foydalanildi. Tajriba-sinov ishlari natijalarini yakuniy natijalari fanlar kesimida 24-jadvalda keltirilgan.


24-jadval

Tabiiy geografiya kurslari bo'yicha yakuniy natijalar tahlili

Kurs nomi	Guruh nomi	"5"	"4"	"3"	"2"	Ortacha	Dispersiya	Variatsiya koefss.	ishonchli oraliq	xi-kvadrat statistik qiymati Kritik qiymat	Samara-dorlik
Umumiy yer bilimi	Tajriba guruh (78 nafar)		31	24	1	3,95	0,65	20,3	3,71 4,12	10,997	1,12
	Nazorat guruh (80 nafar)		26	29	11	3,54	0,88	26,8	3,83 4,25	7,815	
Materiklar va okeanlar tabiiy geografiysi	Tajriba guruh (70 nafar)		27	19	2	3,99	0,7	21	3,91 4,05	9,51	1,13
	Nazorat guruh (72 nafar)		24	26	10	3,53	0,87	26,4	3,43 3,61	7,815	
O'rta Osiyo tabiiy geografiysi	Tajriba guruh (67 nafar)		22	18	3	3,95	0,75	21,5	3,9 4,1	8,02	1,10
	Nazorat guruh (68 nafar)		28	22	8	3,56	0,9	26,8	3,4 3,6	7,815	
O'zbekiston tabiiy geografiysi	Tajriba guruh (67 nafar)		22	18	3	3,95	0,75	21,5	3,9 4,1	8,02	1,10
	Nazorat guruh (68 nafar)		28	22	8	3,56	0,9	26,8	3,4 3,6	7,815	
Xulosa	H1 gipoteza qabul qilinadi										


